Keramika buyumlari-g‘isht va sopolni ilk bor ishslash o‘rta asrlarda bosh-langan. Markaziy Osiyolik ustalar g‘ishtdan poydevor, ustun, maqbara, gumbaz, zina, zinapoya, yerto‘la kabi inshoatlar barpo etishgan. Jumladan, IX asr oxiri X asr boshlarida Buxoroda bunyod etilgan Samoniylar maqbarasi, XII asrda karvon yo‘lida qurilgan Jarqo‘rg‘on minorasi sifatli pishiq g‘ishtda qurilgan.

XX-asr davomida Respublikamizning Toshkent, Samarqand, Quvasoy, Angren, Rishton, Nukus singari ko‘pgina shaharlarida keramikadan qurilish, xo‘jalik hamda texnika materiallari va buyumlari ishlab chiqaradigan yirik korxonalar qurildi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

85 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Shisha sanoati esa O‘zbekistonda faqat XX-asning ikkinchi yarmida barpo etildi va rivojlandi. Hozirgi kunda Respublikamizning besh yirik korxonasida shisha mahsulotlari - deraza oynasi, shisha tolasi, maishiy xo‘jalik shisha (banka, butilka), suyuq shisha, billur, rangli shisha, archa taqinchoqlari, yo‘l belgilari shishasi, elektronika va elektrvakuum texnikasi shishalari ishlab chiqarilmoqda. 2009 yildan boshlab Toshkentda joylashgan “Asl Oyna” OAJ korxonasida shisha tarasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bu korxonada rangli (jigarrang va yashil rangli) va rangsiz butilka ishlab chiqariladi va nafaqat O‘zbekistonni ixtiyojini qondiradi, balki Qozog‘iston, Turkmaniston va Kirgiziya davlatlariga xam eksport qilinadi. Korxonada ISO 9001:2008 Sifat Menedjmenti sistemasi kiritilgan. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati 124,6 mln. dona shisha tara/yiliga.

Quvasoy shaxrida joylashgan «Kvars» OAJ O‘rta osiyo regionida rangli, chiniqtirilgan va tonirovanniyl listli shisha, shisha banka va butilka ishlab chiqaruvchi eng katta korxona xisoblanadi. Ishga 1975 yilda tushurilgan bo‘lib, 2002 yilda rekonstruksiya qilindi. Ishlab chiqarilgan maxsulotlar ichki bozorning talabini to‘liq qondiradi va qo‘shni davlatlarga ekport qilinadi (Kozog‘iston, Turkmeniston, Tojikiston, Kirgiziston va Afg‘oniston). Korxonada yiliga 219 mln. dona shisha banka (MVP uchastok № 1), 33 mln. dona shisha butilka (MVP uchastok № 2) ishlab chiqarish sexlari, MVP uchastok № 3 sexida 2005 yilda yangi liniya ishga tushurildi ("Emxart", Germaniya) va rekonstruksiya natijasida yiliga 120 mln. dona shisha butilka ishlab chiqariladigan bo‘ldi, xamda maxsulot sifati ancha yaxshilandi. Korxonada bundan tashqari 1996 yildan boshlab kuniga 200 tonna listli shlifovkalangan (polirovannoye listovoye steklo) shisha ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan (SPPS), bu sexda shisha eng progressiv bo‘lgan float usulda shakllanadi. Listli shisha ishlab chiqarish sexi 2002 yil "Tekint" (Italiya) firmasi yordamida rekonstruksiya qilinib, ishlab chiqarish unumdorligi xozirda yiliga 10 mln.m² tashkil qilmoqda. Korxonada chiqarilayotgan arxitektura qurilish shishasini M1, M2, M3 va M4 markalari ramalar, vitraj, mebel, avtovtransport uchun mo‘ljallangan chiniqtirilgan shishalar olishda qo‘llanilmoqda. 2010 yildan boshlab «Kvars» korxonasi bronza rangli massada buyalgan shisha ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi, ilgari bunday listli shishalar respublikaga Xitoy, Rossiya, Turkiyadan valyutaga olib kelinar edi. Korxonada yangi zamonaviy jixozlar va texnologiyalar o‘rnatalganligi munosabati bilan oxirgi yillarda chiqarilayotgan maxsulotning sifati dunyo talablariga to‘liq javob beradi, korxona tarafidan Umumjaxon «Lavri slavi» va «Zolotoy yaguar» mukofotlari bo‘nga da‘lil bo‘lib qoladi.

Chirchiq shisha zavodining bir yilda ishlab chiqargan qurilish shishasi 2,85 mln.m² ni tashkil qiladi. Toshkent va Quvasoy tara zavodlarining bergen butilka va bankalari soni esa 127 mln donadan ortiq.

Olovbardosh materiallar Toshkent shaxrida joylashgan “Ogneupor” korxonasida ishlab chiqariladi. Bu korxonada shamotli, kaolinli yengil vaznli olovbardosh g‘ishtlar ishlab chiqariladi. Angren shahri territoriyasi bu material turini barpo etish uchun kerakli xom-ashyo - kaolin va **Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.**

86 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

tuproqlarga o‘ta boy. Bu esa o‘z navbatida 1580°S va undan ham yuqori daraja haroratga chidamli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar yaqin yillar ichida yana qurilajakligidan dalolat beradi.

Umuman Respublikada an’anaviy va effektiv silikat mahsulotlarining eng muhim turlarini ishlab chiqarilishining zafarli odimi ilgarilab bormoqda.

Yuqorida keltirilgan raqamlar O‘zbekistonda sement, keramika, shisha va elektron texnika vositalari (dielektrik va magnit materiallari) sanoatlari mahsulotlarining yillar davomida muntazam oshib borganligini ko‘rsatmoqda. Perspektiv planlar bundan keyingi yillarda ham bu materiallarni ishlab chiqarish sur’atini yanada yuksaltirilishi haqida dalolat bermoqda.

O‘zbekistonda silikat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sohalarni rivojlanishida Respublikamiz olimlarining ham hissalari katta. Ayniqsa bu borada Toshkent kimyo-texnologiya institutining «Silikat materiallar texnologiyasi» kafedrasida Tadjiyev F.X., Otaqo‘ziyev T.A., Ismatov A.A va boshqalar, O‘zbekistonda Fanlar Akademiyasi qoshidagi «Umumiy va noorganik kimyo» institutining «Silikatlar kimyosi» laboratoriyasida Konsepolskiy I.S. va Sirajiddinov N.A. tomonidan O‘zbekistonning mahalliy resurslari asosida olib borilgan va hozirda ham olib borilayotgan ilmiytadqiqot ishlarining ahamiyati kattadir. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining geologiya va geofizika instituti gilmoya laboratoriyasi, O‘zbekiston geologiya vazirligining «Ximgeolnorud» tresti, O‘rta Osiyo ilmiy-tekshiruv geologiya va mineral xom-ashyo instituti, O‘zbekiston sanoat qurilishi materiallari konsernining «Toshqurilishmateriallari» loyiha-ilmiy tadqiqot instituti hamda yana bir qator muassasalarda ham silikat mahsulotlari olishga yaroqli yangidan yangi xom-ashyo manbalari izlanmokda, yangi progressiv texnologiyalar yaratish, chiqarilayotgan mahsulot sifati va mustahkamligini oshirish bobida ko‘pgina foydali ishlar qilinmoqda.

Silikat mahsulotlari ishlab chiqarishning bundan keyingi ravnaqi albatta shu soha mutaxassislarining saviyasiga bog‘liq. Shuning uchun ham «Bog‘lovchi materiallar kimyoviy texnologiyasi», «Keramika va o‘tga chidamli buyumlar kimyoviy texnologiyasi», «Shisha va sitallar kimyoviy texnologiyasi» va «Elektron texnikasi vositalari kimyoviy texnologiyasi» ixtisosliklari talabalari «Silikat va qiyin eruvchi nometall material va buyumlar texnologiyasi» faniga katta ahamiyat berib, shu materiallarning olinish texnologiyasi, xossalari, ishlatiladigan joylari to‘g‘risida chuqur va har taraflama bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Shunday qilib, silikat va qiyin eruvchi nometall materiallar texnologiyasi sohalariga oid mahsulotlar ishlab chiqarish O‘zbekiston Respublikasida yaxshi yo‘lga quyilgan. O‘zbekistonda yuqori sifatli buyumlar ishlab chiqarish uchun texnika ham, xom-ashyo bazasi ham yetarlidir. «Ohangaronsement», «Bekobodsement», «Quvasoysement», va «Qizilqumsement» kabi portlandsement ishlab chiqaruvchi, «Kvars», «Oniks» va «Asl oyna», kabi shisha mahsulotlari beruvchi, Toshqurilishmaterillari, «Kulol», Toshkent, Quvasoy, Samarqand va Xiva chinni zavodlari kabi keramika buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining dovrug‘i faqat Respublikamizdagina emas, balki xorijiy davlatlariga ham keng tarqalgan. Bugungi kundagi vazifa bu yutuqlarimizni

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

87 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

avaylab asrash, ularning boy tajribalarini boshqa korxonalarga yoyish va ulardan samarali foydalana bilish, malakali kadrlar tayyorlashni yanada yaxshi yo‘lga qo‘yishdan iboratdir.

Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda Prezidentimizning 2005 yil 24 martdagи “Qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va tarmoqni jadal rivojlantirish to‘g’risida”gi farmoni hamda 2009 yil 19 iyundagi “Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag’batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori muhim dasturi amal bo’layotir.

Respublikamizda 2015 yilning birinchi choragi yakuni bo‘yicha 1696,7 ming tonna tsement, 1834 ming kvadrat metr qurilish oynasi, 8,9 million dona devorbop material, 189 ming kvadrat metr keramik plitka, 1,8 ming tonna yig’ma temir-beton mahsuloti ishlab chiqarilgan. Import tovarlar o‘rnini bosishga qaratilgan mahalliylashtirish dasturi doirasida kompaniya tizimidagi korxonalar tomonidan 1202,6 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, belgilangan prognoz ko‘rsatkichi 104,2 foizga bajarilgan.

Mamlakatimiz sement zavodlarida har yili 15 turdagи 7 million tonnagacha sement ishlab chiqarilmoqda. Qurilish tarmogi va sanoatda umumiy maqsadlarda foydalaniladigan sement, neft va gaz quduqlarini tsementlash uchun mo’ljallangan tamponj tsement, gidrotexnik inshootlar qurilishida qo’llaniladigan sulfatga chidamli tsement shular jumlasidan. Bundan tashqari, mamlakatimizda bezak ishlarida foydalaniladigan oq sement ham ishlab chiqarilayotir. O’tgan yili Jizzax viloyatining Zafarobod tumanida Jizzax tsement zavodi foydalanishga topshirildi. Ushbu hududda tsement tayyorlash uchun asosiy xomashyo – yuqori sifatlari oxaktosh qatlamlarining mavjudligi ushbu zavod qurilishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tarkibida faoliyat yuritayotgan mazkur korxona yiliga 350 ming tonnagacha oq tsement va 760 ming tonna portlandtsement ishlab chiqarish quvvatiga ega. Zavodda ishlab chiqarilgan oq tsementdan pardozlash ishlari va suniy marmar ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Takidlash joizki, oq tsementning 70 foizini eksport qilish rejorashtirilmoqda.

“Qizilqumtsement” aktsiyadorlik jamiyatni yurtimizda tsement ishlab chiqaradigan etakchi korxona hisoblanadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tsementning yarmi ushbu korxona hissasiga to‘g’ri kelmoqda. Bu yiliga qariyb 3,5 million tonnani tashkil qiladi. Bundan tashqari, “Ohangaron tsement” aktsiyadorlik jamiyatida yiliga 1,7 million tonnagacha, “Quvasoytsement” aktsiyadorlik jamiyatida 1 million tonnadan ortiq va “Bekobodtsement” aktsiyadorlik jamiyatida 1 million tonnaga yaqin tsement ishlab chiqarilayotir. Ushbu korxonalar har yili yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish hisobidan ishlab chiqarish quvvatlarini oshirmoqda.

Ayni paytda turli viloyatlarda yirik va kichik tsement zavodlari barpo etilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog’iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida ikkita yirik tsement zavodi qurilishi boshlandi. Ushbu korxonalarda yiliga birgalikda ikki million tonnagacha sifatlari portlandtsement

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

88 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

ishlab chiqarish rejalarhtirilmoqda. Kichik tsement zavodlari qurilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Andijon va Farg’ona viloyatlarida shunday zavodlar faoliyat yuritmoqda. Jizzax viloyati Zomin tumanida barpo etilgan mini-zavod ham yaqinda ishga tushiriladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida yiliga 500 ming tonna tsement ishlab chiqarish quvvatiga ega mini-tsement zavodi qurilishi jadal davom ettirilmoqda.

Ayni paytda portlandtsement ishlab chiqarishda mahalliy tog’ jinslaridan kompleks foydalanish bo'yicha olimlarimiz tomonidan yaratilgan texnologiya “Qizilqumtsement” va “Quvasoytsement” aktsiyadorlik jamiyatlarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, mahalliy vulqonli tog’ jinslaridan tsement xomashyosi aralashmasi tarkibida bir paytning o'zida asosiy alyumosilikatli komponent va temirli mineralizator sifatida foydalaniladi. Bu chet eldan keltiriladigan temirli qo'shimchalardan foydalanish, pirovardida ularni tayyorlash va transportirovka qilishda mablag’ sarflashni talab qilmaydi. Shu bilan birga, energiya va resurs tejaydigan ushbu texnologiya ishlab chiqarishning soddalashtirilgan texnologik shakliga ega bo'lib, pechli agregatlar mahsulorligini oshiradi va tsement tannarxini kamaytiradi.

Yana bir ishlanma bu sulfatga chidamli tsement olish texnologiyasidir. Tarkibida mahalliy xomashyo asosidagi kompozitsion mineral qo'shimchalar mavjud bo'lgan va ko'plab maqsadlarda ishlatiladigan tsement ishlab chiqarish texnologiyasini keng joriy etishdek dolzarb vazifani hal etishga qaratilgan mazkur texnologiya tsementning mustahkamligi va sulfatga chidamliligini pasaytirmagan holda, uning tarkibiga 15-20 foizgacha kompozitsion mineral qo'shimchalar qo'shish imkonini beradi. Ayni paytda klinkerni maydalashda tog’ jinslari, gliej, kvarts va shpatli qum hamda boshqa minerallarni o'z ichiga olgan kompozitsiyalardan faol mineral qo'shimchalar sifatida foydalanilmoqda. Buning samarasida qimmatbaho klinker tejalmoqda, tsement tannarxi pasayib, uning qurilish-texnik xususiyatlari yaxshilanmoqda. Ushbu texnologiya ayni paytda “Qizilqumtsement” aktsiyadorlik jamiyatida o'zlashtirildi.

“O'zmetkombinat” aktsiyadorlik jamiyatining tarkibida temir mavjud bo'lgan chiqindisi – metall kuyindisi asosida loyli burg'ilash suyuqligi uchun import o'rmini bosadigan “OK” va “Kompozit” og'irlashtirgichlari ishlab chiqildi. Neft-gaz tarmog'i uchun maxsus mo'ljallangan mazkur mahsulotlarning foydalanish xususiyati zamонави talab va meYorlarga to'liq javob beradi. Ular asosida neft-gaz quduqlarini mustahkamlashga mo'ljallangan og'irlashtirilgan tsement ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi. Yuqori darajada qotish va zarur texnologik xususiyatga ega ushbu tsement narxi mamlakatimizda ishlab chiqariladigan va chetdan olib kelinadigan boshqa tsementlarga nisbatan arzondir. Toshkent viloyatining Saribuloq konidagi “Neftgazmineral” sho'ba korxonasining maydalash bo'limida ishlab chiqarilgan “Okalin” og'irlashtirgichining yirik tajriba-sanoat to'plami “O'zgeoburneftgaz” aktsiyadorlik kompaniyasining burg'ilash uchastkalarida loyli burg'ilash suyuqligini tayyorlashda foydalanildi. Uning asosida tamponaj tsement tarkibi ishlab chiqildi va “O'zgeoburneftgaz” aktsiyadorlik kompaniyasining burg'ilash uchastkalarida foydalanish

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

89 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

uchun tavsiya qilindi. Bundan tashqari, tsement ishlab chiqarish va neft-gaz qazib olish tarmog’ida okalindan foydalanishni taminlaydigan standart (Ts) ishlab chiqildi.

Fosfogipsdan suniy gips olish ham markazning ekologik va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ishlanmalari jumlasidan. Ekstraktsion fosforli kislota ishlab chiqarishda fosforitlarning oltingugurt kislotasiga ajralishi jarayonida hosil bo’ladigan fosfogips tarkibida oltingugurt va fosfor kislotasi qoldiqlari bo’lgani bois hozirgi paytga qadar amalda qo’llanilmagan edi. Aksariyat mamlakatlarda kislotali qoldiqlarni yo’q qilish maqsadida fosfogips ko’p miqdordagi suv bilan yuviladi. Biroq mamlakatimizda suv resurslarining tanqisligi bois ushbu usul qimmat va maqsadga muvofiq emas. Shundan kelib chiqib, respublika olimlari fosfogipsni ishqorli komponent – klinker yoqish pechlari changi yordamida modifikatsiyalash yo’li bilan undagi ortiqcha kislotani bartaraf etishning oddiy uslubini, yani tozalangan fosfogipsdan tsement ishlab chiqarishda tabiiy gips tosh o’rnida tsementning qotish muddatini rostlagich sifatida foydalanishni taklif qildi. Ayni paytda bu borada ikki turdagи texnogen chiqindi – kimyoviy ishlab chiqarish chiqindisi bo’lgan fosfogips va tsement ishlab chiqarishda ajraladigan changdan foydalanilmoqda. Tsement ishlab chiqarishda modifikatsiya qilingan fosfogipsdan foydalanishda gips toshlarini maydalash bosqichi texnologik jarayondan chiqarildi va bu tsementning tannarxiga ijobiy tasir ko’rsatdi.

Sement va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarishda foydalaniladigan va “Elemental” masuliyati cheklangan jamiyatni mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan “Fosfozol” faol mineral qo’shimchasi ham muhim ishlanmalardan biridir. Ushbu qo’shimcha Yangi Angren issiqlik elektr stantsiyasining fosfogips va kul shlagi aralashmasiga avtoklavda ishlov berish usuli bilan olinadi va mazkur usul texnogen chiqindilarni samarali va kompleks ravishda utilizatsiya qilish imkonini beradi. “Fosfozol”dan turli qurilish materiallari, jumladan, tsement, gipsokarton, quruq qurilish aralashmalari, xom g’isht ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, “Fosfozol”ni tsementning qotish muddatini sekinlashtiradigan gips toshlari o’rnida qo’llash mumkin. Shu bois ushbu qo’shimchani ishlab chiqarish va undan foydalanish ekologik jihatdan foydali bo’lib, katta iqtisodiy samara beradi va ayrim texnologik jarayonlarni soddalashtiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti, arxitekturasi va shaharsozligini yanada rivojlantirish uchun sifatlari va arzon qurilish materiallari, xususan, kompozitsion tsement ishlab chiqarish zarur. Shuning uchun korxonalar bilan respublika olimlari birgalikdagi say-harakatlari bilan faol mineral qo’shimchalar va tsement tarkibini to’ldiruvchi qo’shimchalarining yangi manbalarini o’rganish, shuningdek, ulardan foydalangan holda yangi turdagи tsement ishlab chiqish bo’yicha tadqiqotlar izchil davom ettirilmoqda. Olimlarimizning yutuqlari nafaqat qimmatbaho import xomashyo o’rnini bosish, balki zararli texnogen chiqindilarni utilizatsiya qilish, kelgusi avlodlar uchun musaffo atrof-muhitni asrab-avaylash imkonini beradi.

Mamlakatimizda xalqaro standartlarga javob beradigan zamонавиy qurilish materiallarini ishlab chiqarish ham yo’lga qo’yildi. Jumladan, 2011 yilda “Knauf Gips Buxoro” MChJ xususiy

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

90 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

korxonasida “Knauf” firmasi texnologiyasi bo'yicha quvvati yiliga 20 mln. kv.m bo'lgan gipskarton buyumlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Loyihani amalga oshirish uchun esa Germaniyaning dunyoga mashhur “Knauf” kompaniyasi tomonidan 35 mln. evro sarflanib, ishlab chiqarish zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda to'liq avtomatlashtirildi.

Shuningdek, “O’zqurilishmateriallari” AK tomonidan yangi turdag'i qurilish materiallarini ishlab chiqarishni o’zlashtirish borasidagi aniq chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Navoiy TKMK tomonidan “O’zqurilishmateriallari” AK bilan hamkorlikda “Navoiy viloyatida quvvati 12 mln.kv.m. bo'lgan oyna ishlab chiqarishni tashkil qilishgan.

Sanitar-texnik sopol buyumlar ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasini amalga oshirish bo'yicha esa Janubiy Koreya kompaniyalari bilan muzokaralar olib borildi.

Yangi materiallar yaratish, ularning xususiyatlari va ishlov berish usullarini o’rganish zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo’nalishlaridan biridir. Ayni paytda iqtisodiyotning sanoat, arxitektura, shaharsozlik kabi turli sohalari talablarini qondiradigan va barcha qurilish meyorlariga mos keladigan kompozitsion tsement turlarini yaratishga alohida etibor qaratilmoqda.

Lekin bundan silikat va qiyin eruvchi nometall material va buyumlar texnologiyasi sohalarida barcha ishlar qilib bo‘lingan degan xulosa kelib chiqmaydi. Oldimizda turgan vazifa bu sohalarning texnologiyalarini rivojlanishini yangi yuqoriqoq bosqichiga olib chiqish, mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasidagi o‘xshashliklardan effektiv foydalanish, mahsulotlar sifatini chet el na’munalaridan qolishmaydigan qilib chiqarish va xalqimizning o’sib kelayotgan talabalarini qondirishdan iborat.

Mavzuga oid tayanch so‘z va iboralar.

Oliy ta’lim-O‘zbekiston Respublikasida Oliy mutaxassislik ta’li-mi odatda o’n sakkiz-o’n tukkiz yoshdan boshlanib, to‘rt yildan kam bo‘lma-gan muddatda davom etishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim boskichlari-Oliy mutaxassislik ta’limi bakalavrlik hamda magistraturadan tashkil topgan.

Bakalavrlik- yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bazaviy oliy ta’lim be-rish demakdir. Unda o‘kish 4 yil davom etib, u oliy ma’lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi.

Magistratura- anik mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta’lim bo‘lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi. Undagi taxsil yakuniy kvalifikatsion davlat attestatsiyasi va magistrlik dissertatsiyasini himoya kilish bilan nixoyasiga yetadi.

“Silikat materiallar texnologiyasi” fani- keramika va olovbardosh buyumlar, chinni va sopol, shisha va sitall, emal va ximoyalovchi koplamalar, asbotsement va boglovchi materiallar ishlab chiqarish buyicha mutaxassislarni tayyorlashdagi texnologik, ilmiy-texnik, ekologik va iktisodiy masalalarni umum matematika, tabiiy-ilmiy, umumta’lim va mutaxassislik fanlari asosida o‘rganishni takozo kiladi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi sohalari- uch katta soxadan iborat: 1.Keramika va o’tga chidamli materiallar kimyoviy texnologiyasi; 2.Shisha va sitallar kimyoviy texnologiyasi; 3.Bog‘lovchi moddalar kimyoviy texnologiyasi.

Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi- inson talabidan kelib chikkan holda tarkibida silikat va qiyin eriydigan nometall moddalar bo‘lgan buyum va materiallarni ishlab chiqarish majmuasi.

Texnologik tizim- kerakli xom-ashyolarga ishlov berish yo‘li bilan ma’lum xossa va xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishning uzviy bog‘langan jarayonlari majmuasi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasidagi o‘hshashlik-keramika va shisha, bog‘lovchi va elektron texnikasi mahsulotlarining deyarli asosiy belgilari, ayniksa ishlatiladigan xom-ashyo turi, ishlab chiqarish usuli va texnologik parametrlari jihatidan bir-biriga o‘xshab ketishi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasidagi farqlar- texnologik tizim jarayonlarining joylashishdagi farqlar.


Nazorat uchun savollar.

- 1.O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim odatda necha yil davom etadi?
- 2.Oliy ta’lim boskichlari kanday nomlar bilan ataladi?
- 3.Bakalavrlik yo‘nalishlarining bazaviy oliy ta’lim berishdagi roli kanday?
- 4.Magistraturaning anik mutaxassislik bo‘yicha oliy kasbiy ta’limni ta’minlashdagi roliga izoh bering.
5. Kimyoviy texnologiyaga oid kanday bakalavrlik yo‘nalishlari mavjud?
6. 5320400 – Kimyoviy texnologiya (qurilish materiallari kimyoviy texnologiyasi bo‘yicha) yo‘nalishi deb nimaga aytildi?
7. 5A320404 – Qurilish materiallar texnologiyasi mutaxassisligi hakida kanday ma’lumotlarga egasiz?
- 8.Silikat materiallar texnologiyasining nazariy asoslari fanining mohiyati va vazifalarini tushintirib bering.
- 11.Silikat materiallar texnologiyasi kaysi sohalar bo‘yicha material va buyumlar ishlab chikaradi?
- 12.Silikat materiallar texnologiyasi deganda nima tushiniladi?
- 13.Texnologik tizimning mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi roli hakida tushincha bering.
- 14.Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasidagi o‘hshashliklarni sanab bering.
- 15.Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasida kanday farqlar bor?

1 mavzuni mastaxkamlash uchun pedagogik texnologiyalarni kullash.

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

1-Vazifa: Shisha va sitall ishlab chiqarishda ishlataladigan xom-ashyolar bo‘yicha “Qanday?” metodi yordamida jadvalni to‘ldiring



2-Vazifa: Guruhdagi har bir talabaga individual tarzda “Karbonat”, “Qum” va “Gil” suzlariga “Sinkveyn” tuzish topshiriladi.

Masalan, “Karbonat” suziga “Sinkveyn” .

1. Карбонат.

2. Кальций карбонат.

3. Харорат таъсирида парчаланади.

4. Оҳак ишлаб чиқаришда асосий хом ашё.

5. Оҳактош.



“Sinkveyn” metodini amalga oshirish bosqichlari:

O‘qituvchi talabalarga mavzuga oid tushuncha, jarayon yoki hodisa nomini beradi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Talabalardan ular haqidagi fikrlarini qisqa ko‘rinishda ifodalashlari so‘raladi. YA’ni, she’rga o‘xshatib 5 qator ma’lumotlar yozishlari kerak bo‘ladi. U quyidaga qoidaga asosan tuzilishi kerak:

1-qatorda mavzu bir so‘z bilan (odatda ot bilan) ifodalanadi.

2-qatorda mavzuga juda mos keladigan ikkita sifat beriladi.

3-qatorda mavzu 3ta xarakatni bildiruvchi fe’l bilan foydalaniladi.

4-qatorda temaga doir muhokama etuvchilarning hissiyotini ifodalovchi jumla tuziladi. U to‘rt so‘zdan iborat bo‘ladi.

5-qatorda mavzuni mohiyatini ifodalovchi bitta so‘z beriladi. U mavzuning sinonimi bo‘ladi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. -М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3

Qo’shimcha adabiyotlar

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
2	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
3	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

Horijiy adabiyotlar

9. Siegbert Sprung "Cement" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, 2012 Wiley-VCH, Weinheim. [doi:10.1002/14356007.a05_489.pub2](https://doi.org/10.1002/14356007.a05_489.pub2)

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

10. John L. Provis, Grant C. Lukey, and Jannie S. J. van Deventer “Do Geopolymers Actually Contain Nanocrystalline Zeolites. A Reexamination of Existing Results” Chem. Mater. 2005, 17, 3075-3085 .<http://www.amazon.com/Silicate-Technology-Methods-Series-Applied/dp/0471039659>
11. Zhang Yabin, Ding Yaping, Gao Jiqiang, Yang Jianfeng Mullite fibres prepared by sol-gel method using polyvinyl butyral., J. Eur. Ceram. Soc. N 6, 2009, t.29, ctp.1101-1107.
12. Noritake Yasunobu, Kiyono Hajime, Shimada Shiro., Preparation and corrosion of mullite thin film on SS-sialon ceramics., Key Eng. Mater. N 403, 2009, ctp.135-138.

Internet saytlari

- 21.www.ziyonet.uz
- 22.www.bilimdon.uz
- 23.www.ref.uz
- 24.<http://www.texhology.ru>

2-MA’RUZA.

Xom ashyni tanlash printsiplari, klimatik va tabiiy sharoitlarni xisobga olgan xolda silikat material va buyumlarni ishlab chiqarishda texnologik echimlar.
(2 soat)

Reja:

- 1. Qurilish materiallar texnologiyasining nazariy asoslari.**
- 2. Xom ashyni tanlash prinsiplari, klimatik va tabiiy sharoitlarni xisobga olgan xolda qurilish material va buyumlarni ishlab chiqarishda texnologik yechimlar.**

1. Qurilish materiallar texnologiyasining nazariy asoslari.

Korxona tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan oldin bozor talablari bilan tanishadi. So‘ngra kerakli material yoki buyumlarning xossalarni oldindan aniklaydi. Shu xossa va xususiyatlar xom ashylarni tanlash orkali ta’milnani.

Masalan, suv ko‘shilganda u bilan reaksiyaga kirishib vakt o‘tishi bilan mustaxkam modda xosil bo‘lishi kerak bo‘lsa tanlash ohaktosh va gil atrofida bo‘ladi. Kotuvchanlik va bog‘lovchilik xususiyatlarini oshi-rish uchun ohaktoshdan massa tarkibida ko‘prok olish kerak bo‘ladi. Agar shaffof moddalar ishlab chiqarilishi zarur bo‘lsa- kum, ohaktosh va soda kabi moddalar tanlaniladi. Shixta tarkibida albatta kum ko‘p mikdorda bo‘lmokligi zarur.

Avvalo texnologik jarayonda xom ashyo sifatida ishlataladigan materiallar ustida to‘xtab o‘tamiz. Keramika va utga chidamli materiallar olinishida - gil, lyoss, kum va shamot, shisha va

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

95 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

sitall mahsulotlari ishlab chiqarishda esa - kum, ohaktosh, soda va potash kabi xom ashyolar ishlatiladi. Bog‘lovchi moddalar olinishida esa asosan ohaktosh,gil, gips-tosh va kum juda ko‘l keladi. Elektron texnika materiallari va buyumlari ishlab chiqarishda tabiiy xom ashyolar bilan bir katorda toza sun’iy moddalar keng ishlatiladi.

Kurinib turiptiki turli-tuman silikat mahsulotlarini olishda ishlatiluvchi xom ashyo turlarida anchagina o‘xhashlik bor. Ammo ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xossa-xususiyatlariga karab ularni uzaro mikdori va turi o‘zgarishi mumkin. Masalan, qurilish g‘ishti, g‘ovak va kovakli g‘ishtlar olinishida gilning oson suyuklanuvchan turi (1620 K dan past xaroratga bardosh beradi) ishlatiladi. Turli mexanik ko‘sishchalar - kvars kumi, temir oksidlari, ohaktosh zarrachalari va organik birikmalarning ko‘pligi ularni pastrok xaroratda suyuklanishga olib keladi. O‘tga chidamli materiallar olinishida esa o‘tga bardoshli gillar ishlatiladi. Ular oson suyuklanuvchan gillarga nisbatan toza bo‘lib, kvars, dala shpati, slyuda, temir birikmalari va boshqalar nisbatan kamrok aralash bo‘lgani sababli 1850 K dan yuqori haroratga bardosh beradi. Gillarning uchinchi turi - qiyin suyuklanuvchan gillar esa 1620-1850 K xaroratda suyuklanadi. Ularda mexanik ko‘sishchalar o‘tga bardosh gillardagiga karaganda ko‘prok bo‘lgani sababli o‘tga chidamli g‘isht olib bo‘lmaydi. Ular asosan kanalizatsiya kuvurlari, pol va ichki pardoshlash plitkalari, fasadga oid keramika ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Silikat mahsulotlari olinishidagi bajariladigan asosiy texnologik operatsiyalardan birinchisi xom ashyo materiallarini tayyorlash bo‘lib, u xo‘l yoki kuruk usulda amalga oshiriladi. Xom ashyo materiallari suvda tayyorlanayotganda, ishlab chiqarish usuli “xo‘l” usul deb ataladi. Kaysi usulni tanlash xom ashyo turi va uning xossalari, texnologik va texnik-iktisodiy xarakterdagи bir kator omillarga bog‘lik.

Keramika, shisha va bog‘lovchi modda asosidagi mahsulotlarining deyarli asosiy belgilari, ayniksa ishlatiladigan xom-ashyo turi, ishlab chiqarish usuli va texnologik parametrlari nazariy jihatidan bir-biriga o‘xshab ketadi. Bunday deyish, albatta, materiallarni ishlash vositalari va usullari bobida xech kanday o‘zgarish yo‘k degan xulosani keltirib chikarmaydi. Ammo farq ko‘prok ishlab chiqarilgan materiallarning xossalari kelib takaladi. Olingan modda kimyoviy muxitga bekaror va barkaror, o‘tga nisbatan bardosh yoki chidamsiz, xira va shaffof bo‘lishi mumkin. Shu sababli keramika va shisha, bog‘lovchi va elektron texnikasi mahsulotlarini ishlatuvchi soxalar ham xilmashil. U ishlab chiqarish vositalari va iste’mol buyumlari ishlab chiqarishda, fan-qurilish va kishlok xo‘jaligida keng ko‘lamda ishlatiladi. Buning asosiy sababi - ularning bir kancha muxim texnikaviy xossalarga egaligidir. Ular sikilish va chuzilishda yuqori mustaxkamlikka egadirlar, yonish, chirish va zanglash nimaligini bilmaydi, elektr toki, issik vasovukka chidamli, tovush o‘tkazmaydigan hamda kimyoviy moddalar ta’siriga barkaror materiallardir.

Yangi keramika va shisha, bog‘lovchi va elektron texnika vositalarining ko‘plab ishlab chiqarilishi, ularga jaxon bozoridagi talabning kun sayin oshib borishi ishlab chiqarishning xom-

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

96 bet


“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

ashyo bazasini ham kengaytirish zaruriyatini tug‘dirdi. Kaolin, bentonit, lyoss, dala shpati, kum, magnezit, ohaktosh, dolomit, soda, potash kabi an'anaviy moddalar o‘z mavkeini saklab kolgan holda xom ashyo bazasi soni tabiiy va sun’iy birikmalar Y_2O_3 , Al_2O_3, ZnO_2 , MgO, TiO_2 , Fe_2O_3 , ZnS, SnO, SiC , TiC , Si_3N_4 , TiB_2 , ThO_2 , B_4C , Si_3N_4 , TiC , TiN , UO_2 , ThS , UC , US hisobiga oshdi.

2. Xom-ashyo tanlash va tayyorlash, xom-ashyo aralashmalarini tayyorlash jarayonlarining tavsifi. Xom-ashyo tayyorlashning umumiyligi tizimi. Xom-ashyo materiallari asosiy guruxlari va ularga quyiladigan talablar.

Keramika va shisha, bog‘lovchi va elektron texnika mahsulotlari texnologiyasi tarkibiga kiruvchi xom ashylarni qidirib topish va ular asosida ya’ni texnologiyalar joriy etish va chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash xozirgi kunning ham dolzarb muammolaridandir.

Bog‘lovchi moddalar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xom-ashylarni tanlash sxematik ravishda quyidagicha ifodalanishi mumkin.



Ma’ruzalar matnining keramika va shisha, bog‘lovchi va elektron texnika mahsulotlari kimyoviy texnologiyasi kismini yozish jarayonida so‘z yurutilayotgan sanoat sohalari mahsulotlarining kun sayin turi va sonining ko‘payib borayotganligi, ishlab chiqarish texnologiyalari

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***


metodlarining intensiv rivoji va yuksalib borishi, ularning ilmiy asoslarini o‘rganishning chukurlashib borishi inobatga olindi.

Keramika va shisha, bog‘lovchi va elektron texnika mahsulotlari texnologiyasi tarkibiga kiruvchi xom ashyolarni kidirib topish va ular asosida ya’ni texnologiyalar joriy etish va chikarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash xozirgi kunning ham dolzarb muammolaridandir.

Umumiy qilib gapirilganda, bog‘lovchi moddalar ishlab chiqarishda xom-ashyolarni tanlash quyida nomlari keltirilgan 6 xil jinslar atrofida bo‘ladi:

1. Karbonatli xom-ashyolar. Ularga portlandsement va ohak olishda ishlatiladigan ohaktosh, bo‘r, ohak tufi, chig‘anoqtosh nomli ohakli tog‘ jinsi hamda magnezial bog‘lovchilar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan dolomit va magnezit kiradi. Ohaktosh, magnezit va dolomit

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**



kristall panjaralari tog‘ jinslari bo‘lib, ularning tarkibi ko‘pincha tegishli kimyoviy formulaga to‘g‘ri keladi. Ularning mikrotuzilishi turlichay bo‘lishi mumkin. Masalan, dolomitning mikrostrukturasi kristallarining o‘lchamiga qarab mayda kristalli (o‘lchami 0,1 mm dan kichik), o‘rtacha kristalli (o‘lchami 0,1-0,25 mm oralig‘ida) va yirik kristalli (o‘lchami 0,25 mm dan katta);

2. Gilli xom-ashyo - gillar, gilli slanetslar, qumoq tuproqlar, lyoss va boshqalar. Ular sementli shixtalarning ikkinchi asosiy komponenti hisoblanadi. Gillar ham tabiatda keng tarqalgan bo‘lib,

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

99 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

kimyoviy tarkibiga ko‘ra kaolinit, galluazit, pirofillit, montmorillonit, monotermit kabilarga ajraladi.

Ular tabiatda granit va gneyslarning parchalanishidan hosil bo‘ladigan jinslardir;

3. Karbonat-gilli xom-ashyo - mergellar. Mergellar tabiatning ulug‘ tuhfasi bo‘lib, o‘ta yuqori sement olishga imkon tug‘diraditgan yuqori sifatli xom ashayodir.

4. Kremnezemli xom-ashyo - silikat avtoklav materiallari tayyorlash va portlandsement shixtalarida korrektirovka qiluvchi qo‘sishimcha sifatida ishlatalidigan kvarsli qumlar va betonlar solishtirma og‘irligi va korroziyaga chidamlilagini oshirish uchun sement tarkibiga faol mineral qo‘silma sifatida kiritiladigan treppellar, diatomitlar va opoka (qumga boy tog‘ jinsi) lar. Tabiatda kvarsitlar ko‘p tarqalgan zinch qattiq maydadonali tog‘ jinsidir. Ular asosan kvars donachalaridan tashkil topgan bo‘lib, qo‘silma modda sifatida tarkibiga muskovit, xlorit, gemitit, grafit, kianit va boshqalar kiradi;

. 5. Sulfatli xom-ashyo - gipstosh va tabiiy angidrid. Ular gipsli.bog‘lovchilar ishlab chiqarishda asosiy xom-ashyo va portlandsement qotishi reguliyatorlardir;

6. Toshqol va kollar - sementlarning xom-ashyoli shaxtasi hamda ohak, gips va portlandsement asosida olinadigan qo‘shma sement tarkibiga kiradi.


Markaziy Osiyo, shu jumladan O‘zbekistonda uchraydigan tabiiy xom ashylar turi, ularning xossalari va kimyoviy-mineralogik tarkibiga oid faktlar mumkin darajada ko‘prok yoritishga harakat kilindi.

Materiallarni tayyorlashga oid asosiy vazifa - talab kilingan namlik hamda kimeviy, mineralogik va granulometrik tarkibli bir jinsli xom ashyo aralashmasini xosil kilişdir. Ana shunday aralashma tayyorlash uchun tarkibiga kiradigan materiallar (ohaktosh, gil, tug‘rilovchi ko‘silma, suv va par) ning hammasi mayda tuyiladi va ma’lum mikdordagi namlikda yaxshilab aralashtiriladi. Tarkibiga kiradigan materiallar mayda tuyilsa, xom ashyo aralashmasi tarkibidagi oksidlar kuydirilayotgan yoki eritilayotganda o‘zaro to‘larok ta’sir etishadi.

Masalan, bog‘lovchi moddalar olinishida xom ashyo iloji boricha mayda tuyilsa, kuydirilayotganda klinkerda ta’sir etishmay kolgan mod-dalar deyarli butunlay bo‘lmaydi va hamma oksidlar uch kalsiyli silikat (alit), ikki kalsiyli silikat (belit), uch kalsiyli alyuminat va to‘rt kalsiyli alyumoferrit (selit) minerallari holida bog‘langan bo‘ladi.

Xom ashyo materiallarini tayyorlash keramika va shishalar texnologiyasining ikkala kismi uchun ham aynan o‘xhash bo‘lib, xom ashyonini yer ostidan kovlab chiqarish, tashish, maydalash, saralash, dozalash, ta’minalash, aralashtirish va tayyor bir jinsli xom ashyonini saklash kabi asosiy texnologik operatsiyalarni o‘z ichiga oladi.

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**




Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasidagi asosiy jarayonlarning

o‘hshashligi va farqlari.

Silikat va elektron texnikasi vositalari mahsulotlari qo‘rilish, maishiy-xo‘jalik va texnikada keng ko‘llaniladigan ko‘p tonnajli maxsulotlar qatoriga kiradi. Ularni ishlab chiqarish uchun ko‘llaniladigan kvars, dala shpati, slyuda, temir-magniyli silikatlar, tuprok, karbonatlar, temir oksidlari tarkalishiga ko‘ra ko‘p tarkalgan va keng ishlatiladigan xom ashyolar katoriga kiradi. Kuyida biz shu xom ashyolar asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar olish texnologiyasining nazariy asoslari va asosiy jarayonlari bilan tanishamiz.

Texnologik operatsiyalar. Texnologiya suzi materiallarni ishlash vositalari va usullari xakidagi bilimlar majmuasini anglatadi. Shu sababli kuyidagi silikat modda va mahsulotlarini ishlab chiqarish protsessiga oid ba’zi-bir umumiy ma’lumotlarni keltiramiz.

Keramika va utga chidamli materiallar, bog‘lovchi modda va elektron texnikasi vositalariga oid mahsulotlar hamda shisha va sitall buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasining asosida tabiiy yoki sun’iy xom ashyo va materiallar paroshogi (kukuni) ni ma’lum darajadagi kompleks xossalar bilan xarakterlanuvchi texnikaviy monolit toshga aylantirish yotadi.



1-rasm. Sement poroshogi tayyorlash sxemasi.

1. Bog‘lovchi moddalar texnologiyasi: xom ashyo → poroshok yoki shlam tayyorlash → aralashmani kuydirish → klinkerni tuyish;

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

102 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

2. Keramika va utga chidamli materiallar texnologiyasi: xom ashyo → poroshok, plastik massa yoki shlinker tayyorlash → qoliplash → quritish → kuydirish;
3. Shisha va sitallar texnologiyasi: xom ashyo → poroshok yoki briket tayyorlash → eritish → qoliplash → termik, mexanik yoki kimeviy ishlov berish.

Bog‘lovchi modda - portlandsement ishlab chiqarishga oid texnologik jarayon sodda sxema tarzida keltirilgan (1 rasm). Sxemada xar bir jarayon unda kullaniladigan jixoz kurinishida berilgan.

Nomlari qayd etilgan mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarida yuqorida ko‘rsatilgan o‘xshashliklar bilan bir katorda farqlar ham bor. Masalan, keramika va bog‘lovchi moddalar olishda xom-ashyo eritish darajasigacha borib yetmaydi. Lekin shisha va sitallar olishda esa xom-ashyo butinlayin erib ketishi zarur. Mahsulotlarni qoliplash jarayonida ham farqlar mavjud. Keramika va elektron texnika buyumi ishlab chiqarishda avval qoliplash, so‘ngra esa xarorat berish zarur. Ammo bog‘lovchi modda va shisha olishda avval harorat berish, keyinchalik esa qoliplash jarayoni yotadi.

Xom-ashyo, masalan gilni yer ostidan kovlab chiqarish korxona yaqinidagi ochiq sayoz kon-karyerlarda amalga oshiriladi. Xom-ashyo sidiradigan va yuklaydigan mashina - skreper, buldozer yoki ekskavator yordamida avvalo karyer yuzasi o‘simgilik, kulrang tuproq va ohaktosh qoldig‘idan tozalanadi, oqova ariqlari yo‘qotiladi, hamda kirish yo‘li quriladi.

Ohaktosh, mergel, kvars, dala shpati, tog‘ billuri kabi qattiq moddalar esa portlash yordamida donalashtiriladi va bir cho‘michli ekskovator yordamida vagonetka, platforma yoki mashinalarga joylanadi.

Ohaktosh konlari ham gil konlariga o‘xshash yer yuzasida joylashgan bo‘ladi. Shuning uchun ular ham ochiq usulda qazib olinadi. Oldin konda portlatish ishlari bajariladi. Kerak bo‘lsa kichik zaryadlar yordamida portlatish takrorlanadi. Yirik xarsanglar o‘lchami pnevmatik yoki elektr bolg‘alar bilan kamaytiriladi. Maydalangan bo‘lakchalar ekskovatorlar yordamida yuk tashuvchi transportga joylanadi yoki bunker orqali transporterga uzatiladi.

1-jadval

Kvars konsentratlarining chiqishi va ulardagi asosiy oksidlar miqdori

Kon nomi	Konsentrat chiqishi, %	SiO ₂	Fe ₂ O ₃	TiO ₂	Cr ₂ O ₃
Jeroy	63,2-65,0	99,4-99,5	0,009-0,01	0,02	0,001
Karmana	43,7-45,0	99,2-99,4	0,01-0,012	0,005-0,007	0,001
Chiyali	20,0-30,0	99,4-99,6	0,012	0,005	0,001
Maysk	42,3-47,0	99,75	0,0055	0,01	-
Kulantay	58,0-68,5	99,5-99,6	0,009-0,01	0,013-0,016	0,001
Tozbulak, oq	64,2-69,4	99,6-99,7	0,005-0,006	0,001	-

***"SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI" FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA***

Tozbulak, kul rang	47,0-67,0	99,6	0,01	0,003	
Ko'rg'oncha	61,0-62,3	99,4	0,009	0,006	-
Novoselovsk	72,0-85,0	99,5-99,8	0,009-0,011	0,001	-

Ohaktoshni qazib olish vaqtida uning cho'kma jins ekanligiga ahamiyat berish kerak. Uning kimyoviy-mineralogik tarkibi kon sathi va qalinligi bo'yicha farqlanadi. Shu sababli ohaktoshni qazib olishdan oldin konning barcha uchastkalari va qalinligini puxta tekshirib chiqish zarur.

Kon (karyer)dan qazib olingan xom-ashyo, masalan kvars qumi ba'zi hollarda to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish sikliga jalb etiladi, ba'zi hollarda esa boyitish kerak bo'ladi. Turli usullarda boyitilgan kvars konsentratlarining sifat ko'rsatkichlarini 1-jadvalda keltirilgan sifrlardan ko'rish mumkin.

Xom-ashyoni tashish maqsadida relsli va relssiz, davriy va to'xtovsiz uzatib turuvchi mashinalar qo'llaniladi. Relsli transport vositalari qatoriga motovoz, elektrovoz, osma sim arqon yo'li kabilar kiradi. Relssiz yuk tashuvchi vositalarga esa turli-tuman markali avtomashinalar (masalan "BelAZ" va "KrAZ"), elektrolafat, skreper, buldozer va boshqalarni ko'rsatish mumkin.Qattiq iqlimli sharoitlarda normal ishlashni ta'minlash uchun korxona hovlisida ishlab chiqarish uchun kerakli materiallarning ma'lum muddatli zapaslari hozirlab qo'yiladi.

Xom-ashyolarga dastlabki ishlov berish. Bog'lovchi modda, keramika va shisha mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga xom-ashyo tabiiy, texnogen yoki sintetik holatlarida karyer, kon va korxonalardan keltiriladi. Sintetik xom-ashyo - kalsinatsiya qilingan soda, bor kislotasi, bura, potash, bariy karbonati, o'ta toza oksidlar, karbidlar, nitridlar, silitsidlar va boshqa bir qator kimyoviy birikmalar dastlabki ishlov berishni talab etmaydi. Ular korxonalarga tayyor holda keltiriladi va shixtalar tarkibiga dozirovkadan o'tgach kiritiladi.

Tabiiy va texnogen xom-ashyolar - kremnezemli (kvars, kvars qumi, kvarsit, diatomit, opoka, trepel), alyumosilikatli (lyoss, gil, olovbardosh gil, gilli slanets, kaolin, dala shpati, chinni toshi, perlit, pemza, tuf, trass va boshqa), karbonatli (ohaktosh, bo'r, mergel, magnezit, dolomit), glinozemli (boksit va nefelin), sulfatli (gipstosh, angidrid, natriy sulfati), fosforli (fosforit, apatit) moddalar silikat massasi yoki shixtasi tarkibiga boyitilmagan holda kiritilishi mumkin (qurilish keramikasi ishlab chiqarishda). Lekin ko'p hollarda (chinni-sopol, olovbardosh buyum ishlab chiqarishda) ularga dastlabki ishlov berish zaruriyati tug'iladi.


Dastlabki ishlov berish orqali ularning tarkibidagi temir va boshqa rang beruvchi oksidlarning miqdori kamaytiriladi, yopishqoqligini ta'minlovchi glinozyom miqdori oshiriladi va h.k.

Yuqoridagi sxemada shisha sanoati uchun zarur bo'lgan kvarsli qum, ohaktosh, soda, shisha sinig'i misolida xom-ashyolarga dastlabki ishlov berish shartli tizimlari keltirilgan.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Kvars qumlari yuvilgan vaqtida tuproqlardan tozalanadi, qumdag'i erkin temir birikmalarning miqdori 25-30 %ga kamayadi. Bu jarayon klassifikalashtiruvchi konus, gidromexanik klassifikator va gidrotsiklonlarda bajariladi. Ishqalab yuvish maxsus aralashtirgichlarda 8-9 minut davomida amalga oshiriladi. Bu vaqtida kvars zarrachalari yuzasidan gillar yuvilib ketadi, ishqalanish tufayli yuzada joylashib qolgan 80-90% temir birikmali yo'qotiladi.

Flototozalash flotatsion mashinalar yordamida faol aralashtirish yo'li bilan amalga oshirildi. Pulpaga flotoagentlar kiritilishi tufayli qum zarrachalari suvda xo'llanadi va cho'kadi, qo'shilmalar esa qo'llanmaganligi tufayli ko'pik holatida yuzada qoladi. Bu usul yordamida temir oksidining miqdori 0,02-0,04% ga kamayishi mumkin.



Elektromagnitli separatsiya induksion - rolikli magnit separatori yordamida bajariladigan operatsiya bo'lib, unda temir birikmali va kvars zarrachalari turli trayektoriyalar bo'yicha harakat qiladi va yig'iladi.

Boyitishning kimyoviy metodlari ham optik shishalari, qo'rgoshinli billur kabi mahsulotlar ishlab chiqarishda keng ishlatiladi. Yuzani erituvchisi sifatida suyultirilgan kislota yoki kuchsiz kislota tuzi eritmasi ishlatilishi mumkin.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

105 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Kvarsli qumni quritish jarayoni barabanli quritgichlarda 700°С gacha bo‘lgan haroratda olib boriladi. Elash jarayoni esa barabanli yoki vibratsion gumbirlovchi sim g‘alvirlarda amalga oshiriladi.

Silikat va zo‘rg‘asuyuluvchan materiallar ishlab chiqarishda xom-ashyo ilmiy tanlashning naqadar muhimligi haqida yuqorida yozgan edik. Olinadigan mahsulotning sifati esa aksariyatda ularga ishlov berish bilan bog‘liq. Xom-ashyolarga ishlov berish muhim texnologik jarayonlar majmuasi bo‘lib, ko‘pincha katta energiya harajati orqali ro‘y beradi. Xom-ashyoni maydalash deganda material yuzasining kimyoviy faolligini bo‘lakchalar yoki zarrachalar sonini oshirish hisobiga kuchaytirish tushiniladi. Reaksiyon jarayonning yengil o‘tishi, reaksiyalar tezligini oshirish uchun xom-ashyo bo‘lakchalari o‘lchamini minimal qiymatgacha kamaytirish zarur.

Xom-ashyo materiallari past haroratda qattiq va mo‘rt holatida bo‘ladi. Uning donachalari turli o‘lchamli makro- va mikrodarzlarga boy bo‘lib, kristall panjaralari bo‘shliqlar, dislokatsiya va koordinatsion noaniqliklarga boy bo‘ladi. Shuning uchun ularning real mustahkamlilari nazariy hisoblanganiga nisbatan 100-1000 marotaba kam bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar bilan tanishing.

- Xom-ashyo- kerakli xossa-xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulotlarni qayta ishlash orqali ta’minlab beruvchi tabiiy, texnogen yoki sun’iy modda.
 - Xom-ashyo tanlash—tayyor mahsulot fazaviy tarkibini ta’minlash uchun ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan ohaktosh, gil, qum kabi xom-ashyolar roli, miqdori va sifatini hisobga olish jarayoni.
 - Xom-ashyo tanlash texnologik operatsiyasi-shisha sanoatida asosiy va qo‘srimcha; keramikada yopishqoq, kengayuvchan va eritgich; bog‘lovchi modda ishlab chiqarishda sulfatli va karbonatli; karbonatli, gilli va karrektivka qiluvchi; mineral faol qo‘silma va qotishni boshqaruvchilarni hisobga olish majmui.
 - Xom-ashyo karyeri- gil kabi xom-ashyolar joylashgan ochiq sayoz kon.
 - Xom-ashyoni qazib olish- kavlash va portlatish yo‘li bilan bajariladigan jarayon.
 - Xom-ashyoni tashish-relsli va relssiz, davriy va to‘xtovsiz uzatib turish vositalarida bajariladigan texnologik jarayon.

Nazorat savollari.

1. Mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xom-ashyo materiallari qanday tanlanadi?
2. Bog‘lovchi moddalar ishlab chiqarishda xom-ashyo nimalarga asoslanib tanlanadi?
3. Keramika sanoati xom-ashyolari haqida qanday tushunchaga egasiz? Ular qanday qilib tanlanadi?
4. Zamonaviy shisha texnologiyasi rivojlantirishning xom-ashyolarga oid asosiy omillarini sanab bering.
5. Xom-ashyoni qazib olish uchun qaysi turdagи mexanizmlar ishlatiladi?

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

106 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

6. Xom-ashyoni tashuvchi mashinalar markasini keltiring. Ular qanday afzallik va kamchiliklarga ega?
7. Xom-ashyoni tashishda lentali transportyorlardan foydalanishning qulayliklarini sanab bering.

Adabiyotlar ro‘yxati

No	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. .-М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3
5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

Horijiy adabiyotlar

8. Silicate Glass Technology Methods (Wiley Series in Pure and Applied Optics) [Clarence L. Babcock](#). 326 page ISBN-10: 0471039659 ISBN-13: 978-0471039655
9. Christopher T. G. Knight, Raymond J. Balec, Stephen D. Kinrade "The Structure of Silicate Anions in Aqueous Alkaline Solutions" Angewandte Chemie International Edition 2007, Volume 46, Pages 8148 -8152. [doi:10.1002/anie.200702986](#)
10. Siegbert Sprung "Cement" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, 2012 Wiley-VCH, Weinheim. [doi:10.1002/14356007.a05_489.pub2](#)

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.bilimdon.uz
3. www.ref.uz
4. <http://www.texhology.ru>
5. www.ximik.ru – Ximicheskaya entsiklopediya.

3-MA’RUZA.

Maydalash jarayonining asosiy nazariy va amaliy qonuniyatları. Maydalash kinetikası va materiallarning maydalash (donalash) qobiliyati. Maydalangan materialning donadorlik tarkibi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

107 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

***Yuqori aktiv moddalarning maydalanish jarayoniga ta’siri. Tuyishni jadallashtirish. Materialning
maydalanish darajasi. Materialning donadorlik tarkibini tasvirlash usullari (grafik, jadval,
analitik). (4 soat)***

Reja:

- 1. Maydalash jarayonining asosiy nazariy va amaliy qonuniyatları.**
- 2. Maydalash kinetikasi va materiallarning maydalash (donalash) qobiliyati.**
- 3. Maydalangan materialning donadorlik tarkibi.**
- 4. Yuqori aktiv moddalarning maydalanish jarayoniga ta’siri. Tuyishni jadallashtirish.**
- 5. Materialning maydalanish darajasi. Materialning donadorlik tarkibini tasvirlash usullari (grafik, jadval, analitik).**

1. Maydalash jarayonining asosiy nazariy va amaliy qonuniyatları.

Xom-ashyo materiallarini maydalash uch etapli jarayondir.

1. Dag‘al maydalash. Bu etapda strukturadagi defektlar, katta va kichik g‘ovaklar ochiladi va bo‘laklar yanada ko‘p sonli bo‘lakchalarga ajraladi;

2. O‘rtacha maydalash. Bu etapda kristallarning maydalanishi ro‘y beradi va materialning maydalanishga qarshiligi keskin ortadi;

Z. Nafis maydalash. Bu etapda ayrim-ayrim kristallar yanada maydaroq kristalchalarga ajraladi, jarayon qiyin kechadi va yopishish-agregatlash hodisalari namoyon bo‘ladi.

Lekin adabiyot sahifalarida maydalash besh etapli bo‘ladi degan ma’lumotlar ham bor;

1. Yirik donalash;
2. O‘rtacha donalash;
3. Mayda donalash;
4. Nafis maydalash;
5. O‘ta nafis maydalash;

Bu bobda asosan dag‘al-o‘rtacha maydalash yoki yirik-o‘rtacha-mayda donalash jarayonlari haqida so‘z yuritiladi.

Kimyoviy nuqtai nazardan qaralganida maydalash vaqtida yuza kremniy-kislorod kabi bog‘lanishlarning uzilishi tufayli ijobiy va salbiy zaryadlarga ega bo‘lishi mumkin (kvars minerali maydalanganda), oz miqdorda yangi modda hosil bo‘lishi ham kuzatilgan (kvars va ohaktosh birgalikda maydalanganida vollastonit xosil bo‘lishi), kristall panjaraning plastik deformatsiyaga moyilligi tufayli yuzaning amorflanishi va faollikning keskin oshishiga erishilgan (kvars mineralining nafis maydalanishi vaqtida), minerallarning oz miqdorda bo‘lsa hamki parchalanishi ham ro‘y beradi (ohaktosh maydalanayotganida qisman gaz uchib chiqishi va ohak-kalsiy gidroksidining hosil bo‘lishi), minerallardagi kovalent bog‘larning uzilishi ham kuzatilishi mumkin (suqli alyumosilikatlar maydalanishi chog‘ida). Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Komponentlarni maydalash etapi - mahsulot xossalariiga qo‘yilgan talab va texnologiya shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda donalar o‘lchamini keraklicha bo‘lishiga xizmat qiladi.


Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

108 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Qattiq yirik gabaritli jinslarni maydalash ikki stadiyada (dag‘al va nafis), yumshoq jinslarni maydalash esa bir stadiyada olib boriladi. Maydalash jarayoni quruq va xo‘l usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Xom ashyni maydalash. Silikat mahsulotlarini ishlab chiqarishda xom ashyni maydalash turli maydalash - un tortish mashinalarida amalga oshiriladi. Bu mashinalarda maydalash jarayoni modda bo‘laklarini ezish, o‘rish, ishkalash, yorish, uzish, portlash protsesslari orkali ro‘y beradi (2-rasm).




2-rasm. Xom ashyni maydalash usullarining sxemalari:

a - ezish; b - urilish; v - ishkalash; g - yorish; d - portlash.

Ushbu protsess turi odatda moddalarning fizikaviy hossalari, modda bo‘lakchalarining o‘lchami va belgilangan maydalash darajasiga karab tanlaniladi.

Masalan, gilning hajm ogirligi $1700-2000 \text{ kg/m}^3$ va sikilishdagi mustaxkamlik chegarasi $0,2-0,6 \text{ MPa}$; ohaktoshning xajm og‘irligi $2630-3100 \text{ kg/m}^3$ va sikilishdagi mustahkamlik chegarasi $40-380 \text{ MPa}$; kvarsning xajm og‘irligi 2640 kg/m^3 va sikilishdagi mustahkamlik chegarasi $80-145 \text{ MPa}$; shamotning hajm og‘irligi $1700-2100 \text{ kg/m}^3$ va sikilishdagi mustahkamlik chegarasi 10 MPa atrofida bo‘ladi.

Xom ashyoning ko‘rinib turgan fizikaviy xossalardagi farqqa karab moddalarning maydalishga moyilligi **tuyish kobiliyatি koeffitsenti** orqali aniqlanadi.



3-rasm. Xom ashylarni maydalovchi mashinalar sxemalari:

a - jag‘li maydalagich, 1-turg‘un jag‘, 2-xarakatlanuvchi jag‘; **b** - konus maydalagich, 1-tashki turg‘un konus, 2-ichki maydalovchi konus, 3-vertikal val; **v** - valikli maydalagich, 1 va 2 - bir-biri tomon xarakatlanuvchi va-liklar; **g** - bolg‘achali maydalagich, 1-maydalovchi bolg‘achalar, 2-maydalagich rotor; **d** - chopkir maydalagich, 1-aylanuvchi katoklar, 2-turg‘un yoki xara-katlanuvchi palla.

Tuyish kobiliali koeffitsenti ma'lum darajada maydalangan etalon va tekshirilayotgan moddalarning maydalashga ketgan solishtirma energiya mikdorlari nisbatini anglatadi va xom ashyo turlari uchun kuyidagi rakamlar bilan xarakterlanadi:

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

110 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

Gil	1,5-2
Ohaktosh	0,8-1,1
Kvars	0,6-0,7
Klinker	1
Dala shpati	0,8-0,9
Magnezit	0,7-1
Tosh ko‘mir	0,7-1,3

Maydalanyotgan modda bo‘lakchalarining boshlang‘ich o‘lchami ham ularni karyerdan kazib olish va tashish hamda namligiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Bulakchalar ko‘rinishini shartli sharsimon shaklda deb olsak, ularning diametri kuyidagicha topiladi:

$$D_{\text{urtacha}} = \text{yoki} \quad D_{\text{urtacha}} =$$

Aksariyatda bu razmerning boshlang‘ish xolati 750-250 mm ga teng bo‘lib, tuyilganidan keyingi xolati esa 0,01 mm va undan ham kichik bo‘lishi mumkin.

Modda bo‘lakchalarining boshlang‘ich o‘rtacha o‘lchami (D_{urtacha}) maydalanga-nidan keyingi o‘rtacha o‘lchamiga (d_{urtacha}) nisbatli materialni maydalanish darajasi deb ataladi va u i harfi bilan belgilanadi.

$$i = (D_{\text{urtacha}}) / (d_{\text{urtacha}})$$

Materialarni maydalanish darajasi i maydalash mashinalari uchun 4-30 ga, un tortish mashinalari uchun 300 gacha, ba’zi bir vaktlarda esa bir necha minggacha bo‘lishi mumkin (4-rasm).

Maydalanish darajasining maydalash tipiga bog‘liqligi qo‘yidagi 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Materiallar maydalanish darajasining maydalash usuliga bog‘liqligi

Nº	Maydalash tipi	Bo‘lakchalarining boshlang‘ich o‘rtacha o‘lchami, D,mm	Bo‘lakchalarining maydalangani-dan keyingi o‘lchami, d, mm	Maydalanish darajasi, $i = D / d$
1.	Yirik donalash	1500-300	300-100	2-6
2.	O‘rta donalash	300-100	50-10	5-10
3	Mayda donalash	50-20	10-2	10-50
4.	Nafis maydalash	10-2	2-0,075	50-100
5.	O‘ta nafis maydalash	2-0,075	0,075-0,0001	100 dan ortiq

Qaysi maydalash usulini qo‘llash maydalanyotgan materialning fizik-mexanik xossalariiga bog‘liqligini 3-jadval ma’lumotlaridan bilib olish mumkin.

3-jadval


Turli moddalar uchun qo‘llaniladigan usullar

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

111 bet

Material	Usul
Mustahkam va mo’rt	Ezish, urilish, sinish
Mustahkam va yopishqoq	Ezish, ishqalanish
Mo’rt va mustahkamligi o’rtacha	Urilish, yorish, ishqalanish
Yopishqoq va mustahkamligi o’rtacha	Ishqalanish, urilish, yorish.

Nomi qayd etilgan mashinaning u yoki bu turini ko’llash yuqorida so‘z yuritilgan uch faktorga bog‘lik. Ohaktosh, kvars va shamot kabi kattik va mustahkam moddalar jag‘li maydalagichlarda 100-200 mm li o‘lchamda maydalanadi. So‘ngra bolg‘achali va konus maydalagichlarda 10-30 mm o‘lchamgacha maydalanadi. Ushbu maksadda zarbiy maydalagichlardan ham foydalansa bo‘ladi. Unda material katta tezlikda aylanayotgan tarmoklar va korpusga o‘rnatilgan



4-rasm. Tuyish mashinalarining ishlash sxemalari:

- a - barabanli tegirmon, 1-maydalovchi jinslar, 2-aylanuvchi yoki teb-ranuvchi baraban;
- b - rolikli tegirmon, 1-turg‘un gardish, 2-tez aylanuvchi roliklar, 3-krestovina, 4-vertikal val;
- v - gardishli shar tegirmoni, 1-sharlar, 2-pastki aylanuvchi gardish, 3-prujinali yuqori gardish;
- g - bolg‘achali zarbiy tegirmon, 1-bolg‘achalar;
- d - pnevmatik tegirmon, 1-tuyivchi plita;
- ye - tebranuvchi tegirmon, 1-tebranuvchi korpus, 2-maydalovchi shar-lar;
- j - energiya okimli tegirmon, 1-tuyivchi kamera devori.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

mahsus panjaralar yordamida maydalanadi. Oxirgi marta hom ashyo valikli maydalagichdan o’tgan gil bilan birga shar tegirmonlarda xo’l yoki kuruk usulda maydalanadi. Material suvsiz maydalangandagiga karaganda suvda yaxshi maydalanadi, chunki suv maydalanayotgan material kattikligini keskin kamaytiradi.

Kattik xom ashyo jinslarini maydalashda valikli maydalangich, chopkir maydalagich (tegirmon toshi va umuman bitta yoki ikkita tosh-aylanuvchi katokdan iborat va yanchish xizmat kiladigan mashina), bolg‘achali, jag‘li, konusli, rotorli (zarbiy) maydalovchi mashinalar, strugach (yumshokrok xom ashyni korish yo‘li bilan maydalovchi mashina) va tonraspler (setka yuzasiga ishkalanish orkali maydalagich)lar ishlatiladi.

Un tortish mashinalari sifatida esa shar, sterjen va bolg‘achali tegirmonlar ko‘llaniladi. Keyingi paytlarda ushbu maksadda pnevmo-, vibro- va energiya okimi tegirmonlar keng ko‘llanilmokda.

Ohaktosh va boshqa komponentlar shar tegirmoniga uzlusiz ishlaydigan mexanizmlar yordamida uzatiladi. Ularning ishi avtomatik boshqarilganligi sababli tegirmon doimo bir xil kuchlanishda serunim ishlab, materiallarni talab kilingan darajada maydalab va aralashtirib ko‘yadi.

2. Maydalash kinetikasi va materiallarning maydalash (donalash) qobiliyati. Maydalanish (donalash) qobiliyatining maydalanayotgan materialning qattiqligi va mo‘rtligiga bog‘liqligi. Kukunsimon va bo‘lakli materiallarning erkin xolatdagi solishtirma og‘irligi va kattaligi. Maydalash (donalash)da qo‘llaniladigan agregatlar.

Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar ishlab chiqarishda xom ashyo tanlashning nakadar muhimligi xakida yuqorida yozgan edik. Olinadigan mahsulotning sifati esa aksariyatda ularga ishlov berish bilan bog‘lik. Xom ashylarga ishlov berish muxim texnologik jarayonlar majmuasi bo‘lib, ko‘pincha katta energiya xarajati orkali ro‘y beradi.

Komponentlarni maydalash - bu bosqich texnologik jarayonning keyingi xususiyatlarini, mahsulotning xossalari uchun kerak bulgan zarra o‘lchamlarida tayyorlashni ichiga oladi.

Maydalash uchun to‘xtovsiz va to‘xtab ishlovchi uskunalardan foydalaniladi. Gil tuproq jinslarni maydalash jarayoni suvda «yojish», ya’ni gilli minerallarni dastlabki tabiiy zarrachalari darajasigacha dispersiya qilinadi.

Tuproqli moddalarni maydalashda valli maydalagich va dezintegratorlardan foydalaniladi.

Dezintegratorning mehnat unumдорлиги ўқори ва тежамлидир. У намлиги 12-13% бо‘лган tuproqni maydalaydi (2-3 mm dan 0,5 mm li fraksiya i 80% gacha miqdorda). Sharli tegirmonlarda mayin maydalash amalga oshiriladi. Tebranma tegirmon sharli tegirmonidan afzal hisoblanadi.

Maydalash vaqtি 10-20 martaga kam bo‘lib, elektr energiya sarflanishi kamroq. Materialning solishtirma yuzasi, maydalash vaqtiga bog‘liqligini ifodalash mumkin yoki eng yirik zarracha miqdorini maydalash vaqtiga bog‘liqligi bilan ifodalanadi.

Maydalash qurilmalarining ba’zi xarakteristikalari.

Agregat	Oxirgi maxsulot o‘lchami, mm	Maydalash bosqichi	Buzalash mexanizmi	Maydalangan material ko‘rinishi
Maydalagichlar: jag‘li Konusli Valli Tishli	15-80	3-10	Ezish	Xar qanday qattiq, mo‘rt shamot
	3-80	6-15	Ezish	Xromit, kvarsit
	3-10	3-4	Ezish	Dala shpati
	10-20	8-10	qirqish	Namlangan loy, kaolin
Begunlar	0,8-2	3-15	Ezish, ishqalanish	Xar qanday qattiq, mo‘rt
Dezintegratorlar	0,5-2	40 gacha	Zarba	Quruq loy
Tegirmonlar: Bolg‘ali Sharli Vibratsiyali Struyali	0,5-10	10-15	Zarba	Quruq loy, talk
			Zarba, ishqalanish	Qattiq:oksidlar, shamot va boshq
			Zarba, ishqalanish	Qattiq:oksidlar, shamot va boshq
			Zarba, ishqalanish	Qattiq:oksidlar, shamot va boshq

Maydalash jarayonining kinetikasini miqdoriy ifodalovchi bir necha formulalar bor, ulardan biri Tovarov tenglamasıdır. Bu tenglama eng yuqori o‘lchamli zarrachaning kamayishini ko‘rsatadi:

$$R_{\tau} = R_0 \cdot e^{-k\tau m}$$

R – τ vaqtidan so‘ng eng katta zarraning miqdori,

R_0 – maydalash boshlanishdagi eng katta zarra miqdori,

K – maydalashni solishtirma tezligini xarakterlovchi koeffitsiyent.

m – shu solishtirma tezlikni vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini ko‘rsatuvchi koeffitsient

e – 2,71828 natural logarifm asosi

L.P. Korpilovskiy tenglamasi solishtirma yuzanining ish kinetikasini xarakterlaydi:

$$S_{\tau} = S_0 + b\tau / e\tau + 1$$

S – vaqt o‘tgandan so‘ng solishtirma yuza

S_0 – maydalashdan oldingi yuza

b – solishtirma yuzanining ortish tezligi

e – vaqt utishi bilan solishtirma yuzanining o‘sishini kamayishini ko‘rsatadi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

114 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

Maydalash jarayonining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri maydalash darajasi i dir, xom ashyoning dastlabki o‘rtacha va katta o‘lchamlari d_k maydalashdan keyin zarra o‘lchami d_n nisbati bilan o‘lchanadi:

$$I = d_n / d_k$$

5-jadval

Maydalash tavsifini jadvalda ko‘rish mumkin.

Maydalanish sinfi	Bo‘laklari, mm	
	d_n	d_k
Maydalash:		
A) yirik	1000	250
B) o‘rta	250	20
V) mayda	20	1,5
Tuyish:		
A) dag‘al	1-5	0,1- 0,04
B) o‘rta	0,1-0,04	0,05-0,015
V) mayin	0,01-0,04	

Maydalash-tuyish jihozlarining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, maydalash darajasi va olinayotgan mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan solishtirma energiya sarfi kabi ko‘rsatkichlar xizmat qiladi.

Materialning maydalanish darajasi deb, maydalanayotgan material bo‘laklarining o‘lchamini maydalashdan keyingi bo‘lakchalarining o‘lchami nisbatiga aytiladi.

Bo‘laklarning yirikligi ularning o‘rtacha o‘lchamlaridan olinadi. Bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami quyidagi tenglama orqali aniqlanishi mumkin:

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

115 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

$$D_{yp} = \frac{l+b+h}{3} \quad \text{yoki} \quad D_{yp} = \sqrt[3]{lhb}$$

bunda: l,b,h – mos ravishda bo‘laklarning uzunligi, eni va balandligi.

Bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami maydalash darajasini aniqlashga xizmat qiladi:

$$i = \frac{D_{yp}}{d_{yp}} . O‘z navbatida d_{ur} topiladi: d_{yp} = \frac{d_1 + d_2}{2},$$

bu yerda D_{ur} – maydalashgacha bo‘lgan bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami mm hisobida; d_{ur} – maydalashdan keyingi bo‘lakchalarining o‘rtacha o‘lchami. U ham mm hisobida olinadi; d_1 va d_2 – katta va kichik bo‘lakchalarining o‘lchami.

Aralashmadagi bo‘lakchalarining o‘rtacha o‘lchami ham formula orqali topiladi:

$$d_{cm} = \frac{d_{yp_1}\gamma_1 + d_{yp_2}\gamma_2 + d_{yp_3}\gamma_3 + \dots + d_{yp_n}\gamma_n}{\gamma_1 + \gamma_2 + \gamma_3 + \dots + \gamma_n}$$

$d_{ur1}, d_{ur2}, d_{ur3}, \dots, d_{urn}$ – fraksiya bo‘lakchalarining o‘rtacha o‘lchami;

$\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3, \dots, \gamma_n$ – fraksiyalarning protsent hisobidagi og‘irligi.

Maydalayotgan bo‘lakchalar shakliga ko‘ra uch turli bo‘ladi:

- a) kubsimon. Ularda uzunlik 1 ning eni b va balandligi h ga nisbati 1 : 1 : 0,5 bo‘ladi; b) ponashaklida (uchi qirra). Ularda $h < 0,5b$ bo‘ladi;
- v) nina- yoki ipsimon. Ularda $1 > 1,5b$ bo‘ladi.

Maydalish darajasi maydalashga yuborilayotgan bo‘laklarning shakli va kattaligiga bog‘liq bo‘ladi. Donalash jarayonida u 3 dan 20 va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Tuyish jarayonida esa maydalash darajasi 500-1000 gacha bo‘lishi mumkin.

Bo‘laklarning o‘lchami elakli tahlil usullarida aniqlanadi. Yirik o‘lchamdagagi bo‘laklarning o‘lchamini aniqlashda ularning faqat eng yirik ko‘ndalang o‘lchami o‘lchanadi.

Bo‘lakning eng katta o‘lchami uning uzunligi, eni va balandligi kabi uch asosiy o‘lchamdan eng katta o‘lchamdagisi hisoblanadi va u maydalash uskunasining qabul qiluvchi qismini tanlashga asos bo‘ladi.

Dastlabki materialning yirikligi va maydalangan bo‘laklarning o‘lchamidan kelib chiqib maydalashning bosqichlari farqlanadi.

Maydalash (bo‘laklarga ajratish):

1. Yirik, bo‘laklaring o‘lchami 200-250 mm gacha maydalash;
2. O‘rtacha, bo‘laklarning o‘lchami 20-200 mm gacha maydalash;
3. Mayda, bo‘laklarning o‘lchami 3-20 mm gacha maydalash.

Maydalashning ko‘rsatkichlari materialning mexanik mustahkamligi, shu jumladan uning siqilishdagi mustahkamligi ko‘rsatkichi bilan xarak-terlanadi. Mustahkamlikka ko‘ra ular quyidagi toifalarga ajratiladi:

- a) yumshoq jinslar – siqilishdagi mustahkamligi 10 MN/m^2 (100 kG/sm^2) dan kam.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

b) o‘rtacha qattiqlikdagi jinslar – siqilishdagi mustahkamligi $10\text{-}50 \text{ MN/m}^2$ ($100\text{-}500 \text{ kG/sm}^2$)

v) qattiq jinslar–siqilishdagi mustahkamligi 50 MN/m^2 va undan yuqori.

Tog‘ jinslarining qattiqligiga ko‘ra tasniflash prof. M.M. Pro-todyakonovning shkalasi bo‘yicha aniqlanadi. Ushbu shkalaga ko‘ra tog‘ jinslari qattiqliga ko‘ra 10 ta toifaga bo‘linadi. Bunda f koeffitsiyenti siqilishdagi mustahkamlikning $0,01$ ga teng bo‘lib, $\sigma=2000\text{kg/sm}^2$ va $f=20$ bo‘ladi.

Materialning qattiqlik darajasi shuningdek Moosning qattiqlik shkalasi bo‘yicha ham aniqlanishi mumkin. Moos shkalasi qattiqlik dara-jasi ortib boruvchi 10 minerallardan iborat bo‘lib, har bir mineral o‘zidan oldingi mineralning yuzasida tirlash izlarini qoldiradi (tirnaydi). Bu minerallar quyidagilardir: 1-talk, 2-gips, 3-ohaktoshli shpat, 4-plavikli shpat, 5-apatit, 6-ortoklaz (dala shpati), 7-kvars, 8-topaz, 9-korund, 10-olmos.

Qattiqlik materialning tartib raqami bilan harakterlanadi. O‘rga-nilayotgan materialning silliqlangan yuzasida tirnalgan iz qoldig‘iga ko‘ra qattiqlik darajasi aniqlanadi.

Ko‘pincha keramik materiallarning qattiqligini aniqlashda Brinnel usulidan foydalaniladi. Uning mohiyati quyida beriladi.

O‘rganilayotgan materialning aniqlangan yuzasiga ma’lum R kuch bilan ma’lum o‘lchamdagи po‘lat zoldircha botiriladi. Materialning yuzasida S yuzaga ega bo‘lgan sferik churqurcha hosil bo‘ladi. Brinnel bo‘yicha qattiqlik ko‘rsatkichi N qilib, R kuchning S yuzaga nisbatli olinadi, ya’ni

$$\mathbf{H = P / S.}$$

Keyingi vaqtarda materialdagi alohida-alohida kichik uchastkalardagi qattiqlikni o‘rganishga imkon beruvchi usullardan keng foydalanilmoqda. Bu esa materialning aloxida olingan tarkibiy tuzilmalarining qattiqligini o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Mikroqattiqlikni o‘rganish nisbatan kichik kuch ta’sirida va kichik o‘lchamdagи izlarni o‘rganish asosida olib boriladi. Bu esa qattiqlikni o‘rganishdan tashqari ko‘p fazali materiallarda alohida fazalarning qattikligini o‘rganishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan qattiqlikka ko‘ra materiallarni tasniflash materialni bo‘laklarini maydalashga ketadigan kuch (energiya) ning miqdorini aniqlash uchun zarur. Lekin materiallarni maydalash qobiliyatini baholashda ushbu ko‘rsatkichlar yetarli emas.

Masalan, siqilish mustahkamligiga ko‘ra bir xil ikki turli materialni tanlash mumkin. Ammo ulardan biri juda mo‘rt, ikkinchisi esa aksincha qattiq. Shuning uchun birinchisi ikkinchisiga nisbatan ancha oson maydalanadi.

Materiallarni maydalanishga layoqati moyilligini baholash uchun maydalashga qobiliyatlik koeffitsiyenti deb nomlanuvchi kursatkichdan foydalaniladi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Maydalashga qobiliyatlılık koefitsiyenti deb, bir xil maydalash darajasiga ega bo‘lgan etalon materialni maydalashga ketadigan solishtirma energiya sarfining solishtirilayotgan materialni maydalashga ketadigan solishtirma energiya sarfiga nisbati aytildi.

Maydalash (donalash)da qo‘llaniladigan agregatlar.

Materiallar turli toifadagi uskunalarida maydalanadi. Ularda maydalash usullari turlicha va ulardan asosiyları quydagilardir:

1. Ezish. Material ikki sirt o‘rtasida nisbatan sekin bosimni oshirish bilan eziladi.
2. Ishqalash. Material ikki xarakatlanayotgan sirt yoki turli shakldagi maydalovchi jismlar, shuningdek material bo‘laklarining o‘zaro ishqalanishi hisobiga maydalanadi.
3. Egish va yorish. Material bo‘lagi ponasimon maydalovchi jismlarning ta’sirida maydalanadi.
4. Zarb. Material maydalovchi tosh, qo‘zg‘almas plita yoki o‘zining boshqa bo‘lagiga urilib maydalanadi.

Maydalash va tuyish uskunalarida maydalash jarayoni ikki yoki undan ortiq usullarni muvofiqlashtirish (kombinatsiyalash) yo‘li bilan olib boriladi.

Materialni maydalashda qaysi usulni qo‘llashni tanlashda maydalanayotgan materialning fizik-mexanik xossalari, bo‘laklarning dastlabki o‘lchami va talab etiladigan maydalanish darajasi hisobga olinadi.


Maydalash va tuyish uskunalarini ularning turlari va tuzilishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularni quyidagi asosiy ko‘rinish-lari bilan tasniflash mumkin.

1. Texnologik xususiyatlariga ko‘ra:
 - a) birlamchi maydalash uskunaları (material ombor yoki kondan bevosita uzatilganda);
 - b) ikkilamchi maydalash uskunaları (birlamchi maydalashdan o‘tgan materialni maydalash uchun).
2. Tugal mahsulot zarrachalari (donalari) o‘lchamiga ko‘ra:
 - a) o‘lchami 0,5 mm dan yuqori bo‘lgan kattalikdagi mahsulot olish uchun mo‘ljallangan uskuna – maydalagichlar;
 - b) o‘lchami 0,5 mm dan kichik bo‘lgan maydalangan mahsulot olish uchun mo‘ljallangan uskuna – tegirmonlar;
3. Ishlash mohiyati va tuzilishining xususiyatlariga ko‘ra:
 - a,b) xarakatlanuvchi sodda jag‘li va murakkab xarakatlanuvchi jag‘li maydalagichlar. Sodda xarakatlanuvchi jag‘li maydalagichlarda material ezish bilan, murakkab xarakatlanuvchi jag‘li maydalagichlarda esa ezish va davriy ravishdagi ishqalanish bilan maydalanadi;

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

v,g) xarakatlanuvchi valli va xarakatsiz o‘qli konussimon maydalagich-lar. Bunday maydalagichlar xarakatsiz konussimon yuzaga tomon ilgari-lanma harakatlanuvchi konusning doimiy ravishda yaqinlashuvi natijasida yoki xarakatsiz konusning ichki yuzasiga nisbatan ekssentrik aylama xara-kat vositasida materialni ezish va egish usulida ishlaydi;

d) valokli maydalagichlar. Bunday maydalagichlarda material bir-biri tomoniga aylanayotgan ikki valok o‘rtasida asosan ezish, qisman ishqalash, qisman zarb berish yoki qisman egish yo‘li bilan maydalanadi. Ularning toshajratgichli turida yelimshak va namli materiallar ishlatalganida faqatgina maydalash (donalash) jarayoni ro‘y berib qolmay, balki qattiq qo‘shilmalar ham ajrab chiqadi;



5- rasm. Maydalash 6- rasm. Maydalash – tuyish mashinalarining chizmalari: a- jag‘li usullarining sxemasi: 1- oddiy xarakatli maydalagich; b- jag‘li murakkab xarakatli ezish; 2- ishqalanish; 3- maydalagich; v- xarakatli o‘qli konussimon maydalagich; g- egish; 4- zarb.

6- rasm. Maydalash – tuyish mashinalarining chizmalari: a- jag‘li usullarining sxemasi: 1- oddiy xarakatli maydalagich; b- jag‘li murakkab xarakatli ezish; 2- ishqalanish; 3- maydalagich; v- xarakatli o‘qli konussimon maydalagich; g- xarakatsiz o‘qli konussimon maydalagich; d- valli maydalagich; ye- begun; j- savatli tegirmon; k- barabanli tegirmon; l- tebranma tegirmon.

ye) pichoqli tuproqkesuvchi-strugachlar. Yotiq yoki tik ravishda aylanuvchi diskka o‘rnatilgan pichoqlar yordamida gil materiallari maydalanadi;

yo) begunlar. Material silindrik jag‘li g‘ildirak bilan tekis jag‘li palla o‘rtasida ezish va ishqalash yo‘li bilan maydalanadi;

ji) bolg‘ali maydalagichlar. Materialni sharnir moslamaga o‘rnatilgan bolg‘alarning zarbi bilan va qisman bolg‘alar, broneplitalar va kolosniklar orasida ishqalash yo‘li bilan maydalanadi;

zi) dezintegrator-savatli tegirmonlar. Material tez aylanma harakatla-nuvchi rotorlarning zarbi vositasida maydalanadi. Ular odatda bir yoki ikki aylanuvchan rotorli qilib tayyorlanadi. Rotorlarda ikki, uch, to‘rt va undan ham ko‘p qator po‘lat panjaralar joylashgan bo‘ladi;

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

119 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

i) oqimli tegirmonlar. Bosim ostida va katta tezlikda maydalash bo‘li-mi tomon uchib borayotgan material zarralarining bir-biri bilan urilishi natijasida maydalanadi;

k) aylana tegirmonlar. Egri chiziqli tekisliklar- aylana-yo‘lakcha, ro-liklar va zoldirlar o‘rtasida material ezish va ishqlash natijasida mayda-lanadi;

k,l) aylanma barabanli va tebranma tegirmonlar. Materialni erkin tushayotgan maydalovchi jismlar bilan zarb va ishqlash yo‘li bilan mayda-lanadi. Maydalovchi jismlar aylanma tegirmonlarda markazdan qochma kuch ta’sirida yuqoriga ko‘tariladi. Tebranma tegirmonlarda esa barabanning tebranishi natijasida maydalanadi.

Materiallar aylanma barabanli tegirmonlarda suv qo‘sish bilan xo‘l usulda va suvsiz yoki kamsuvli quruq usulda maydalanishi mumkin. Suvli muhitda maydalanish quruq usulga nisbatan vaqt nuqtai nazaridan tez amalga oshadi. Maydalanish ko‘rsatgichlari ham juda yaxshi bo‘ladi. Ikkala usulni ham yopiq siklda, ham ochiq siklda qo‘llash mumkin.

Agarda maydalanish jarayonida maydalanayotgan materialning yetarli da-rajada maydalanmagan zarrachalari yoki bo‘laklari maydalovchi uskunaning o‘zi-ga qaytadan maydalash uchun yuborilsa va yetarli o‘lchamgacha maydalangan qismi esa keyingi texnologik jarayonga o‘tkazilsa, ushbu jarayon yopiq sikl deb yuritiladi.

Agarda maydalanish jarayonida maydalangan barcha material texnologik tizimga ko‘ra keyingi uskuna yoki jihozga yarim tayyor yoki tayyor mahsulot sifatida o‘tkazilsa, ushbu jarayon ochiq sikl deb ataladi.

Juda mayda donadorlikka ega va yuqoridispersli kukunlarni olish uchun davriy ravishda ishlaydigan zoldirlar qo‘llaniladi.

Qaysi material uchun qaysi maydalagichni qo‘llash masalasi muhim. Qo‘yidagi 6-jadval materiallari talabalarga kerakli ma’lumotni yetkazadi.

6-jadval

Material turiga bog‘liq maydalash sxemalari

Material turi	Siqilishdag mustahkamlik chegarasi, K.siq, MPa	Maydalash (donalash) stadiyalari		
Marmar	4200	jag‘li konusli	bolg‘achali	bolg‘achali
Ohaktosh	50-200	jag‘li konusli	bolg‘achali	
Trepel, opoka, gipstosh, tuf	30-50	bolg‘achali		

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**


Gil, bo‘r	2-15	valokli shnekli		
-----------	------	-----------------	--	--

Nazorat uchun savollar.

1. Xom-ashyo komponentlari – kvars, dala shpati, ohaktosh kabilarni maydalanishi deganda nima tushiniladi?
2. Maydalash darajasi deb nimaga aytildi? Maydalash darajasini aniqlaovchi formulani yozib bering.
3. Xom-ashyolarni maydalash uchun ularning qanday xususiyatlariga axamiyat beriladi va qanday maydalagichlar qo‘llaniladi?
4. Maxsulotlarni ishlab chikarishning texnikaviy darajasi nima bilan aniqlanadi?
5. Yirik maydalashdan so‘ng bo‘laklarning mm dagi o‘lchami kaysi formula orqali aniqlanadi?
6. O‘rta maydalashda materiallar qanday mm gacha maydalanadi va maydalanish darajasi qanday topiladi?
7. Nafis maydalangan zarracha deb qanday zarrachalarga aytildi va ularning o‘lchami qanday bo‘ladi?
8. Maydalagichlar bir-biridan konstruksiyalari bo‘yicha qanday farqlanadi?
9. Nafis to‘yilgan zarrachalarning o‘lchami qanday aniqlanadi?
10. O‘ta nafis to‘yilgandan so‘ng zarrachalar qanday o‘lchamda bo‘ladi?
11. Qaysi texnologik operatsiyalar uchun zoldirli tegirmonlar qo‘lla-niladi?

Mavzuni mastaxkamlash uchun vazifa.

Vazifa. SQENMTda qo‘llaniladigan “Konusli maydalagich” va “Dezintegrator” uskunalarini “Venna diagrammasi” yordamida solishtiring.



Mavzuga oid tayanch so‘z va iboralar.

Texnologiya - materiallarni ishslash vositalari va usullari xaki-dagi bilimlar majmuai.

Texnologik operatsiya - biron-bir texnologik jixozda amalga oshi-riladigan jarayon.

Xom ashyo-kerakli xossa-xususiyatlarni kayta ishslash orkali ta’min-lab beruvchi tabiiy yoki sun’iy modda.

Xom ashyo karyeri -gil kabi xom ashylar joylashgan ochik sayoz kon.

Xom ashyonи maydalash - turli maydalagichlarda modda bo‘laklarini ezish, urish, ishkalash, yorish, uzish va portlash protsesslari orkali amal-ga oshiriladigan jarayon.

Maydalash darajasi - materialning maydalanishdan oldingi o‘lcha-mini maydalanganidan keyingi o‘lchamiga nisbati.

Unlash - xom ashyonи 0,01 mm va undan ham kichik o‘lchamda tuyish jarayoni.

Tuyish kobiliyatি koeffitsiyenti-ma’lum darajada maydalangan etalon va tekshirilayotgan moddalarning maydalashga ketgan solishtirma energiya mikdorlari nisbati.

Nazorat uchun savollar.

1. Texnologiya so‘ziga kanday izox berasiz?
2. Texnologik operatsiyalar xakida kanday tushunchaga egasiz?
3. Mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo materiallari kanday tanlanadi?
4. Xom ashyonи kazib olish uchun kaysi turdagи mexanizmalar ishla-tiladi?
5. Xom ashyonи tashuvchi mashinalar markasini keltiring. Ular kanday afzallik va kamchiliklarga ega?
6. Xom ashyonи maydalash deganda kanday jarayon tushuniladi?
7. Xom ashyonи maydalash usullarini sanab bering.
8. Tuyish jarayoni kanday kechadi?
9. Kanday maydalash va tuyish mashinalarini bilasiz?
10. Maydalash va tuyish darajasi tajriba yo‘li bilan kanday aniklanadi?

3 mavzuni mastaxkamlash uchun vazifalar.

Maydalash” so‘ziga “Klaster” diagrammasini tuzish kerak

Adabiyotlar ro‘yxati

No	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi	
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.		50

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

- | | | |
|---|--|-----|
| 2 | Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b. | 100 |
| 3 | Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. -М., Стройиздат., 1987. – 560 с. | 5 |
| 4 | Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с. | 3 |
| 5 | Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet. | 16 |
| 6 | Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с. | 1 |
| 7 | Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с. | 5 |

Horijiy adabiyotlar

8. Silicate Glass Technology Methods (Wiley Series in Pure and Applied Optics) [Clarence L. Babcock](#). 326 page ISBN-10: 0471039659 ISBN-13: 978-0471039655
9. Christopher T. G. Knight, Raymond J. Bales, Stephen D. Kinrade "The Structure of Silicate Anions in Aqueous Alkaline Solutions" Angewandte Chemie International Edition 2007, Volume 46, Pages 8148 -8152. [doi:10.1002/anie.200702986](https://doi.org/10.1002/anie.200702986)
10. Siegbert Sprung "Cement" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, 2012 Wiley-VCH, Weinheim. [doi:10.1002/14356007.a05_489.pub2](https://doi.org/10.1002/14356007.a05_489.pub2)

Internet saytlari

6. www.ziyonet.uz
7. www.bilimdon.uz
8. www.ref.uz

3.1. Maydalangan materialning donadorlik tarkibi.

Maydalangan materialning donadorlik tarkibi. Yuqori aktiv moddalarning maydalanish jarayoniga ta’siri. Tuyishni jadallashtirish. Materialning maydalanish darajasi. Materialning donadorlik tarkibini tasvirlash usullari (grafik, jadval, analitik).

Oldingi ma’ruzalarda materialning maydalanish darajasi tushunchasi keng yoritilgan bo‘lib, maydalananayotgan material bo‘laklarining o‘lchamini maydalashdan keyingi bo‘lakchalarining o‘lchami nisbatiga tengligi qayd etildi.

Materialdagi bo‘laklarning yirikligi ularning o‘rtacha o‘lchamlaridan olinadi. Bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$D_{yp} = \frac{l + b + h}{3} \quad \text{yoki} \quad D_{yp} = \sqrt[3]{lbh}$$

bunda: l,b,h – mos ravishda bo‘laklarning uzunligi, eni va balandligi.

Bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami maydalash darajasini aniqlashga xizmat qiladi:

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

123 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

$$i = \frac{D_{yp}}{d_{yp}}. O'z navbatida d_{ur} topiladi: d_{yp} = \frac{d_1 + d_2}{2},$$

bu yerda D_{ur} – maydalashgacha bo‘lgan bo‘laklarning o‘rtacha o‘lchami mm hisobida; d_{ur} – maydalashdan keyingi bo‘lakchalarining o‘rtacha o‘lchami. U ham mm hisobida olinadi; d_1 va d_2 – katta va kichik bo‘lakchalarining o‘lchami.

Aralashmadagi bo‘lakchalarining o‘rtacha o‘lchami ham formula orqali topiladi:

$$d_{ci} = \frac{d_{\delta\delta_1}\gamma_1 + d_{\delta\delta_2}\gamma_2 + d_{\delta\delta_3}\gamma_3 + \dots + d_{\delta\delta_n}\gamma_n}{\gamma_1 + \gamma_2 + \gamma_3 + \dots + \gamma_n}$$

$d_{ur1}, d_{ur2}, d_{ur3}, \dots, d_{urn}$ – fraksiya bo‘lakchalarining o‘rtacha o‘lchami;

$\gamma_1, \gamma_2, \gamma_3, \dots, \gamma_n$ – fraksiyalarning protsent hisobidagi og‘irligi.

Maydalanayotgan bo‘lakchalar shakliga ko‘ra uch turli bo‘ladi:

- a) kubsimon. Ularda uzunlik 1 ning eni b va balandligi h ga nisbati $1 : 1 : 0,5$ bo‘ladi;
- b) pona shaklida (uchi qirra). Ularda $h < 0,5b$ bo‘ladi;
- v) nina- yoki ipsimon. Ularda $1 > 1,5b$ bo‘ladi.

Maydalanish darajasi maydalashga yuborilayotgan bo‘laklarning shakli va kattaligiga bog‘liq bo‘ladi. Donalash jarayonida u 3 dan 20 va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Tuyish jarayonida esa maydalash darajasi 500-1000 gacha bo‘lishi mumkin.

Bo‘laklarning o‘lchami elakli tahlil usullarida aniqlanadi. Yirik o‘lchamdagи bo‘laklarning o‘lchamini aniqlashda ularning faqat eng yirik ko‘ndalang o‘lchami o‘lchanadi.

Bo‘lakning eng katta o‘lchami uning uzunligi, eni va balandligi kabi uch asosiy o‘lchamdan eng katta o‘lchamdagisi hisoblanadi va u maydalash uskunasining qabul qiluvchi qismini tanlashga asos bo‘ladi.

Maydalangan materialning donadorlik tarkibi uning olinayapgan maxsulotga ko‘rsatadigan ta’siri va ushbu materialda shakllash, quritish va ko‘ydirish natijasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarga qarab aniqlanadi.

Qurilish materiallari texnologiyasida qo‘llaniladigan materiallar maydalanish natijasida yirik zarrachali va mayin zarrachali (bundan tashqari ya’na mayda dispersli) tarkibga ega bo‘ladilar.

Maydalangan materialda eng katta fraksiya (asosiy qism)da zarrachalarining o‘lchami 0,5-1 mm va bundan kattaroq bo‘lsa, bu tarkib yirik zarrachali xisoblanadi.

Mayin zarrachali tarkiblarda xamma zarrachalar yoki ularning asosiy qismining o‘lchamlari 0,05-0,1 mm dan kamroq bo‘ladi.

Yuqoridisperli tarkiblarda esa maydalanish natijasida materialning zarrachalari mikron va mikrondan kamroq o‘lchamlarga ega bo‘ladi.

Yirik zarrachali tarkiblar olovbardosh materiallar va qurilish keramikasining ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Yirik zarrachali tarkiblarning asosiy xarakteristikasi – ular objig natijasida zich struktura xosil qila olmaslidir. Materialdagи yirik zarrachalar karkas yoki

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

to‘ldiruvchi komponent (napolnitel)ga o‘xshab o‘zgarmas xolda fizik-kimyoviy jarayonlarga kirishmasdan qolib ketadi. Shuning uchun kuydirish natijasida ushbu tarkiblardan xosil bo‘lgan maxsulot xajmiy o‘zgarishlarga kam uchraydi, kuydirilgan maxsulotning esa umumiy g‘ovakligi 10-15%dan ko‘proq va ular asosan ochiq g‘ovaklardan iborat bo‘ladi.

Yirik zarrachali poroshoklar loy va kaolinlarning plastikligini kamaytirish, yarim-maxsuloning quritishini osonlashtirish va kuydirish natijasida maxsulotlarda xajmiy o‘zgarishlarni oldini olishga, demak ichki qarshiliklarni va deformatsiyalarni kamaytirish uchun tarkiblarga qo‘shiladi.

Mayin zarrachali poroshoklar bezash qurilish materiallarni ishlab chiqarishda ishlatiladi. Tarkiblarning mayda zarrachalikligi kimyoviy jarayonlarni osonlashtiradi va tezlashtiradi, maxsulotlarning esa kuydirish natijasida zichligi keskin oshadi (ammo bu katta xajmiy o‘zgarishlarga olib keladi – chiziqli qisqarish 10-20 % teng bo‘lishi mumkin). Xosil bo‘lgan maxsulotlar yaxshi “pishgan” xisoblanadi – umumiy g‘ovakligi 5-10 % ortmaydi, ochiq g‘ovakligi esa 0 dan 1-2 % gachan bo‘ladi.

Materialning donadorlik turiga va uning texnologik maqsadiga qarab donadorlik tarkibga talablar xar xil bo‘ladi va uning aniqlash usullari xam farqalanadi.

Maydalangan materialning donadorlik tarkibini tasvirlash usullari qo‘yidagicha: ular grafik, jadval va analistik ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Analistik usulda turli xil kontrol eladardan qo‘llaniladi. Yirik zarrachali kukunlar (poroshok)lar uchun fraksiyalarning tarkibi beriladi va ularning g‘ovaklari bir necha mm dan 0,5 yoki 0,1 mmgachan bo‘lgan elaklar yordamida zarrachalr xar xil fraksiyalarga (qismlarga) ajratiladi.

Materialning donadorlik tarkibi zarrachlarning o‘lchamlari texnologik jarayonlarga va kuydirilgan maxsulotning teksturasiga ko‘rsatayotgan ta’sirini o‘rganilgandan sung aniqlanadi.

Asosan materiallarning donadorligi aniqlashda ko‘yidagi parametrlar katta e’tiborga ega:

1. Xo‘l elaklash usulida aniqlangan mayin kontrol elakdagi qoldiq - % larda ifodalanadi. Bu usul keng ko‘llaniladi, chunki qoldiqning ko‘rsatkichi mayin zarrachali fraksiyalarning donadorlik tarkibi bilan bog‘liq.

2. Materialning solishtirma yuzasi (sm^2/g da ifodalanadi) kukunning xavo o‘tkazishda gidravlik qarshiligining zarrachalar o‘lchamlariga bog‘liqligi aniqlashga asoslangan. Bu usulda PSX-2 asbobi ishlatiladi. Solishtirma yuzasi 2 dan 10 ming sm^2/g gachan bo‘lgan materiallarning yaxshi ifodalaydi.

Solishtirma yuza S va zarrachlarning o‘rtacha diametri $D_{o,r}$ (zarrachalni sharsimon deb olsak) orasidagi bog‘liklik qo‘yidagi formula bilan aniqlanadi:

$$D_{o,r} = \frac{60000}{\gamma S} \quad \text{je} \quad ,$$

Bu yerda: γ – materialning zichligi, g/sm^3 .

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

125 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Notug‘ri shaklli va yuzasi rivojlanganroq zarrachlar uchun berilgan S_g ga ozgina kattaroq zarrachalar o‘lchamlari tug‘ri keladi. Ko‘p keramik massalar uchun ($\gamma = 2,5-4$) zarrachalar o‘rtacha o‘lchamlari 15-20 dan 2-3 mk gachan bo‘lganda bu usulni ishlatish mumkin. Mayin zarrachali tarkiblar uchun Deryagin usuli (yuqori vakuumda xavo o‘tkazuvchanligini aniqlash orqali), adsorbsion usullar, sedimentometrik usullar (Stoks qonuni asosida), mikroskopik usullar orqali aniqlash mumkin.

Mayin zarrachali va yuqori dispers poroshoklarning donadorlik tarkibini eng katta va eng kichik zarrachal o‘lchamlari orqali ifodalash lozim. Chunki juda mayin maydalash kimyoviy jarayonlarni tezlashtirib va maxsulot pishishini osonlashtirib shu qator o‘z kamchiliklariga xam ega:

- mayin maydalash natijasida poroshlardagi zarrachalar o‘lchamlari bir biriga yaqinlashib, monofraksiyali material xosil bo‘lishi natijasida zarrachalarning taxlanishi zichligi kamayadi va demak olingan yarimmaxsulotning zichligi pasayib, pishish davomida maxsulotdagi qisqarishlar o‘sishi mumkin.

- materialning solishtirma yuzasini oshib borishi texnologik bog‘lovchi moddani qo‘proq qo‘shishni talab qiladi va uning xar bir mineral zarrachani ustiga bir xil qoplanishini qiyinlashtiradi. Buning natijasida massani tayerlash tizimi va bog‘lovchi suyuqlikni yoqolishi murakkablashadi. Bundan tashqari maydalanish darajasini oshirish kerakmas energetik yo‘qolishlarga olib kelishi mumkin.

Donadorlik tarkiblarni grafik ko‘rinishida ifodalashda Andreason formulasidan foydalanish mumkin:


$$Y = 100 \left(\frac{d}{D} \right)^q , \quad \text{bu yerda}$$

Y- o‘lchamlari d dan kichik bo‘lgan zarrachali fraksiyalarni qiymati, %;

D – zarrachaning maksimal o‘lchami;

q – bu ko‘rsatkich xar bir poroshok turiga va zarralarning taxlanishiga ko‘ra eksperiment asosida aniqlanadi (0,33 dan 0,5 gachan bo‘lishi mumkin).

Zarrachalarning donadorlik tarkiblari 1-rasmdagi integral egri chiziqlar ko‘rinishida ifodalaniishi mumkin:



***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***
Zarracha o’lchami, mm

7-rasm. Zarrachalar zinch taxlanganda donadorlik tarkiblarini variantlari:

- 1- uzluksiz (Andreasen bo‘yicha), $q = 0,5$;
- 2- uzluksiz (Andreasen bo‘yicha), $q = 0,3$;
- 3- bosqichli ikki fraksiyali, “ideal”;
- 4 – real sharoitda donadorlik tarkibi.

Andreason formulasi bo‘yicha qni optimal qiymatini tanlangan xolda zarrachlarning taxlanishini zichligini maksimal xolda ta’minalash mumkin (strukturaning g‘ovakligi 20 % oshmaydi). Ammo ishlab chiqarish sharoitida kerakli dornadorlik tarkiblarini aniq fraksiyalar nisbatini ta’minalash juda qiyin bo‘ladi. Xar xil elash asboblarini qo’llagan xolda ishlab chiqarish sharoitida uzluksiz zarrachalar tarkibi 25-30% govaklikga ega bo‘lgan zarrachlar upakovkasini xosil qilish mumkin, umuman bu yetarli deb xisoblanadi.

Ammo yuqori zichlikga ega bo‘lgan maxsulot ishlab chiqarishda material aniq bir nisbatdagi ikkita fraksiyalardan tashkil topgan bo‘lsa, bu eng yaxshi natija beradi. Nazariy xisoblar va eksperimentlar natijasida ushbu ikkita fraksiyalarning zarrachalari o‘lchamlari ancha farqlanganda ularning nisbati 7:3 bo‘lishi kerakligi aniqlangan:

70 % yirik fraksiya : 30% mayin fraksiya.

Agar mayin fraksiya bu optimal qiymatdan ko‘proq bo‘lsa, yirik fraksiyaning “skeleti” (karkasi) kengayib ketadi; agar optimaldan kamroq bo‘lsa – karkasdagи bo‘shliqlar to‘imasligi mumkin, demak ikkala xolda zarrachalarning maksimal zinch taxlanishi namoyon bo‘la olmaydi.

Bu xisobotlar uch- va undan ko‘p farksiyali tarkiblar uchun xam aniqlangan.

Uch fraksiyali sistemalarda (zarrachalarning o‘lchamlari ancha farqlanadi) materiallarning donadorlik tarkiblari optimal xolda qo‘yidagicha:

60-65 % yirik fraksiya : 25-30 % o‘rta frakqiya: 10 % mayin fraksiya.

Ko‘pincha amaliyotda bu nazariy xisoblardan ko‘ra mayin fraksiyaning qiymatini ko‘proq qilib olgan ma’qulroq xisoblanadi (to‘Imagan bo‘shliqlar qolmasligini ta’minalash uchun). Bu natijasida ikki fraksiyali sistemalarda donadorlik tarkiblari 65:35 va uch farksiyali sistemalarda esa 55:30:15 teng deb xisoblanadi va ushbu tarkiblar asosida strukturada zarrachalarni taxlanishdagi g‘ovakligi 15-16% (ikki fraksiyali sistemalar uchun) va 9-10% (uch fraksiyali sistemalar uchun) tashkil qilishi mumkin.


Yuqori zichlikga ega olovbardosh qurilish materiallarni ishlab chiqarishda ko‘pincha ikki fraksiyali tarkiblardan foydalanadi. Yirik fraksiyaning o‘lchamlari 1 mm atrofida (masalan, 0,5-2 mm yoki 1-3 mm) deb, mayin fraksiya zarrachalari o‘lchami esa 0,1 mm dan kichik deb xisoblanadi. Oraliq o‘lchamli zarrachalar xam massada 10-20 % ni tashkil qiladi, chunki ishlab chiqarish sharoitida zarrachalarni o‘lchamlariga qarab ideal ajratish sharoitlari bo‘lmaydi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

127 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Ammo mayin fraksiyani ko‘payishi maxsulotni shaklashini va pishirish jarayonini anchalashtirishi natijasida ishlab chiqarishda mayin fraksiyani qiymati oshig‘i bilan olinadi. Buni “ko‘p shamotli massa”lar misolida 15-rasmida ko‘rshimiz mumkin. Plastik mineral komponent qo‘shilmagan ikki fraksiyali tarkiblarda mayin fraksiyaning qiymati 30-35 dan 40-45 % gachan oshiriladi.




8-rasm. Uch fraksiyali massalarda maksimal zinchlik oblastlari:

- 1 – nazariy “ideal” poroshok sistemalarning optimal tarkibi;
- 2 – ko‘pshamotli olovbardosh materiallar texnologiyasida qo‘llaniladigan tarkiblar.

Maydalashning ikkinchi yirik bosqichi unlash bo‘lib, un tortish jarayoni vaqtidagi maydalangan zarrachalar o‘lchami 0,1-0,01 mm va undan ham kichik bo‘ladi.

Un tortish mashinalari sifatida esa shar, sterjen va bolg‘achali tegirmonlar qo‘llaniladi. Keyingi paytlarda ushbu maqsadlarda pnevmo, vibro, energiya oqimi tegirmonlari keng qo‘llanilmoqda .


Yirik unlash, o‘rtalash, mayda unlash yoki kolloidli un tortish bog‘lovchi materiallar (sement, ohak va gips), nafis keramika (chinni, fayans va koshin), shisha (deraza oynasi va boshqa), olovbardosh buyum (dinas va boshqa), qalaylovchi material (elektrod, flyus va kukunli o‘tkazgich) va boshqa buyumlarni ishlab chiqarishda salmoqli ishlatiladi.




9-rasm. Sharli tegirmonda maydalashda turli xil fraksiyalar tarkibini unlash vaqtini bilan bog‘liqligi.

3.1. mavzuni mastaxkamlash uchun vazifalar.

1 vazifa. SQENMTda “Maydalash” va “To‘yish” tushunchalarini “Venna diagrammasi” yordamida solishtiring.



2. Chaqiq tosh va shag‘al materiallarining, O‘zbekiston kvars qumlari (7 jadval), fraksiyalangan qumning donadorlik tarkibini grafik usullari yordamida tasvirlab bering (kompyuter tizimidan foydalanilan xolda).



**Ilova.
7 jadval**

Ba’zi tuproqlarning o‘rtacha donadorlik tarkibi

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**

Месторождение	Размер, мм и содержание фракций, %								
	0,8	0,8—0,5	0,5—0,4	0,4—0,3	0,3—0,2	0,2—0,16	0,16—0,1	0,1—0,05	0,05
Джеройское	0,2	2,8	4,6	19,74	49,66	16,48	1,95	4,27	0,30
Керменинское	0,3	0,6	1,8	2,47	67,35	5,64	4,87	0,9	16,07
Курганчинское	1,0		82,1			9,2	5,7	2,0	
Майское	5,6	8,8	35,5		21,5	15,4	10,0	2,6	0,6
Кулантайское	1,0	0,9	4,5	16,9	52,3	21,1	0,1	3,1	0,1
Новоселовское	0,09	2,85	32,3		50,46	10,1	4,04	0,16	

Adabiyotlar ro‘yxati

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. -М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3
5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

Horijiy adabiyotlar

8. Silicate Glass Technology Methods (Wiley Series in Pure and Applied Optics) [Clarence L. Babcock](#). 326 page ISBN-10: 0471039659 ISBN-13: 978-0471039655
 9. Christopher T. G. Knight, Raymond J. Bales, Stephen D. Kinrade "The Structure of Silicate Anions in Aqueous Alkaline Solutions" Angewandte Chemie International Edition 2007, Volume 46, Pages 8148 -8152. [doi:10.1002/anie.200702986](https://doi.org/10.1002/anie.200702986)
 10. Siegbert Sprung "Cement" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, 2012 Wiley-VCH, Weinheim. [doi:10.1002/14356007.a05_489.pub2](https://doi.org/10.1002/14356007.a05_489.pub2)
- Internet saytlari
9. www.ziyonet.uz
 - 10.www.bilimdon.uz

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

130 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

11. www.ref.uz
12. <http://www.texhology.ru>
13. www.ximik.ru – Ximicheskaya entsiklopediya.

2-BO’LIM. 4-MA’RUZA.

***MATERIALLARNI ARALASHTIRISH TEXNOLOGIYASI. KUKUNSIMON,
SUSPENZIYA VA BOSHQA TURDAGI MASSALARNI ARA LASHTIRISH. (2 soat)***

Reja:

4. Materiallarni aralashtirish texnologiyasi.
5. Xom-ashyolarni aralashtirish, tashish va saqlash usullari.
6. Xom-ashyo aralashmalarini donalash.

Tayanch so‘z va iboralar

Aralashtirish; Shlam, Xom-ashyo uni; Kuruq va yarim quruq kukunlar; Plastik massa; Shliker; Shixta; Briket; Qorgich; Saralash; Mexanikaviy saralash; Havoda saralash; Magnitli saralash; Gidravlik saralash; Ta’minalash; Ta’minalagichlar; Dozalash; Dozalagichlar

Ma’ruza.

Qurilish materiallar ishlab chiqarishda birinchi bosqich – xom ashylarni tayyorlashdan so‘ng aralashtirish bosqichiga o‘tiladi. Aralashtirish jarayonidan asosiy maqsad turli xil xom-ashyolardan tashkil topgan massani bir xil ko‘rinishli holga keltirish. Ko‘pincha xom-ashyoni aralashtirish paytida shakl berish oson bo‘ladigan massa olishga harakat qilinadi, undagi «qattiq» materiallar esa bir xilda «yog‘li» materiallar bilan qoplangan va suv bilan xo‘llangan bo‘ladi.

Aralashtirish jarayoni juda muhim tadbir bo‘lib, tayyor mahsulotning sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Buyumlarni qoliplashning uch usuli mavjud: qovushqoq – pasta hosil qiluvchi massalardan qoliplash, yarimquruq – kukunlardan qoliplash va quyish – suyuq suspenziyalardan – shlikerlardan qoliplarga quyish orqali qoliplash.

Mos ravishda keramik aralashmalarni (shartli ravishda keramik massa deb yuritiladi) tayyorlashning uch usuli ajratiladi, ushbu massalardan buyumlar qoliplanadi: **qovushqoq, quruq va shlikerli**. Ohirgisi yarimquruq presslash usulidan kukunlar olish hamda quyish shlikerlarini tayyorlash uchun ishlatiladi.

U yoki bu usulning tanlab olinishi xom-ashyo materiallarining hususiyatlariga, keramik massaning tarkibiga, buyumlarni qoliplash usuliga hamda ularning o‘lchamlari va maqsadiga bog‘liq.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

131 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

Ba’zi buyumlar (masalan qurilish g‘ishti va shamotli olovbardosh g‘isht, fasonli olovbardosh buyumlar) ham qovishqoq qoliplash usullari bilan ham kukunli massalardan yarimquruq presslash bilan qoliplanishi mumkin.

Xom ashyo va aralashmalarni saralash

Silikat buyumlari va materiallarini ishlab chiqarishda xom ashyo (aralashma) ni alohida-alohida sort (klass)larga ajratish zaruriyati tug‘iladi. Masalan, chaqiq tosh va shag‘al odatda 4-ta fraksiyaga ajratiladi: 5-10 mm, 2-10 mm, 20-40 mm va 40-70 mm. Har bir fraksiya bo‘yicha ham zarracha o‘lchamlari reglamentatsiya qilingan (8-jadval).4

8-jadval

Chaqiq tosh va shag‘al fraksiyasiga qo‘yilgan talablar

Nazorat elaki teshiklari o‘lchami, mm	D* min	0,5 (D _{min} +D _{maks})	D** maks	1,25 D min
Elakdagi to‘la qoldiq, mas.%	95-100	40-70	0-5	0

D* min va D** maks - tegishli fraksiyadagi bo‘lakchalarning minimal va maksimal o‘lchami.

Chaqiq tosh va shag‘alda plastinka va ninasimon ko‘rinishdagi zarrachalar (ularning qalinligi yoki eni uzunligidan 3 marta kichik) miqdori ham cheklangan (15% dan oshmasligi kerak).

Yuqoridagi kabi talablar tabiiy fraksiyalangan qumga ham qo‘yilgan (9 va 10-jadvallar).

9.-jadval

Tabiiy qumga qo‘yiladigan talablar

Xarakteristika elementlari	Qum			
	yirik	o‘rtacha	mayda	juda mayda
№ 063 elagidagi to‘la qoldiq, mas%	50 dan ko‘p	35-50	-	-
Yiriklik moduli	2,5dan ortiq	2-2,5	2 dan kichik	-
Solishtirma yuza, m ² /kg	-	-	10-20	20,1-30
№ 014 elagidan o‘tadi, mas%	10 gacha	10 gacha	10 gacha	10 gacha

Fraksiyalangan qum uchun 2-ta fraksiya - yirik va mayda ko‘zda tutilgan. Ularni olishda 1,25 va 063 raqamli nazorat elaklaridan foydalilanilgan (10-jadval).

10-jadval

Fraksiyalangan qumga qo‘yiladigan talablar

Xarakteristika elementlari	Fraksiya						
	yirik				mayda		
Nazorat elaklari o‘lchami, mm	5	2,5	1,25	0,63	0,63	0,13	0,14

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

132 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

Chegaraviy ajratilganda elaklardagi to‘la qoldiq:						5	
1,25 mm	-	20-50	100	-	30-50	50-80	85-95
0,63 mm	-	0-40	50-70	100	-	40-60	-

Hozirgi kunda elak teshiklarining o‘lchamini aniqlovchi 3-ta sistema mavjud (17-jadval):

1. MDH mamlakatlari sistemasi. Unda elak teshikcha o‘lchami bilan xarakterlanadi;
2. German sistemasi. Unda elak 1 sm² yuzadagi teshiklar soni bilan xarakterlanadi;
3. Anglo-Amerika sistemasi. Unda elak 1 dm dagi meshlar soni bilan xarakterlanadi.

11 -jadval

Elak (sim g‘alvir)larning qisqartirilgan xarakteristikasi

MDH mamlakatlari sistemasi		German sistemasi			Anglo-Amerika sistemasi	
Elak nomeri	Teshik tomoni, mkm	Elak nomeri	Teshik tomoni, mkm	1 sm ² dagi teshik soni	Mesh soni	Teshik tomoni, mkm
5	5000					
4	4000					
3,3	3300					
2,5	2500	1	6000	1	4	5131
2	2000	3	2000	9	10	1980
1	1000	6	1002	36	20	894
0,7	700	-	-	-	24	714
0,5	500	12	490	144	36	452
0,4	400	-	-	-	40	401
025	250	24	250	576	60	247
020	200	-	-	-	70	210
016	160	40	150	1600	80	177
014	140	-	-	-	100	149
01	100	60	102	3600	140	105
009	90	70	88	4900	160	91
008	80	80	75	6400	180	84
0071	71	90	66	8100	200	74
0063	63	100	60	10000	230	62
0056	56	-	-	-	270	53

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

133 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

005	50	-	-	-	-	-	-
0045	45	-	-	-	285	44	
004	40	-	-	-	300	40	


Shunday qilib, xom ashyni tozalash operatsiyasi vaqtida bu maydalangan material yoki bir jinsli aralashma ayrim sort va klasslarga ajratiladi hamda o‘rinsiz qo‘sishmchalardan tozalanadi. Umuman silikatlar texnologiyasida materiallarni saralashning to‘rt usuli keng qo‘llaniladi:

Mexanikaviy saralash - bunda material turli panjarali mashina va asboblar yordamida gumbirlab donalarning katta-kichikligiga ko‘ra ikki yoki bir qancha turlarga ajraladi;

Havoda saralash - bunda material donalari havo separatorlari, siklon, filtr va elektrofiltrarda og‘irlik va aylanma kuchlari ta’sirida gorizontal yoki vertikal harakatdagi havo oqimidan ajralib fraksiyalanadi;

Magnitli saralash - material elektromagnit separatorlari bilan temir birikmalari hamda metall qo‘silmalaridan tozalanadi;

Gidravlik saralash - bunda materialning konusli, kamerali va gidromexanikaviy klassifikatorlarda suvli muhitda donalar o‘lchami yoki solishtirma og‘irligidagi farq sababli turli tezlikda cho‘kishi asosida fraksiyalarga bo‘linishi yotadi.



11-rasm. Ko‘pqirrali barabansimon elak-burat ko‘rinishi:

1-almashtirilib turiladigan elaklar; 2-yuklovchi lotok.

Yuqorida keltirilgan 4 usul turli tipli mashinlarda ro‘yobga chiqariladi (12-jadval).

12-jadval

Sortirovkalash mashinasi va qurilmalarning klassifikatsiyasi

Sortirovkalash usuli	Mashina tipi
Mexanikaviy (gumbirlash) saralash	Gumbirlagichlar: Yassi harakatlanmaydigan Yassi harakatlanuvchi Vibratsion

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

	Inersion (giratsion) Elektrli Aylanuvchi barabanli va prizmali (sito-burat)
Havoda saralash (separatsiya), shu jumladan chang cho’ktirish va gaz tozalash	Havo separatorlari: Gorizontal havo oqimili Vertikal havo oqimili Yuqoriga qarab boradigan havo oqimi va inersiyaning markazdan qochma kuchi ta’sirida harakatlanadigan zarrachali Siklonlar, filtrlar, elektrfiltrlar
Magnitli saralash (separatsiya)	Elektromagnit separatorlari: Quruq Namli
Gidravlik saralash	Klassifikatorlar: Konusli gidravlik Kamerali gidravlik Gidromexanik

Keltirilgan jadvallardan ko‘rinib turibdi - saralash yoki sortirovkalash (sortlash) ko‘p sonli usullar, mashinalar va elaklar yordamida bajariladi. Qaysi usul, mashina va elakni tanlash oldindan qo‘yilgan talablarga o‘ta bog‘liq. Masalan, portlandsementning dispersligi 008 elakdagi qoldiq orqali nazorat qilinadi. Bu raqam 80 mkm dan yirik zarrachalar miqdori 15% dan oshmasligi kerakligidan dalolat beradi. Cementli xom ashyoli aralashmalarda esa ikki parametr - 200 mkm dan katta zarrachalar soni (1-4%) va 80 mkm dan katta o‘lchamli zarrachalar miqdori 3-20% - nazorat ostiga olingan.

Saralash keramika texnologiyalarida ham muhim ahamiyatga ega. Keramika massalari ikki xil - dag‘al (yirik) donali va nafis (mayda) zarrachali bo‘ladi. Dag‘al donali massalarda fraksiya 0,5-1 mm ko‘proq, mayda donali massalarda esa 0,05-0,1 mm li fraksiya buyum asosini tashkil qiladi. Dag‘al massali olovbardosh yoki qurilish buyumi kuydirilganda kam kirishuvchanlik yoki cho‘kish raqami (3-5%)ni beradi, 10-15% gacha ochiq g‘ovaklikka ega.

Nafis donali keramika (chinni, sopol, ichki pardozlash va texnika buyumi) massalarida esa cho‘kish ancha yuqori (olvoda kirishish 10-20% atrofida), zich va yaxshi pishganligi tufayli umumiy g‘ovakliligi 5-10%, shu jumladan ochiq g‘ovaklilik 0-2% dan oshmaydi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Shisha shixtalari tayyorlashda komponentlar turlicha fraksiyalardan tashkil topadi. Kvarts qumi donachalari yirik, soda va potash - juda mayda zarrachalardan tashkil topgan. Shuning uchun shixta tarkibiga kiruvchi barcha komponentlar aralashtirish jarayonidan oldin 1 sm^2 yuzadagi teshiklar soni bilan xarakterlanuvchi nazorat elaklaridan o’tkaziladi. Natriy sulfati uchun bu raqam - 36, soda va bo’r uchun - 49, dolomit va ohaktosh uchun - 64 ga teng bo’ladi.

Xom ashyni ta’minalash

Texnologiyada maydalash - un tortish mashinalari, qoliplash asboblari, yuklarni to’xtovsiz uzatib turish kabi tashish vositalarining xom ashyo, suv, yonilg’i va shu kabilar bnshan ta’minalashni tartibga solib turish maxsus tarelkali (diskli), plastinkali (lentali), barabanli va shnekli oziqlantiruvchi mashinalar yordamida bajariladi. Ba’zi vaqtarda o’ta aniqlik kerak bo’lmasa bu mashinalar dozalagich rolini ham o’ynashi mumkin.

Xom ashyni dozalash

Dozalagichlar texnologik liniya materiallarining ma’lum miqdorini og’irligi yoki hajmini o’lchashga xizmat qiladi. Ular dozalagich usuliga ko’ra hajmli va og’irlik dozalagichlarga bo’linadi. Hajmli dozalagichlarda dozalash aniqligi 2-5 protsentga teng. Ammo ular tuzilishi nuqtai nazaridan qulay va sodda. Shu sababli texnikada juda kent qo’llaniladi. Aniq o’lchov talab qilingan joylarda esa faqat siklik yoki uzluksiz ishlaydigan tarozlar qo’llaniladi.

Masalan, bog’lovchi modda, keramika va shisha mahsulotlari ishlab chiqarishda dozalash va ta’minalash texnologik jarayonning ba’zi-bir qismlarida transportyorlar orqali amalga oshishi mumkin. Lentali transportyorni bunkerga nisbatan baland yoki pastroq joylashtirish orqali dozalash masalasini hal etish mumkin. U ta’minalovchi bunkerga yaqin bo’lsa doza kamroq bo’ladi. Uni bunkerdan uzaytirish orqali xom ashyni ko’proq uzatish mumkin.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda dozatorlarning porsiya tayyorlab beruvchi turi keng tarqalgan (beton zavodlari, temir beton buyumlari zavodi, sement kombinatlari va boshqa).

Uzluksiz ishlovchi dozatorlar ham 2-turli bo’ladi:

1. Unumdorligini avtomatik boshqarish sistemasi orqali regulirovka qilinadigan;
2. Avtomatik boshqarish sistemasisiz

Kukunsimon turdag'i, suspenziya turdag'i va boshqa turdag'i aralashtirish. Aralashtiruvchi jixozlarning tavsifi va ularning ishlash prinsiplari. Aralashtirishning sifat kategoriyalari: aralashmaning bir tarkibliligi va aralashtirilayotgan materialni yuzasi xosil bo'lishiga ta'siri.

Xom ashyo aralashmalar

Silikatlar texnologiyalarida xom ashyo aralashmalarini tayyorlash, ya’ni xom-ashyo komponentlarini maxsus mashina va agregatlar yordamida aralashtirish orqali tayyorlanadi:

1. Bog’lovchi moddalar ishlab chiqarish texnologiyalarida – xom-ashyo shlami (namligi

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

30-50% bo‘lgan suvli suspenziya) va xom ashyo uni (namligi 4-5%);

2. Keramika va olovbardosh buyumlar ishlab chiqarish texnologiyalarida - quruq usul kukuni (namligi 0-5%), yarim quruq usul kukuni (namligi 6-14%), plastik massa (namlik 18-25% atrofida) va shlicher (suv miqdori 40-65%);

3. Shisha va sitallar ishlab chiqarish texnologiyalarida - shixta (xom ashyo kukuni - sodali shixta namligi 4-5% va sulfatli shixta namligi 4-7%) va briket (namligi 8-10%).

Bog‘lovchi materiallar ishlab chiqarish texnologiyalarida xom-ashyo aralashmalarini tayyorlash

Silikat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarida uchta jarayon-ralashma tayyorlash, qoliplash va termik ishlov berish eng muhim va hal qiluvchi jarayonlar hisoblanadi. Ulardan birinchisi xom ashyo tanlash va ularga ishlov berish jarayonlariga quyidagicha yakun yasaydi: Portlandsement ishlab chiqarish texnologiyasida yuqoridagi sxemalarda ko‘rsatilganidek xom ashyo aralashmasini tayyorlashning 2 usuli ma’lum: xo‘l va quruq. Xo‘l usulida shar tegirmonda komponentlarni aralashtirish va unlash suv ishtirokida bo‘ladi. Natijada namligi 30-50% li suvli suspenziya - shlam nomli aralashma hosil bo‘ladi. Quruq usulda esa ohaktosh va gilni unlash - aralashtirish xom ashylarni quruq holatida amalga oshiriladi. Hosil bo‘lgan komponentlarning kukunsimon aralashmasi "xom ashyo uni" nomi bilan ataladi.

Xo‘l va kuruq usullarning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor? Xo‘l usul afzalliklari:

1. Unlash yoki to‘yish yengil o‘tadi. Suv ta’sirida gilning mayda-mayda zarrachalarga bo‘linib ketishi davom etadi, aralashayotgan materiallar qattiqligi kamayadi;


2. Yuqori darajada aralashmaning gomogenlashuvi amalga oshadi. Natijada termik ishlov jarayonidan so‘ng klinker sifati oshadi. Buning asosiy sababi - xom ashyo aralashmasi tarkibidagi oksidlar kuydirilayotganda o‘zaro to‘laroq ta’sir etishadi.

Xo‘l usulda xom ashyo aralashmasi tayyorlashning asosiy kamchiliklari sifatida ko‘rsatish mumkin:

1. Yoqilg‘i sarfi quruq usuldagiga nisbatan 1,5-2 marta ortiq;
2. Suv tansiqligi sezilarli bo‘lgan rayonlar uchun uning sarfi yuqori.

Portlandsementni quruq usul bo‘yicha ishlab chiqarilayotganda 1 t klinkerga hisoblaganda issiqlik harajati kamroq, ammo maydalashga ketgan harajatlar miqdori katta hamda usul xom ashyo materiallarini harajatli dastlabki quritish jarayoni orqali olib o‘tishni taqozo qiladi.

Xom ashyo aralashmasining sifati uning titri (CaSO_3 va MgCO_3 miqdori), namligi, to‘yish holati (O₂ va O_{0.8} raqamli elaklardagi qoldiq) va kimyoviy tarkibning bir xilligi orqali aniqlanadi. Xo‘l usul ishlatilganida yana shlamning oquvchanligi nazorat ostiga olinadi.



O‘zbekistonda shu kunlarda faoliyat ko‘rsatayotgan 3 ta korxona (Ohangaron, Bekobod va Quvasoy) da sement aralashmasi xo‘l usulida va 1 ta korxona (Navoiy) da quruq usulda tayyorlanmokda.

Keramika va olovbardosh buyumlar ishlab chiqarish texnologiyalarida xom ashyo aralashmalarini tayyorlash

An’anaviy keramika buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarida xom-ashyo aralashmasini tayyorlashning uch usuli mavjud:


1. Chala nam press kukuni tayyorlash usuli. Bu usulni yana yarim quruq kukun aralashmasini tayyorlash usuli deb ham ataladi;
2. Plastik usulda aralashma (massa) tayyorlash;
3. Shlicher usulida aralashma (suspenziya) tayyorlash.

"SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI" FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA



Hozirgi kunda noan'anaviy keramika buyumlari ishlab chiqarishda to'rtinchi usul - quruq press kukuni olish ham juda katta templarda rivojlanmoqda. Shixta tayyorlash maxsus usullariga "Kerakli komponentlarni birqalikda cho'kmaga tushurish", "Tuzli aralashmalarni termik parchalash", "Kriokimyo" va boshqalar kiradi.

Quyidagi sxemalarda keramika sohasida xom ashyo aralashmalari tayyorlash beriladi:

Куруқ ва пластик усулларда аралашма тайёрлаш



Шлиker усулида аралашма тайёрлаш



Xom ashylarga ishlov berish va massa (aralashma) tayyorlashning yarim quruq usuli silikat sanoatida qurilish g'ishti, g'ovak-kovakli toshlar, olovbardosh buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Bunday buyumlarni olishda kam namli tabiiy xom ashyo (gil) lardan foydalaniladi. Asosiy texnologik jarayonlarga gilni qazib olish, uni donalash, quritish, unlash, dag'al fraksiyani ajratib olish, gilni elakdan o'tkazilgan plastikmass qo'shilma (kvarts qumi va boshqa) bilan aralashtirish, kerak bo'lsa aralashmani yengil namlash kiradi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

139 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Gilli massalarni tayyorlashning plastik usuli gilni qazib olish, uni va plastikmass xom ashyoni donalash, oldindan namlangan gil va plastikmass komponentlarni aralashtirish, shixtani unlash va gilli xamirni tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Yuqori sifatga ega bo‘lgan keramika buyumi olishda gil strukturasi-ning butunlayin parchalanib ketishi, xom-ashyo komponentlarning o‘ta nafis to‘yilishi va ularni aralashtirish jarayonlarini o‘ta ma’sulyat bilan o‘tkazish muhim. Shu shart-sharoitlar bajarilgan taqdirdagina bir tarkibli (oksidlar joylashishi va namlik tarqatilishi bo‘yicha) plastik (yopishqoq) massa olishga erishiladi. Agar plastik massa namligi qoliplash namligiga yaqin bo‘lsa natija yanada yaxshi bo‘ladi.

Agar xom ashyo tarkibiga yuqori yopishqoq plastik gil kirgan bo‘lsa uning suv yutishi va bo‘lak-bo‘laklarga ajralishi qiyin o‘tadi. Shuning uchun bunday holatlarda massaga qo‘srimcha ishlov suv (par)li gil aralashtirgichlarda beriladi. Par ishlovi berilgan massa past namlikda yaxshi qoliplanadi, qoliplashga bog‘liq quvvat (kuch) 20-25% ga qisqaradi, presslar unumdorligi 8-10% oshadi va quritish vaqtiga 40-50% ga kamayadi.

Namlikning keramika massasi tarkibida bir xilda tarqalishi yarim fabrikat va buyum mustahkamligini oshiradi va brakning keskin kamayishini ta’minlaydi.

Yuqori sifatli va tanasi ingichka nafis buyumlar (masalan, cherepitsa va fasad plitkalari) ishlab chiqarishda ham massa tarkibidagi komponentlar va namlikning massa tanasi bo‘yicha bir xilda bo‘lishi o‘ta muhim omil hisoblanadi. Buning uchun massa balandligi 7 m, diametri 5,6 m bo‘lgan va tayanchli halqada aylanib turadigan gomogenizatorga yuklanadi va bir necha sutka saqlanadi. Shu yo‘l bilan gilga ishlov beruvchi jihoz unumdorligi 20% ga va buyumlar mustahkamligi 20-30% oshiriladi. Gilni quritish jarayoni ham yaxshilanadi.

Aralashmani shliker usulida tayyorlash ishlatilayotgan gillarda namlik yuqori bo‘lganda yoki massa ko‘p komponentli bo‘lganida qo‘l keladi. Gil namligining ko‘p bo‘lishini uning keyingi osonroq bo‘kishi uchun zamin hozirlaydi va uning tarkibidagi toshli qo‘silmalarining chiqarilishini osonlashtiradi. Shlikerli aralashma tayyorlash jarayonlari - gilni qazib olish, dag‘al donalash, suvda gilni bo‘ktirish, elak yordamida elash orqali toshli qo‘silmalarini ajratib olish, suspenziyani suvsizlashtirishdir. Shu tariqa tayyorlangan va tarkibida 50-70% quruq moddasi bo‘lgan shlikerli aralashma 3 xil yo‘l bilan ishlatilishi mumkin. 1 yo‘l - shliker to‘g‘ridan-to‘g‘ri gipsli qolipga “qo‘yish” usuli bo‘yicha qoliplashga jo‘natiladi. 2 yo‘l - filtrlash bo‘lib, kerakli namlikdagi plastik massa olindi. 3 yo‘l - uni purkagichli quritgichdan o‘tkazish orqali yarim quruq press kukunini olishdir. Oxirgi yo‘l bilan ichki pardozlash koshin (plitka) larining yuqori sifatliliginini ta’minlaydigan eng muhim faktor - plitka sopoli aralashmasining bir jinsli, zinch strukturali bo‘lishiga erishiladi.

Yuqorida so‘z yuritilgan usullarning afzalliliklari ham, kamchiliklari ham bor. Massalar tayyorlashning plastik usuli keramika sohasida keng tarqalgan (masalan, chinni-sopol xo‘jalik buyumlari, qurilish g‘ishti, kanalizatsiya quvuri va hokazo ishlab chiqarishda) bo‘lib, u o‘zining oddiyligi va gilli massa sifatining a‘lo darajadaligi bilan ajralib turadi. Lekin shakllangan massani

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

quritish jarayonining sekin o‘tishi (1-3 sutka), yoqilg‘i va suv sarfining kattaligi usulning asosiy kamchiliklari qatoriga kiradi.

Massa (kukun) tayyorlashning yarim quruq usuli yoqilg‘i sarfini 20-26% kamaytiradi, jarayon sermehnatligini 26-30% va ishlab chiqarish maydonchalariga bo‘lgan talabni 30% qisqaradi. Bu usul qo‘llanilganda ishlab chiqarish jarayoni muddati qisqarganligi tufayli avtomatikani qo‘llashga yaxshi imkon yaratiladi. Texnologik sxemaning murakkablashi va metallga bo‘lgan talabning plastik usulga nisbatan 3 martadan ko‘proq bo‘lishi yarim quruq kukun tayyorlash usuli imkoniyatlarini cheklaydi.

Shlicherli aralashma tayyorlashda gilning tabiiy teksturasi maksimal parchalanganligi tufayli ishchi aralashmaning bir xilligi to‘la qondiriladi. Usul quyish yo‘li bilan murakkab shaklli buyumlarni olishga imkon beradi, ammo jarayonlarning qo‘l mehnati ishtirokida bajarilishi va quritish jarayonida yoqilg‘i sarfining ko‘pligi uning asosiy kamchiliklari qatoriga kiradi.

Ishlab chiqarish jarayonida u yoki bu usulni qo‘llash aralashma tarkibi va xossalariqa, buyumlarning shakli va o‘lchamlari, tayyor mahsulot sifatiga qo‘ylgan talablarga bog‘liq.


Shisha va shishakristall (sitall) buyumlar ishlab chiqarish

texnologiyalarida xom-ashyo aralashmalarini tayyorlash

Shisha mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda xom-ashyo aralashmasi - shixta tayyorlashga katta e’tibor qaratilgan. Ma’lumki, silikat shisha tarkibida asosiy oksid - qum tuproq hamda kalsiy, magniy va natriy oksidlari bor. Ular shixta tarkibiga toza kvars qumi, ohaktosh, dolomit, kalsinatsiyalangan soda va sulfat shaklida kiritiladi. Qum boyitilgan va quritilgan, dolomit va ohaktosh donalangan va unlangan. Ular tayyor komponentlar bunkeriga tushishdan oldin klassifikatsiyalanadi. Dolomit va ohaktoshli dag‘al fraksiya yana maydalash jihoziga qaytariladi. Shu tariqa tayyorlangan yoki qayta ishlov berilgan xom ashyo komponentlari korxonaning tayyorlov sexidagi bir qator (ryad) qilib o‘rnatalgan bunkerlarga kelib tushadi.

Har bir bunker tagida joylashgan avtomatik og‘irlik dozator (taroz) lari kerakli miqdordagi komponentlar - qum, dolomit, ohaktosh va sodani o‘lchab ularni harakatlanib turgan lentali transportyorga uzatadi. Dozirovkalangan to‘rt komponent aralashtirgichga kelib tushadi. Shixta gomogenizatsiyasini yaxshilash uchun aralashtirgichga oz miqdorda suv ham yuboriladi. Natriy sulfati va ko‘mir ham dozalangan boshqa transportyor yordamida ikkinchi aralashtirgichga uzatiladi. Tayyor bo‘lgan aralashma transportyor va elevator yordamida shixta saqlanuvchi bunkerlarga joylanadi va talab etilganiga qadar saqlanadi.

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**
Shisha shixtasini tayyorlash



Shixta sifati korxonalarda qattiq nazorat ostiga olingan. Sutkasiga 2-3 marta shixtaning kimyoviy tarkibi tekshirildi va uning berilgan retsepturaga to‘g‘ri kelish-kelmasligi maxsus jurnalda qayd etiladi. Qum, soda va sulfat bo‘yicha farq 1% dan oshmasligi, bo‘r, dolomit va ohaktosh bo‘yicha esa 0,5% dan kam bo‘lishi talab qilinadi.

Yirik donali qovushqoq massa tayyorlashning prinsipial texnologik tizimi



“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Xom ashyo tarkibini to‘g‘rilash va saqlash.

Xom ashyoning kimyoviy tarkibi va namligini to‘g‘rilash silikat va elektron mahsulotlari ishlab chiqarishda muxim omillardan biridir.U ayniksa nafis keramika buyumlari massasini tayyorlashda katta rol o‘ynaydi. Xo‘jalik va texnika chinnisining plastik massasi shu masalani xal kilish uchun bir necha kundan tortib oylar davomida tegishli namlikda saklanadi va pishitiladi.

Sement sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham bu jarayonga katta ahamiyat beriladi. Ayniksa tayyor aralashma - shlamni yetiltirish va saklash texnologiyaning muxim omillaridan biridir. Shlam shlam-basseyn nomli kurilmada kranli va boshqa aralashtirgichlar yordamida aralashtirib turiladi. Natijada shlamning og‘ir bo‘lakchalarining cho‘kishiga yo‘l ko‘yilmaydi. Shlamning kimyoviy tarkibi bir turli bo‘lishiga, uning bo‘lakchalari namligi ham bir xil bo‘lishiga erishiladi.

Xom ashyonini aralashtirish mashinalari

Xom ashylarni bir-biri va suv aralashtirishdek muhim texnologik jarayon qanotli loy qorgich, shnekli loy qorgich, eritma qorgich, parrakli aralashtirgich, loy atalagich, beton qorgich, kupik beton qorgich, kranli aralashtirgich, pnevmoaralashtirgich, planetar aralashtirgich, sharli tegirmon kabi mashinalarda ro‘yobga chiqariladi.

Aralashtirish yoki qorish mashinalari quyidagicha turlanadi.

A. Vazifasiga ko‘ra:

1. Plastik va kukunsimon materiallarni aralashtirish va namlash mashinalari - qanotli va shnekli qorgichlar, beton qorgich va boshqalar;
2. Suyuq massalarni tayyorlash va aralashtirish mashinalari - kranli qorgich, propellerli aralashtirgich, g‘il chayqatgich va boshqalar.

B. Ishlash xarakteriga ko‘ra:

1. Davriy ishlaydigan qorgichlar;
2. Uzluksiz ishlaydigan qorgichlar.

B. Materiallarni aralashtirish usuliga ko‘ra:

1. Materiallar erkin aralashtiriladigan qorgichlar;
2. Materiallar majburan aralashtiriladigan qorgichlar.

Tayanch so‘z va iboralar

- Xom-ashyonini aralashtirish – xom-ashylarni bir-biri va suv bilan aralashtirib, bir tarkib va namlikka ega bo‘lgan va havo puffakchalaridan holi bo‘lgan aralashma hosil qilish.

- Shlam - bog‘lovchi materiallar texnologiyasiga oid talab qilingan kimyoviy tarkibli, namligi 30-50% bo‘lgan bir jinsli xom-ashyo aralashmasi.

- Xom-ashyo uni - sement ishlab chiqarishida keng qo‘llaniladigan, quruq usulda mayda to‘yilgan va yaxshilab aralashtirilgan ohaktosh va gilning quruq aralashmasi.

- Kuruq va yarim quruq kukunlar - keramika va olovbardosh buyumlar ishlab chiqarish

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

texnologiyalarida xom ashyo komponentlarini aralashtirish yo‘li bilan olingan bir tarkibli aralashmalar.

- Plastik massa - gil va gil bo‘lмаган xom-ashyoni maxsus qorgichlarda qorish yo‘li bilan olingan va namligi 18-25 % atrofida bo‘lgan bir tarkibli aralashma.

- Shlicher - tarkibidagi suvning miqdori 40-65% bo‘lgan, gil va boshqa xom-ashyolar asosida olingan suspenziY.

- Shixta - shisha va sitallar texnologiyalarining eritish uchun tayyorlangan bir tarkib va namlikka ega bo‘lgan aralashmasi.

- Briket - shisha shixtalariga maxsus presslarda ishlov berish orqali olingan donador aralashma.

- Qorgich – xom-ashyolarni bir-biri va suv bilan aralashtirish uchun xizat qiladigan moslama, agregat yoki mashina.

Saralash - xom-ashyo yoki aralashmalarni alohida-alohida sort, klass va fraksiyalarga ajratish jarayoni;

Mexanikaviy saralash - bunda material turli panjarali mashina va asboblar yordamida gumbirlab donalarining katta-kichikligiga ko‘ra ikki yoki bir qancha turlarga ajraladi;

Havoda saralash - bunda material donalari havo separatorlari, siklon, filtr va elektrofiltrlarda og‘irlik va aylanma kuchlari ta’sirida gorizontal yoki vertikal harakatdagi havo oqimidan ajralib fraksiyalanadi;

Magnitli saralash - material elektromagnit separatorlari bilan temir birikmalari hamda material qo‘shilmalaridan tozalanadi;

Gidravlik saralash - bunda materialning konusli, kamerali va gidromexanikaviy klassifikatorlarda suvli muhitda donalar o‘lchami yoki solishtirma og‘irligidagi farq sababli turli tezlikda cho‘kishi asosida fraksiyalarga bo‘linishi yotadi;

Ta’minalash - xom ashyo, yonilg‘i, suv va shu kabilar bilan mashina va agregatlarni uzlucksiz oziqlantirish jarayoni;

Ta’minalagichlar - tarelka (disk)li, plastinka (lenta)li, barabanli va shnekli oziqlantirish mashinalari;

Dozalash - materialarning ma’lum miqdori og‘irligi yoki hajmini o‘lhash jarayoni;

Dozalagichlar - texnologik liniya materiallarini ma’lum miqdorini o‘lhash hamda uzlucksiz yoki porsiyali (siklli) uzatib turishini ta’minlovchi jihozlar.

Nazorat uchun savollar.


1. Xom ashyonи saralash jarayoni qanday kechadi?
2. Xom ashyolarni saralashning qanday usullari sizga ma’lum?
3. Xom ashyo silikat sanoatida qanday jihozlar yordamida saralanadi?

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**


4. Quruq va yarim quruq kukunlari deb qanday aralashmalarga aytildi?
5. Plastik massa xossalari, jumladan namligi ustida tushuncha bering Ta’minalash jarayoniga ta’rif bering.
6. Dozalagichlar qanday turlarga ajraladi?
7. Dozalash va ta’minalash jarayonlarini qanday sharoit va jihozlar yordamida birgalikda olib borish mumkin?

Mavzuni mustaxkamlash uchun vazifalar.

1-Vazifa: Materiallarning donadorlik tarkibi mavzusi bo‘yicha “Qanday?” metodi yordamida jadvalni to‘ldiring



2 vazifa. « Saralash usullari» mavzusiga klaster diagrammasini tuzing.




Portlandsementning “xo‘l” va “quruq” usullari asosida ishlab chiqarish.

Umumiy jixatlari

1. Jag‘li maydalagichlarda oxaktosh maydalanadi.
2. Valli maydalagichda gil maydalanadi.
- 3.
4. .


5.



1.
2.
3.
4.

1.
2.
3.
4.

3 vazifa. “Shamot” “Klinker” “Shixta so‘zlari sinkveyn tuzing.



Adabiyotlar ro‘yxati

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. -М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3
5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Йи зиyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

Horijiy adabiyotlar

8. Silicate Glass Technology Methods (Wiley Series in Pure and Applied Optics) [Clarence L. Babcock](#). 326 page ISBN-10: 0471039659 ISBN-13: 978-0471039655
9. Christopher T. G. Knight, Raymond J. Balec, Stephen D. Kinrade "The Structure of Silicate Anions in Aqueous Alkaline Solutions" Angewandte Chemie International Edition 2007, Volume 46, Pages 8148 -8152. [doi:10.1002/anie.200702986](#)
10. Siegbert Sprung "Cement" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, 2012 Wiley-VCH, Weinheim. [doi:10.1002/14356007.a05_489.pub2](#)

Internet saytlari

14. www.ziyonet.uz

15. www.bilimdon.uz

16. www.ref.uz

17. <http://www.texhology.ru>

18. www.ximik.ru – Ximicheskaya entsiklopediya.

5-MA’RUZA.

Yuqori dispers kukunlar tayyorlash. (2 soat)

Yuqori dispers kukunlar tayyorlash. Ularning instrumental buyumlar tayyorlashdagi roli. Yuqori dispers kukunlarni kimyoviy, plazmokimyoviy va boshqa usullarda olish. Kimyoviy birikmalar bazasi asosida instrumental materialarni yangi turlarini yaratish yo’llari.

Reja:

- 1. Maxsus shixta tayyorlash usullari**
- 2. Kriokimyo usuli bilan kukun olishning texnologik sxemasi.**
- 3. Silikat materiallar ishlab chiqarishda nanomateriallar va nanotexnologiyalar.**

1. Maxsus shixta tayyorlash usullari

Kerakli komponentlarni birgalikda cho’kma tushirish usuli bilan shixta defekt strukturali yuqori dispersli kukunlar holatida tayyorlanadi. Buning uchun tayyorlangan yengil eruvchan tuzlarning eritmalarini erimaydigan gidroksid, karbonat va oksalatlar holatida cho’kmaga tushiriladi. CHo’kma filtrланади, yuviladi, quritiladi va issiqlik ishlovidan o’tadi. Natijada juda mayda va gomogen kukun paydo bo’ladi.

Tuzli aralashmalarni termik parchalash usuli bo'yicha tuz aralashmalari avval yuqori haroratda eritilib parchalanadi. Bu holda aralashish molekula darajasida amalga oshadi. Natijada o'lchamlari 0,01-0,1 mkm li kukunlar paydo bo'ladi. Kukun yuzasi katta, defektlari ko'p va reaksiyon qobiliyati o'ta yuqori.

Kriokimyo usulida aralashma tayyorlash uchun tuzli aralashma eritmasi sovitish muhiti (geksan, toluol va boshqa) ga mayda zarrachalarga aylantirish orqali tushiriladi. Natijada qotirligan mayda granulalar paydo bo'ladi. Granulalar tarkibidagi muz qavat past temperatura va bosimda suv parlarini sublimatsiya qilish orqali yo'qotiladi. Quritilgan granulalar kuydirilganda tuzlar parchalanib o'lchamlari 0,01-0,5 mkm li qoliplashga tayyor nafis dispersli kukunlar hosil bo'ladi.

2. Kriokimyo usuli bilan kukun olishning texnologik sxemasi.

Eritma aralashmalarini olishning boshlang'ich moddalari

Xladagentga eritmalarini changitish (suyuq azot -krioagent) va granula olish

Granuladan suyuqlantirmasdan muzlarni yo'qotish
(sublimatsiya, organik eritmalar bilan aralashtirish)


**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**

Nam fazalar xosil qilmasdan, zarur fazalar sintezi uchun granulalarga issiqlik ishlov berish.




Dezagregatsiya

Kul – yelim – texnologiyasidan foydalanib maxsulot olishning texnologik sxemasi.



**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**
CHo’ktirish usuli bilan keramik kukunni olish



3. Silikat materiallar ishlab chiqarishda nanomateriallar va nanotexnologiyalar.

Нанотехнологиялар - бу йўналтирилган холда модданинг тузилиши, кимёвий таркиби, нанодиапазондаги заррачалар муносабатларини бошқариш асосида материал, ускуна ва тизимларни ўрганиш, лойихалаштириш ва ишлаб чиқаришга асосланган технологик усуллар мажмусидир.

Нанотехнологияларнинг амалий кўлланилиши: атом, молекула ва нанозаррачаларни яратиш ва бошқариш учун ускуна ва унинг компонентларини ишлаб чиқаришдан иборатdir. Бунда ўрганилаётган обьект 100 нмдан кичик ўлчамларда бўлиши зарур (бир ёки икки, уч йўналишлар бўйича), ёки катта ўлчамлардаги макрообъектлар (алохida атомларни бошқарилган холда яратилган атомар структурага эга бўлиши ёки ўз ичida нанообъектларни тутган бўлиши керак).

Нанозаррачалар

Нанозаррачалар деб бир ёки икки ёки уч йўналиш бўйича ўлчамлари 1 нмдан 100 нмгacha бўлган заррачалар тушунилади. Моддаларнинг ўта кичик заррачаларини замонавий усуллар

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

150 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

ёрдамида ўрганиш шуни кўрсатдики, моддаларнинг хусусиятлари унинг заррачалариникидан кескин фарқ қиласи. Масалан, баъзи материаллар нанозаррачалари жуда яхши каталитик ва адсорбцион хусусиятларга эга. Баъзилари эса ноёб оптик хусусиятларни намоён этади: органик материаллардан тайёрланган ўта юпқа плёнкалар қуёш батареялари ишлаб чиқаришда қўлланилмоқда. Бундан батареялар кичик квант эффективлиги эга бўлса хам, улар кремний ва камёб ер элементлари асосида олинган қуёш элементларидан арzonлиги ва механик эгилувчанлиги билан ажralиб туради.

Нанозаррачаларнинг асосий хусусияти – улар ўз-ўзидан йўналтирилган маълум бир тартибли структуралар хосил қилишга мойилдир. Бундай структуралар ўта тартибли жойлашган нанозаррачалардан иборат бўлиб, кўпинча ноёб хосса хусусиятларга эга бўлади. Расмда баъзи атом, органик ва ноорганик заррачаларнинг ўлчамлари келтирилган:



Расм 1. Нано- ва макро-заррачалар ўлчамлари ва турлари.

Нанозаррачалар З турга бўлинади:

учта йўналиш бўйича 3D-объектлар, заррачалар - яrimўтказгичларнинг портлатиш, ёки плазма синтези (CVD), юпқа қатламдаги плёнкаларнинг қайтариш усууллари ёрдамида олинади;

иккита йўналиш бўйича 2D-объектлар – бу молекуляр ёки ион қатламлар олиш усууларини ёрдамида олинадиган плёнкалар (ион қатлам ҳосил қилиш усулида дисперс ёки

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

151 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

қаттиқ холдаги моддани устқи қатламида реагентлар эритмаларидан маълум ионлар қийин эрувчан модданинг наноқатламини ҳосил қиласы “послойный (layer-by-layer) синтез наноматериалов”), кимёвий усулда газ холатдан плёнкага тушуриб чўқтириш (осаждение);


бир йўналиш бўйича 1D-объектлар – “вискер”лар, молекуляр қатлам ҳосил қилиш усули ёрдамида, хамда цилиндрик микроғовакларга маълум моддаларни кириш ёрдамида синтез қилинади.

Бундан ташқари нанокомпозитлар хам мавжуд – бу моддалар маълум бир модданинг матрицасига нанозаррачаларни ўтқазиш (чўқтириш) ёрдамида ҳосил бўлади.

Нанозаррачаларни синтез қилиш мураккаб масала бўлиб, юқорида қайд этилган усуллардан ишлаб чиқаришда асосан CVD ([англ. Chemical vapor deposition](#)) ва ALD (Atomic layer deposition) усулларидан кенг фойдаланилади (микрон плёнкалар олишда). Бошқа усуллар эса асосан илмий ишларни бажаришда қўлланиб келмоқда.


Нанозаррачаларнинг асосий физик ва кимёвий хоссалари макро- объектлар билан солиширганда уларнинг ўлчамларига ўта боғлиқ бўлади. Шунинг учун охирги йилларда нанозаррачаларнинг ўлчамларини аниқлаш усулларига катта эътибор қаратилмоқда – нанозаррачаларнинг йўналишини аниқлаш усули; седиментацион тахлил, ультратовуш усуллар, микрозонд тахлили кундан кунга ривожланиб бормоқда.

XXI асрда иқтисодиёт ва фаннинг ривожланиши янги тенденцияларга олиб келди, турли соҳаларда "наноматериаллар" ишлаб чиқариш йўлга қўйилмоқда. Шу борада қурилиш материаллари хам ишлаб чиқаришда янги технологиялар асосида янги, эксплуатацион хоссалари юқори бўлган боғловчи, керамика ва шиша материаллар яратилмоқда. "Нано" дегани 10^{-9} м маънени билдиради, материаллардаги заррачалар ўлчамлари жуда майдабўлиб бу материалларга умуман бошқа уникал хоссаларни таъминлайди. Қурилиш материалларини усти қатламини маҳсус таркиблар ёрдамида ишланса уларнинг ишқаланишга ва ёпишишга майиллиги кескин камаяди. Бу ходисани қўйидаги схемада кўришимиз мумкин:



5 mavzuni mastaxkamlash uchun pedagogik texnologiyalarni qo’llash.


1-Vazifa: Yuqori dispers kukunlar mavzusi bo‘yicha “Qanday?” metodi yordamida jadvalni to‘ldiring



Guruhdagi har bir talabaga individual tarzda “Shamot”, “Suspenziya” va “Shliker” suzlariga “Sinkveyn” tuzish topshiriladi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

153 bet



Adabiyotlar ro‘yxati

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usopova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. .-М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3
5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

Horijiy adabiyotlar

8. Moore G.E. // Electronics. 1965. V.38. №8. P.114-117.
9. Feynman R.P. // Engineering and Science (California Institute of Technology). 1960. V.23. P.22 (перепечатана в: Journal of Microelectromechanical Systems. 1992. V.1. P.60; см. также <http://www.its.caltech.edu/~feynman/plenty.html>).
10. Crommie M.F., Lutz C.P., Eigler D.M. // Nature. 1993. V.363. P.524-527 (<http://www.almaden.ibm.com/vis/stm/corral.html#stm16>).

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

154 bet

***"SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI" FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA***

11. Saranin A.A., Zotov A.V., Kotlyar V.G. et al. // Applied Surface Science. 2005. V.243. P.199-203.
12. Kotlyar V.G., Zotov A.V., Saranin A.A. et al. // Physical Review B. 2002. V.66. P.165401(1-4).
13. Singh A.K., Kumar V., Briere T.M., Kawazoe Y. // Nano Letters. 2002. V.2. P.1243-1248.

14. Siegbert Sprung "Cement" in Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry, 2012 Wiley-VCH, Weinheim. [doi:10.1002/14356007.a05_489.pub2](https://doi.org/10.1002/14356007.a05_489.pub2)
Internet saytlari

15. www.ziyonet.uz
16. www.bilimdon.uz

17. www.ref.uz
18. <http://www.texhology.ru>
19. www.ximik.ru – Ximicheskaya entsiklopediya.

6-MA'RUZA.

Shixta tayyorlash. (2 soat)

Shixta tayyorlash nazariyasi. Shixta sifatini ilmiy nazorat qilish. Tortish aralashtirish buyumlarda shixta tayyorlashning texnologik tizimi.

Reja:

1. Shixta tayyorlash. Shixta oldiga qo'yiladigan talablar.
2. Materialarni tortish.
3. Buyumlar uchun shixta tayyorlashning texnologik tizimi.
4. Shixta sifatini nazorat qilish.

Tayanch so'z va iboralar:

Shixta, omihta, quritgich, elash, dolomit, ohak, nafis maydalash, dag'al maydalash, elak ,titratgich, omihta bo'limi, bunker, elevator, kyubel, yugurdaklar, burat elagi, briket.

1. Shixta tayyorlash. Shixta oldiga qo'yiladigan talablar.

Shisha pishirishda ishlatiladigan barcha xom ashyo materiallari, qum, bo'r, dolomit, ohaktosh, kaolin, sulfat quritiladi. Namsimon materialarni ishlatganda omixtaning bir xilligi buzilib, shisha pishirish jarayonini qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, nam qum dumaloqchalar hosil qilib, qishda yaxlab qoladi va elashni qiyinlashtiradi. Ohaktosh va sulfat guruhidagi materiallar nam holatda yomon maydalanadi, dumaloq-dumaloq bo'lib qoladi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Ko‘pincha materiallarni quritish jarayoni quritish barabanlarida amalga oshiriladi. Qum 700-800°S da quritiladi; bo‘r, ohaktosh, dolomit termik dissotsiatsiyaga uchramasligi uchun 400°S haroratda quritiladi. Sulfat namligi 18% ga yetganda quritiladi. Mirabalitning o‘z kristallizatsion suvida 32,4°Sda erigani uchun namligi 20% dan yuqori bo‘lgan sulfat quritilganda sezilarli qiyinchiliklar bo‘ladi. Sulfat bir necha usullar bilan quritiladi. Yuqori haroratli usul bo‘yicha /650-700°S/ - quritish barabnlari, past temperaturali usul bo‘yicha – tunelli quritkich ishlataladi. Shuningdek, qurituvchi sifatida soda (8-10%) qo‘shib ham quritiladi. Soda gigroskopik namlikni bog‘lab oladi va buning natijasida sulfat sochiluvchan bo‘lib qolib, uni maydalash, elash oson bo‘lib qoladi.

Kvars qumi ba’zi hollarda kuydiriladi. Bunda organik qo‘sishchalar yonib ketib, qumlar to‘r hosil qilib darzlarni yopadi, bu esa shisha pishirish tezligini oshiradi.


Xom ashyo materiallari va omixta tayyorlashda qo‘yidagi texnologik jarayonlar bajariladi (1-Animatsiya roliki).

1- Animatsion rolik. Xom ashyyoga ishlov berish jarayonlari.

2. Tortish va aralashtirish.

2. Materiallarni tortish.

Bu dolzarb jarayon bo‘lib uni har bir bunker tagida joylashgan avtomat tarozilar yordamida amalga oshirish yaxshi natija beradi.



**12-Rasm. Kichik gabbarithi bir komponentli dozirovka kompleksi
(avtomat taroz).**

3. Buyumlar uchun shixta tayyorlashning texnologik tizimi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Omixtaning bir jinslilagini oshirish va uning changlanishini kamaytirish uchun namlash qoniqarli ta’sir ko‘rsatadi. Omixtani namlash uchun qumni qo‘sishimcha namlash tavsiya etiladi, keyin boshqa xom-ashyo materiallari qo‘sib komponentlar aralashtiriladi. Sodali omixtaning optimal namligi 5%, sulfatli omixta uchun 7% hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, qum qancha mayda bo‘lsa, uni namlash uchun shuncha ko‘p suv kerak bo‘ladi.

Omixta tayyorlashda aralashtirish dolzarb jarayonlardan biri hisoblanadi. Sulfatni ko‘mir bilan yaxshi aralashgan bir jinsli aralashma hosil qilish katta axmiyatga egadir. Yugurdaklar materialni nafaqat aralashtiradi, balki, ishqalaydi. Shuning uchun yugurdaklardan foydalanganda yaxshi natija olish mumkin. Sulfatni ko‘mir bilan aralashtirish uchun ko‘pincha betonli aralashtirgichlar ishlatiladi.



13- Rasm. Ikki komponentli shnekli universal dozirovka kompleksi KDU-SH (avtomat tarozi va shnekli aralashtirgich).

Aralashtirishda komponentlarning murakkab harakati hisobiga taqsimchasimon aralashtirgichlarda aralashtirish natijasida omixtaning barcha komponentlari sifatli, yaxshi aralashadi. Aralashtirgichning aralashtirish tezligi va aralashtirish vaqtı omixtaning bir jinsliliga katta ta’sir ko‘rsatadi. Taqsimchasimon aralashtirgichlarda aralashtirish vaqtı 1-1,5 minutni tashkil etadi.

Elash. Hamma xom-ashyo materiallari elanadi. Omixta tayyorlash uchun ishlatiladigan hamma xom-ashyo materiallarning o‘lchami aniq qiymatda bo‘lishi kerak. Qum, dolomit, ohaktosh, dala shpati, pegmatit odatda 81 tesh/sm²li elakda elanadi, bunda diametri 0,68 mm o‘lchamli xom ashyo zarrachalari olinadi. Soda, sulfat, qo‘ng‘ir ko‘mir yoki toshko‘mir 64 tesh/sm²li elak orqali elanib, zarrachalar diametri 0,75 mm bo‘lib qoladi. Kaolin 121-144 tesh/sm²li elakda elanadi.

Xom-ashyo materilallarini elash uchun elak-titratgichlar /sitotryasuchki/, elak-vibratorlar, elak-buratlar ishlatiladi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

157 bet

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Soda va sulfatni elash uchun ko‘pincha elak-buratlar ishlataladi. Ularning unumdorligi uncha yuqori bo‘lmasada, elash davomida chang chiqadi.

Zamonaviy shisha zavodlarida xom ashyo materiallarini tayyorlash quyidagi sxemaga ko‘ra amalga oshiriladi.

Xom-ashyo materiallari tayyor bo‘lgach, omixta tayyorlanadi.

Omixtaning briket qilish. Omixtaning bir jinsliligini saqlab qolish, changlanishini kamaytirish, maqsadida omixtani briket qilinadi. Omixta briket qilinishi natijasida sanitar ish sharoitlari yaxshilanib, pech kamroq buzilib, ishlash davomiyligi pishirish tezligi oshadi.

Transportirovkada omixtaning to‘kilishini maksimal darajada kamaytirish uchun omixta yo‘lining uzunligini qisqartirish, ko‘tarish, tushirish, titratishlarning oldini olish kerak. Omixtani juda katta bunkerda saqlash yaramaydi. Bunker omixtaga qancha yaxshi to‘lsa omixtani bunkerdan olishda uning tepadan tushishi kamayib, uning maydalanib ketishi, sochilishining oldi olinadi.

Quyida shixta tayyorlashning texnologik tizimi keltirilgan (15-rasm).




14- rasm. Lentali konveyer KLS.

4. Shixta sifatini nazorat qilish.

Xom-ashelarni tarozlarda tortish va omixta tayerlash shisha va shishakristall materiallarni tayerlashda katta yetiborga yega. Kanchalik tugri va vaktida kerakli xom


**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**



15-rasm. Shista tayyorlashning texnologik tizimi.

ashelarni omixtaga kushish olingan maxsulotning baland sifatli bulishiga olib keladi. Xozirgi zamonda shisha korxonalarida bu jarayenlar avtomatlashtirilgan. 3- rasmida omixtani tortish va aralashtirish tizimlarini boshkarish mnemosxemasi keltirilgan

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA




16- Rasm. Shisha shixtasini tortish va aralashtirish tizimlarini boshkarish mnemosxemasi.

6 mavzuni mastaxkamlash uchun pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.

1 vazifa. “Shisha materiallar” va “Sitallar” tushunchalarini “Venna diagrammasi” yordamida solishtiring.

Umumiy jixatlari

1. Shixta tayyorlanadi..
2. Shisha shixtasini yuqori xaroratda pishiriladi.
- 3.



Tayanch so‘z va iboralar

Shixta, omihta, quritgich, elash, dolomit, ohak, nafis maydalash, dag‘al maydalash, elak, titratgich, omihta bo‘limi, bunker, elevator, kyubel, yugurdaklar, burat elagi, briket.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

160 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA
Mavzu bo‘yicha nazorat savollari***

- 1 Xom ashyyoga nima uchun ishlov beriladi?
- 2 Maydalash qanday turlarga bo‘linadi?
- 3 Kvars va dolomit xom ashysiga qanday ishlov beriladi?
- 4 Dala shpatiga qanday ishlov beriladi?.
5. Quritish jarayoni qanday amalga oshiridadi?.
6. Shixta (omihta) qanday aralashtiriladi?
7. Omihta nima maqsadda briketlanadi?
8. Shixta tayyorlash bo‘limining texnologik tizimini tushuntirib bering.

Adabiyotlar ro‘yxati

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. .-М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3
5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

BUYUMLARNI SHAKLLASH NAZARIYASI. MATERIALLARNI ISSIQ PRESSLASH VA UNING MURAKKAB SHAKLLI BUYUMLAR OLİSHDAGI ROLI. TEXNOLOGIK BOG’LOVCHILARNING TURLARI. BUYUMLARNI PRESSLASH. KUKUNSIMON MASSADAN PRESSLAB BUYUM OLİSH JARAYONI. (2 SOAT)

Reja:

I QISM.

1. Shakl tushunchasi. Buyumlarni shakllash usullari. qovushqoq usulda shakllash nazariyasi.

2. Xom-ashyoni qovushqoqligi va ularning buyumlarini shakllashdagi roli.

3. Shvedov Bingem formulasi.

II QISM.

4. Buyumlarni presslash.

5. Kukunsimon massadan presslab buyum olish jarayoni.

6. Presslanadigan massanining namligi va uning kerakli bosimga ta’siri.

7. Bir, ikki va ko‘p bosqichli presslash.

8. Kukunli texnologiya orqali material olishda presslashning roli.

9. Materiallarni issiq presslash va uning murakkab shaklli, yuqori zichlikka ega bo‘lgan buyumlar olishdagi roli.

Tayanch so‘z va iboralar:

Qoliplash jarayoni - muhim texnologik jarayon bo‘lib, ma’lum xossa, o‘lcham va shaklga ega bo‘lgan yarimfabrikat olish jarayoni.

Qoliplash variantlari - issiqlik ishloviqa qadar shakllash orqali yarimfabrikat yoki xom buyumni olish, issiqlik ishlovidan keyin harorat yuqori bo‘lgan eritmadan qoliplash va kukun, shlam yoki shlikerlarni don (granula) holatida qoliplash.

Bog’lovchi materiallar texnologiyasida qoliplash - betonli va asbotsementli buyumlar tayyorlash texnologiyalariga qarashli muhim shakllash jarayoni.

Amaliy keramikada qoliplash - quruq va yarimquruq poroshogi, plastik usul massasi, shliker yoki eritmani maxsus asbob va mashinalar yordamida kerakli shaklga kirdizish jarayoni.

Shisha va sitallar texnologiyalarida qoliplash - qo‘l va mashinalar yordamida tortib cho‘zish, quyish, prokatlash, presslash, puflash va boshqa usullarda bajariladigan muhim jarayoni.

Don holatida qoliplash - kukun, shlam yoki shlikerlarni tegishli mashina va apparatlarda dona-dona qilib shakllash jaryoni.

Keramikada qoliplash - quruq va yarim quruq kukuni, plastik massa yoki shlikerni maxsus asbob va mashinalar yordamida kerakli shaklga kirdizish jarayoni;

Keramika buyumlarini qoliplash agregatlari - lentali vakuum press, tirsak dastali, friksion, rotatsion, gidravlik, shtampovka va boshqa asbob-uskunalar;

Shisha mahsulotlarini qoliplash usullari - tortib cho‘zish, quyish, prokatlash, presslash, puflash, granulalash va boshqalar;

Tortib cho‘zish usuli agregatlari - deraza oynasini vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda cho‘zadigan maxsus mashinalar;


"SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI" FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Qoliplash va termik operatsiyalar navbat - keramikada "qoliplash" shishasizlikda "eritish qoliplash".

kuydirish",

I QISM.

1. Shakl tushunchasi. Buyumlarni shakllash usullari. qovushqoq usulda shakllash nazariyasi.



Qoliplash jarayoni mohiyati

Qoliplash - muhim texnologik o'zgartirish (qaytadan yasash, qaytadan ishlash) bo'lib, maqsadi ma'lum talablar, o'lcham va shaklga ega bo'lgan yarimfabrikat yoki buyumni olishdan iborat.

Buyumlarni shakllash usullari.

Silikat va qiyin eruvchi nometall buyum va materiallar ishlab chiqarishda shakllash (qoliplash)ning asosan 3-ta varianti bor:

Variant 1 - **yarimfabrikat yoki xom buyumni issiqlik ishloviga qadar qoliplash yoki shakl berish. Bu keramika va olovbardosh buyumlar** ishlab chiqarish texnologiyalariga xos bo'lib, unda xom buyumning tabiati kelgusi ishlov berish (quritish, kuydirish, issiq namli ishlov) parametrlari va olinadigan tayyor buyumning fizik-texnikaviy xossalari (solishtirma og'irlik, issiqlikdan kengayish koefitsiyenti, mexanik mustahkamlik, kimyoviy turg'unlik, tanada defekt bo'lishi va bo'lmasligi, tanada kovak va g'ovaklarning bo'lishi va bo'lmasligi, zarrachalarning hajm bo'yicha bir xil tarqalganligi va boshqa) ni ta'minlash imkonini beradi.

Bu variant bog'lovchi materiallar asosida buyumlar olish (asbotsement quvuri va shiferi, temirbeton plitkalar, kislotaga chidamli buyum, silikat g'ishti va boshqa) ga ham taaluqli.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Qoliplashning 1 varianti amalga oshirilayotgan chog‘da xom buyum tanasi solishtirma og‘irligining barcha bo‘linmalarda bir xil bo‘lishi va strukturaning defektsizligiga erishish muhim omil hisoblanadi. Qiyosiy solishtirma og‘irlikdagi farqlar 0,015 dan oshmasligi darkor. Farqning oshib ketishi esa keramika buyumida issiqlik ishlovi va bog‘lovchi asosida olingan buyumda esa issiq namli ishlov vaqtlarida kirishib ketishlikning bir xilda bo‘lmasligi, deformatsiya va darz ketish kabi salbiy oqibatlarning ro‘y berishiga olib keladi. Yarimfabrikat xossalari yana ularni quritish vagonetkalari va proparka kameralariga joylashda (bir-birini ezib yubormaslik, termik ishlov agentining erkin harakatiga to‘sinqilik qilmaslik va hokazo) xam muhim rol o‘ynaydi.

Variant 2 - issiqlik ishlovidan keyin harorati yuqori bo‘lgan eritmadan buyumlarni qoliplash. Bu variant **shisha va sitall texnologiyalari** bo‘yicha olinadigan buyumlarga xos bo‘lib, unda shisha massasiga tegishli yoki kerak bo‘lgan shakl ato etiladi va buyumning talab darajasidagi fizik-mexanik xossalari (qattiqlik, mexanik mustahkamlik, issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsiyenti, nur sindirish koeffitsiyenti, optik bir xilligi va boshqalar) ta’milanadi.

Qoliplangan shisha yoki sitall buyumining mustahkamlikka oid xarakteristikalari tayyor buyum sifatini belgilashdan tashqari yarimfabrikatni transportirovka qilish, qo‘sishimcha termik (otjig) va boshqa ishlovlar berish va saqlash vaqtida ichki kuchlanishlarning ortib ketishi sababli defektlar paydo bo‘lishiga olib kelishi ham mumkin.

Variant 3 - kukun (poroshok), shlam yoki shlikearlarni don (granula) holatida qoliplash. Asosan, bu variant **yarimfabrikat oldi etapi** hisoblanadi.

Masalan, shisha shixtasi vanna pechiga yuborishdan oldin granula (shixtani ishlab chiqarish jarayonida dona-dona shaklida tayyorlash) va briket (g‘ishtga o‘xshatib, iskanjalab tayyorlangan har xil kattalikdagi jismlar) holatiga keltiriladi. Bu bilan shisha pishirish agregatining unumдорлиги 25% ga ortadi, energiya sarfi 20% ga qisqaradi, shixtaning pechdan tashqariga uchib chiqib ketishiga chek qo‘yiladi, transportirovka qilish va dozirovka sharoitlari yaxshilanadi, changsimon shixta tovar shakliga o‘tadi, sexda chang paydo bo‘lishi oldi olinadi. Bir so‘z bilan aytganda ekologik muhit va iqtisodiy ko‘rsatgichlar keskin yaxshilanadi. Boshqa bir holatlarda erigan holdagi oyna, shlak, metall va shu kabilarning sovish protsessida mayda donalarga aylanishi, dona-dona bo‘lishi ta’milanadi.

Sement shlamlarini aylanma pechlarining tayyorlash bo‘limida granulalash kuydirish jarayoni tizimiga keskin ijobjiy o‘zgarishlar kiritadi, sement unini granulyatsiya qilish va pechga uzatish esa klinker fazalarining to‘la paydo bo‘lishi va natijada sement sifatining yaxshilanishiga sababli bo‘ladi.


Keramika sanoatida esa shlike r tayyorlash va uni purkagichli quritgichda granulalashgan kukunga aylantirish yuqori sifatli buyum (tashqi va ichki pardozlash plitkalari)lar olishga imkon tug‘diradi. Shlikeidan olingan granulali kukunlar o‘lchamlarining bir xilligi, shaklining sharsimon bo‘lishi bilan boshqa quruq usul kukunlaridan ajralib turadi. Natijada granulalarni uzatish, qoliplarga joylash va presslash sharoitlari yaxshilanadi.

Sement (portlandsement va boshqa) sanoatida birinchi qaralganda qoliplash jarayoni yo‘qdek tuyiladi. Esga olaylik: qoliplash parametrlari talab darajasi (quruvchilar buyurtmasi)dan kelib chiqadi. Quruvchilar uchun esa sementni kukun holatida olish muhim. Shuning uchun korxona texnologlari klinkerni quruvchilarga jo‘natmay, unga tegishli qo‘shilmalar - gidravlik va qotish regulyatori kiritish yo‘li bilan sharli va boshqa unlash agregatlarida un (kukun) holatiga keltirishadi.

3. Qovushqoq usulda shakllash nazariyasi.

Qayishqoq holatda shakl berishda ishlataladigan tuproqli massa-larni bug‘ bilan aralashtirib ishlaydigan parrakli aralashtirgich. Sanoatda tuproqli massalar ni bug‘ bilan namlash usuli keng qo‘llanilmoqda (2-rasm). Tuproqli massalar bug‘ bilan namlanganida bir tekisda namlanadi va uning shakl berish xossalari yaxshilanadi. Bunday xolatda ishlab chiqarish nuqsonlari kamayadi, shakl beruvchi presslarning unumдорligi 10-12% oshadi, shakl berish uchun sarf bo‘ladigan elektr energiyasi 20% gacha qisqaradi, xom g‘ishtni quritish vaqtiga o‘rtacha 40-50%ga kamayadi, xom g‘ishtning sifati oshadi, tayyor mahsulotning navi va markasi ortadi. Bu usulda asosan tuproq past bo-simli to‘yingan bug‘ bilan namlanadi. Bunda bug‘ kondensatsiyaga uchrab, tuproq-ni namlaydi va isitadi.

Bug‘ asosiy (2) va maxsus o‘rnatilgan baliq qovug‘iga o‘xshagan taglik (3) orasidan bo‘shliqqa yuboriladi va aralashtirgichga plastinkalari o‘rtasidagi yoriqchalar orqali tushadi, balandligi 2-3 mm bo‘lgan yoriqlar bo‘yicha va yon devorlariga o‘q balandligigacha joylashgan. Bug‘ o‘tkazuvchi (10) quvurlarga max-sus teshiklar (11) va (12) orqali beriladi. Burama (13) massaning namlanish darajasini tartibga solish imkonini beradi. Bug‘ aralashtirgichga 0,4-0,5 atm bosim ostida beriladi, shuning uchun yoriqlar ifloslanmaydi. Aralashtir-gichning devorlari doim issiq bo‘lgani uchun tuproq ularga yopishmaydi.



“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

17- rasm. Bug‘li namlovchi aralashtirgich: 1-gorshok; 2-ralashtirgich tagi; 3-cheshuykali tag; 4-truba; 5-qopqon; 6,15-parrakli o‘qlar; 7-reduktor; 8-elektr-yuritgich; 9-qoplama; 10,11,12-paro‘tkazgichlar; 13-ventil; 14-kollektor.

Yarim quruq usulda shakl berish yo‘li bilan qurilish g‘ishtini ishlab chiqarishda tuproqli kukunni bo‘g‘ bilan namlash. Bunday bug‘lash quyidagi afzalliklarga ega:

- 1) kukunning hamma fraksiyalari bir xilda namlanadi;
- 2) kukunda o‘rta changsimon fraksiyalarning miqdori kamayadi;
- 3) $60-70^{\circ}\text{S}$ gacha isitilgan kukun pressformaga tushganda, isitilmagan kukunga nisbatan kam miqdorda havo bo‘ladi;
- 4) issiq kukunning harakatchanligi sovuq kukunga nisbatan katta, bu esa pressformani bir xilda to‘lishiga imkon beradi;
- 5) issiq kukun yaxshi jipslashish xususiyatiga ega;
- 6) xom mahsulot quritilayotganda unda darzlar paydo bo‘lish havfi kamayadi;
- 7) tayyor qurilish g‘ishtining sifati oshadi.

Bog‘lovchi materiallar texnologiyasida asosiy qoliplash usullari

Portlandsement ishlab chiqarish texnologiyasida klinker monolit tanali yarimfabrikat hisoblanadi. Klinker o‘z omboridan ta’minlagichli bunker orqali shar tegirmonga uzatiladi. Bu yerga gipstosh va gidravlik qo‘silma ham kerakli miqdorda yetkazib beriladi. Sharli tegirmonda klinker, gipstosh va gidravlik qo‘silma ham aralashadi, ham un shakliga keltiriladi. Shartli ravishda "unlash" jarayonini bog‘lovchi moddalar ishlab chiqarish texnologiyasidagi "qoliplash yoki shakllash" jarayoni deb qarash mumkin.

Lekin asosiy qoliplash cement ishlab chiqarish texnologiyasi chegarasidan tashqarida joylashgan bo‘lib, u betonli va asbotsementli buyumlar tayyorlash texnologiyasiga qarashli.

Bog‘lovchi modda, suv va to‘ldirg‘ichlar (qum, chaqiq tosh va shag‘al) ning qotishi natijasida hosil bo‘lgan sun‘iy tosh material beton deb ataladi. Bog‘lovchi modda cement shaklida kiritilgan bo‘lib, u suvda qorilganda yopishqoqlik xossalari namoyon etadi. Cement xamiri qum va chaqitosh donalarini yupqa parda holida o‘rab oladi va ularni bir-biriga yopishtirib, monolit (yaxlit) toshga aylantiradi. Mayda va yirik to‘ldirg‘ichlar esa birinchidan, skelet hosil qilib, sementning cho‘kishiga yo‘l bermaydi, ikkinchidan belgilangan fizik-mexanikaviy ko‘rsatkichlarni olishga imkon yaratadi va betonning bahosini arzonlashtiradi.

Beton buyumlari qoliplashda bog‘lovchi modda (cement), to‘ldiruvchi (maydalangan tosh, graviy va qum) va suv 3-xil usulda tayyorlanadi:

1. **Quyma aralashma.** Uning tarkibiga suv ko‘proq kiradi (suv miqdori bog‘lovchi massasiga nisbatan 60-70%) va shuning uchun ularda zichlashish massa og‘irligi ta’sirida bo‘ladi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Bu usul g‘ovak beton va gipsli aralashmalarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Ingichka va yuqori hamda armirovkalanadigan qurilish buyumi va detallarini yasashda ishlatiladi.

2. Harakatlanuvchi aralashma - sement va to‘ldirg‘ich zarrachalarini o‘rab olgan suvli plenkali yopishqoq massa bo‘lib, u mexanik kuch ta’sirida qoliplanadi. Vibratsion zichlash beton va temirbeton buyumlari ishlab chiqarishda asosiy usul bo‘lib, unda tashqi ta’sir energiyasi bog‘lovchining strukturaviy bog‘larini buzilishi, to‘ldirg‘ich zarrachalarining fazoviy qayta gruppalanishi va massaga tegishli shaklni ato etishga sarf bo‘ladi. Vibratsiyalash yig‘ma temirbeton buyumlari olishda odatda qolip bilan birga vibromaydonchalarda, monolit beton uchun esa chuqur va yuzali vibratorlar yordamida bajariladi. Vibratsiyalash vaqt - bir necha sekundni tashkil etadi.

3. Qattiq (bikir) aralashma - qorishma tarkibida suv yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun ularni vibratsiyalash vaqt 3-5 minutni tashkil qiladi.

Shunday qilib, beton buyumlarining qoliplash aralashmalari 3 usulda tayyorlansa, ularni qoliplash (zichlash) da quyidagi usullardan foydalilanildi:

1. Quyish. Bu usulda qo‘srimcha mexanikaviy ta’sirdan foydalanilmaydi;
2. Vibratsion zichlash. Asosiy usul bo‘lib, odatda bir tebranishi 1 minutiga 2800-3000 ni tashkil qiluvchi vibratorlar ishlatiladi;
3. Presslash - o‘lchami kichik va shakli sodda bo‘lgan buyum (silikat g‘ishti, trotuar plitkasi, bordyur toshi va boshqa) larni tayyorlashda qo‘llaniladi;
4. Trambovkalash - qisqa vaqtli presslash bosimi ostida kerakli o‘lchamdagি buyum beton qorishmasini qavatma-qavat ishlash yo‘li bilan olinadi;
5. Sentrifuga ta’sirida beton aralashmalarini zichlash - usul asosan silindr shaklli buyum (quvur va boshqa)larni ishlab chiqarish yotadi. Apparat ta’sirida 25-30% suv yo‘qotiladi, buyum solishtirma og‘irligi oshadi, mustahkamligi (40-60 MPa) va xizmat qilish muddati ortadi.

Asbest - sement buyumlar ishlab chiqarishda 9-18% asbest va 82-91% sement olinadi. Truba (quvur)lar tayyorlashda asbest miqdori 21%ga yetkazilishi mumkin. Shunday nisbatda tayyorlangan qorishma - asbest - sement massasi listlar va quvurlar qoliplaydigan mashinalarda qoliplanadi.

4. Xom-ashyoni qovushqoqligi va ularning buyumlarini shakllashdagi roli. Birjinsli keramika massalarini qoliplash

Keramika va olovbardosh buyum massalaridagi suv miqdoriga ko‘ra 4-xil traditsion qoliplash usullari mavjud:


- 1) Suyuq usul (quyish) - suv miqdori 25-35% va undan ham yuqori;**
- 2) Plastik (yopishqoq) usul - suv miqdori 16-25%;**
- 3) Yarimquruq usul - suv miqdori 8-10%;**
- 4) Quruq usul - suv miqdori 4-8% va undan ham kam.**

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA


Keramika va o‘tga chidamli materiallar olinishida yarim quruq usul poroshogi, plastik usul massasi, shlicher yoki eritma maxsus asbob va mashinalar yordamida qoliplanadi. 8-10% namlikka ega bo‘lgan yarim quruq poroshok bir yoki ikki tomonlama bir pog‘onali yoxud ko‘p pog‘onali usullarda 20-40 MPa bosimda presslanadi. Presslash jarayoni tirsak dastali, friksion, rotatsion va gidravlik presslarda bajariladi. 16-25% namli plastik massani esa presslash 1-2 MPa bosimda lertasimon yoki shtampovka presslarida amalga oshiriladi. Odatda tayyor loy press ichida shnek yordamida suriladi va zichlashadi. Press mundshtukidan uzlusiz chiqayotgan zichli brus kesadigan qurilmaning po‘lat simlari yordamida kesilib, berilgan o‘lchamdagи g‘isht hosil qilinadi (33-rasm). Shtampovka presslarida protsess davriy bajarilgan sababli kesadigan qurilmaga xojat qolmaydi. Bu presslar juda unumdar bo‘lib soatiga 10 ming, xatto undan ham ko‘p mahsulotni qoliplash imkoniyatini beradi. Sopol-chinni kabi buyumlar olishda ham yuqorida namligi qayd etilgan massalar ishlatiladi, ammo qoliplash jarayoni qo‘llanilayotgan mashina va asboblar turiga ko‘ra boshqacharoq o‘tadi.

Usullar ichidagi eng sodda va qadimiysi - shlikerni qolipga quyish. Qolip odatda gipsdan yasalgan bo‘lib, uning qalinligi 5-10 sm ni tashkil etadi. Usulning ikki varianti mavjud bo‘lib, birinchi variant - suyuqlik quyiladigan (34A-rasm) bo‘lib, u yirik buyumlar olishda ishlatiladi.

Ikkinci variant - suyuqlik to‘kiladigan (34B-rasm) bo‘lib, u kichik buyumlar yasashda qo‘l keladi. Birinchi usulda buyum qalinligi qolipga bog‘liq, ikkinchi usulda esa - faqat shlikerni qolipda ushslash vaqtiga bog‘liq. Oxirgi usulda buyum tanasi hosil bo‘lgach, oshiqcha shlicher to‘kib tashlanadi. So‘ngra buyum qoliplardan ehtiyyotlik bilan chiqariladi va quritishga jo‘natiladi.



18-rasm. Yotiq lentasimon press umumiyo ko‘rinishi (A:1-qabul qiluvchi quti; 2-silindrik shnek; 3-mundshuk) va unda shartli g‘isht quyish jarayoni (B:1-yuklaydigan voronka; 2-valoklar; 3-shnek; 4-press mundshtuki; 5-namlagich; 6-lentasimon siqma massa va 7-tayanuvchi roliklar).



19 rasm. Suyuqlik quyiladigan (A) va suyuqlik to‘kiladigan (B) sxemalar.

Yarim quruq progressiv usulda g‘isht ishlab chiqarishda bir oz quritilgan va to‘yilgan gil 8-12% namlik sharoitida yaxshilab aralashtiriladi va maxsus presslarda 15 MPa va undan oshiqroq bosimlarda presslanadi. Pressdan chiqqan g‘isht to‘g‘ri to‘rtburchakli, parallelepiped shaklida,

"SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI" FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

qovurg‘alari plastik qoliplashdagiga nisbatan to‘g‘ri va yuzalari tekis bo‘ladi. Uning o‘lchami 250x120x65 mm bo‘ladi. Alovida hollarda quruvchilar talabiga ko‘ra o‘lchamlari 250x120x88 mm li modul g‘isht ham korxonalarda ishlab chiqariladi.

Yarim quruq usulning plastik usuldan afzalligi: uncha mayin bo‘lmagan va yopishqoqligi kam bo‘lgan loydan ham sifatli xom g‘isht qoliplab bo‘ladi. Natijada korxonaning xom-ashyo bazasi kengayadi. Bu usulda g‘isht kam namli massadan qoliplanadi, shu sababli g‘isht tez quriydi va qurishga ketadigan yonilg‘i sarfi kamayadi. Lekin usul kamchiliklardan xoli emas: press tuzilishi murakkab, presslash energiya sarfi yuqori va tayyorlangan g‘ishtning hajmi og‘irligi katta va egilishga chidamliligi kamroq.

Shisha va sitallar ishlab chiqarishda qoliplash jarayoni

Shisha va sitall mahsulotlari ishlab chiqarishda qoliplash protsessi keramika va o‘tga chidamli materiallar olish texnologiyasidan o‘laroq, asosiy termik operatsiya - eritish protsessidan so‘ng amalga oshiriladi. Qoliplash qo‘l va mashinalar yordamida tortib cho‘zish, quyish, prokatlash, presslash, puflash usullarida bajariladi. Masalan, deraza oynasi vertikal va gorizontal yo‘nalishda cho‘ziladigan mashinalarda tayyorlanadi (35-rasm). Bu mashinalarda uzluksiz shisha lentasi eritmaga tushirilgan qayiqcha nomli qoliplovchi moslamaning tirqishi orqali tortib cho‘ziladi va teshikli o‘lchamlarda qalinligi 2-6 mm keladigan varaqlar ko‘rinishida qirqib olinadi. Uzluksiz shisha lentasi qayiqcha usuliz erkin holda ham cho‘zib olish mumkin. Bu usulda shisha massasi o‘zga modda bilan aloqada bo‘lishmagani sababli havo pufakchalari, qilsimon chiziq va xira nuqta kabi nuqsonlardan xoli bo‘ladi.

Shisha va sitall shixtasi erishdan oldin ba’zi hollarida qoliplanib mayda-mayda dona - granulalar hosil qilinadi. Quruq usulda portlandsement ishlab chiqarish jarayonida ham ana shunday donalar teshikli press, maxsus baraban yoki tovoqsimon tipdagi donadorlashtirgichlarda tayyorlanadi. Bunday qilish bilan shisha shixtasi yoki sement uning chiqit gazlar bilan ko‘p miqdorda uchib chiqib ketishiga barham berildi. Natijada pech normal ishlaydi va ish unumдорлиги oshadi.

Shisha massalari asosida mayda donacha-granulalar olishdan tashqari o‘lchami mikron darajasida bo‘lgan mineral paxta olish xam mumkin. Yuqorida keltirilgan rasmda aks ettirilganidek xom ashyo balandligi 3 dan 6 m gacha va ichki diametri 0,75-1,5 m bo‘lgan shaxta (vagranga) pechlarida suyuqlantiriladi. Pechning 20-30 mm li ostki teshigidan oqib chiqayotgan suyuqlanma bug‘ oqimi yoki siqilgan havo bosimi ta’sirida mayda tomchi bo‘lib parchalanadi. Tola hosil qilgich kamera yonidan o‘tayotib tomchilar diametri 2 dan 12 mikrongacha hamda uzunligi 2-60 mm gacha bo‘lgan ingichka tolalar tarzida cho‘ziladi, ya’ni "qoliplanadi".

Nazorat savollari:

1. Qoliplash jarayoni mohiyatini ochib bering.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

170 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

2. Qoliplashning qanday variantlarini bilasiz?
3. Issiqlik ishloviga qadar va issiqlik ishlovidan keyingi qoliplash deb qanday qoliplashga aytildi?
4. Keramika va elektron texnikasi vositalari materiallarining texnologik tizimida qoliplash qanday joylashgan?
5. Shisha va sitallar ishlab chiqarishda qoliplash qanday kechadi?
6. Bog‘lovchi moddalar (ohak, gips va sement) qanday qoliplanadi?
7. Bir jinsli tayyor moddalarning qoliplash jarayonining ahamiyatini tushintirib bering.

8. Adabiyotlar ro‘yxati

9.

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxon adagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. .-М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. –Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3

10.

5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

II QISM.

4. Buyumlarni presslash. Kukunsimon massadan presslab buyum olish jarayoni.

5.Kukunsimon qorishmalardan buyumlarni presslashning

nazariy masalalari

Avvalo, keramik presskukunlarning bir qator hususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Kukunlardagi vaqtinchalik bog‘lovchining tarkibi keng oraliqda o‘zgarib turadi va 2-3 dan 10-12 % gacha, ba’zi hollarda esa 15-18 % gacha bo‘ladi. Pastki ko‘rsatkichlar yirik donali qovushqoq bo‘lmagan komponentlar uchun xosdir. Yuqori ko‘rsatkichlilari esa tuproqsiz yuqori dispersli materialarni parafin va boshqa yuqori bog‘lovchilik xususiyatiga ega moddalar bilan qovushqoqligini oshirishda ishlatiladi. Suv bilan namlanadigan presskukunlar uchun W ning miqdori 6-12 % atrofida bo‘ladi.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

2. Sochiluvchan zichlik mineral moddaning haqiqiy zichligiga, shuningdek, texnologik bog‘lovchi moddaning va kukunsimon tizimning tuzilishiga bog‘liqdir. Erkin sochilgan kukunlarda mineral modda qismining hajmi ulushi 30-45 % ni, vaqtinchalik bog‘lovchining ulushi 5-15 % ni, havoning ulushi esa 45-65 % ni tashkil etadi. Havo bilan to‘lib turgan g‘ovaklar ham tizimning bir qismi bo‘lib, shu g‘ovaklar hisobiga siqish davomida kukunning hajmi qisqaradi.

3. Presskukunlarning donadorlik tarkibi qorishmaning donadorlik tarkibidan farq qiladi, chunki, kukunlardagi birlamchi mineral zarrachalar ozmi-ko‘pmi nisbatan mustahkam donalar – granulalarga birikkan.

Tarkibida qovushqoq mineral komponentlar bo‘lmagan dag‘al donali kukunlar uchun bu farqlanish to‘g‘ri kelmaydi. Mayin donali va yuqori dispersli zarrachali kukunlar uchun ushbu farq yanada katta ahamiyatga egadir. Agar qorishmaning donadorlik tarkibi tizimni maksimal siqishdagi mumkin bo‘lgan joylashish zichligini aniqlasa, unda presskukunlarning donadorlik tarkibi birinchi navbatda sochiluvchan zichlikka, presslashning boshlang‘ich bosqichlariga, shuningdek havoo‘tka-zuvchanlik va sochiluvchanlik kabi texnologik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kukunlarning granulalangan tuzilishga ega ekanligi ularning texnologik xususiyatlarini yaxshilashga olib keladi.


Granulalarning juda katta bo‘lishi, ularning juda ham zich joylashishi yaxlit bir jinsli yarim tayyor mahsulotni qoliplashni qiyinlashtiradi, ortiqcha donadorlik tuzilishga olib keladi, bu esa o‘z navbatida tayyor mahsulotning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Presskukunning shakli va yuzasining xususiyatlari ma’lum bir axamiyatga egadir. Izometrik (g‘adir-budur jag‘li) dona silliq jag‘li donaga nisbatan joylashishda kukunning yuqori zichlikka erishishini va sochiluvchanligini ta’minlaydi. Burchakli va noizomer donalar esa yarim tayyor maxsulotlarda ichki tishlashish kuchlarini kuchaytirishga sabab bo‘ladi.


4. Presskukunlarning sochiluvchanligi pressqoliplarda bir tekis sochilishni ta’minlashi uchun yetarli bo‘lishi lozim, chunki sanoatda ushbu jarayon to‘liq mexanizatsiyalashtirilgan. Va nisbatan qisqa vaqt davomida olib boriladi. Kam sochiluvchan, yopishishga moyil presskukunlar amalda yarim quruq usulda qoliplash uchun yaroqsizdir.

5. Sochiluvchanlikka ijobiy ta’sir kursatuvchi omillar quyidagilardir:

-donalarning sferik va yuzasi silliqlangan donalar, presskukunning donador tarkibining qisqaligi, bog‘lovchi modda sifatida parafin yoki boshqa suyuq bo‘lmagan moddalarning ishlatilishi. Sochiluvchanlik juda mayda fraksiyalar (<0,1-0,2 mm) ning ko‘p miqdorda bo‘lishi va o‘zaro bog‘lanish davomida donalarning tishlashishini kuchaytiruvchi namlikning ortib ketishi natijasida yomonlashadi.



20-rasm. Kukunsimon massalarning deformatsiyalanish tizimi: 1-siqish jarayonidagi umumiy deformatsiya; 2- qoldiq deformatsiya; 3-qaytar deformatsiya.



21-rasm. Qo‘zg‘aluvchi shtamp bilan shakllantirish sxemasi: a- siqishdan oldingi xilat; b-dastlabki siqishdagi holat; v – asosiy siqishdagi holat; 1- presslovchi puanson; 2-qo‘zg‘aluvchi qolip; 3- presslanayotgan massa; 4- qo‘zg‘almas puanson; 5-prujinalar.

**6. Presslanadigan massaning namligi va uning kerakli bosimga ta’siri.
7.Bir, ikki va ko‘p bosqichli presslash.**

Presslashdagi jarayonlar. Presslashdagi jarayonlar kukunning tarkibiy elementlari – birlamchi mineral zarrachalar va granulalarning xususiyatiga ko‘ra bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Pressqolipga solingan kukunning zichlashishi, ya’ni boshlang‘ich bosqichda yumshoq joylashgan zarrachalar «ark», «ko‘prikcha»larni yemirib va nisbatan yirik g‘ovaklarni to‘ldirib o‘z joylarini o‘zgartiradi. Zarrachalar presslayotgan shtamp-ning xarakat yunalishiga mos ravishda yo‘nalishini o‘zgartiradi. Bu bosqich donalarni keskin deformatsiyasining yo‘qligi bilan ajralib turadi.

Keyingi bosqich deformatsiyaning namoyon bo‘lishi bilan kechadi.

Deformatsiyaning turli ko‘rinishlari kuzatiladi: plastik yorilish – asosan granulalarda va mo‘rt yemirilish – boshlang‘ich mineral zarrachalar-da va qisman granulalarda. Mineral zarrachalarning mo‘rt yemirilishi yuzaki xususiyatga (uchlarining, notekisliklarining sinishi yoki silliq-lanishi) ega va qorishmaning donadorlik tarkibining keskin o‘zgarishiga olib kelmaydi.

Bu qaytmas deformatsiyalardan tashkari mineral donalarning qaytar deformatsiyalashishi kuzatiladi. Qaytar deformatsiyalar presslanayotgan yarim tayyor mahsulotda har yo‘nalish bo‘yicha ortib boruvchi bosim bilan boradi. Ortayotgan bosimga to‘liq yemirilishsiz dosh beradi, bunda tizimning qaytmas zichlashish darajasi uning joylashish sharoiti, ba’zan esa suyuq bog‘lovchining mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Natijada bosim bilan birga nafaqat zarrachalarning qaytar deformatsiyasi, balki tizimning umumiy siljishidagi ulushi ham ortadi.

Ba’zi bosimlarda qaytar deformatsiya ustivorlikka ega bo‘ladi, keyin esa amalda yakka deformatsiya turiga aylanadi. Shuning uchun presslash bosimining o‘lchamini tanlanayotganida shu sohaga o‘tib ketishi oldini olish zaruriy shartdir.

Kukunsimon qorishmani presslashda tizimning deformatsiyalanishining xususiyati quyidagicha bo‘ladi:

- 1 – siqish jarayonidagi umumiy deformatsiya;
- 2 – bosimni to‘xtatgandan keyingi qoldiq deformatsiya;
- 3 – qaytar deformatsiya.

Siqilayotgan kukun donalarining xususiyatidan tashqari tizimning suyuq va gazsimon holdagi tashkil etuvchilari bilan bog‘liq holatlar katta ahamiyatga egadir.

Siqish jarayonida namlovchi qobiq, kapillyarlar va g‘ovaklardagi suyuqlikning joyini o‘zgartirilishi kuzatiladi. Kuchlar ta’sirida zarrachalar orasidagi suyuqlik qisman tizimning yanada yirikroq govaklariga kirib boradi.

Presskukunni siqish darajasi va zarrachalar orasidagi umumiy hajmini kamaytirish ushbu hajmda suyuqlikning ulushi ortishiga olib keladi. Agarda suyuqlikning miqdori yetarli darajada ko‘p bo‘lsa, unda ularning hajmi g‘ovaklarning umumiy hajmiga teng bo‘lishi mumkin va u holda tizim uch fazalidan ikki fazaliga o‘tadi. Bunday holda go‘yo eng yuqori zichlashishga erishiladi. Ushbu holat

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

yuz beradigan bosimni kritik bosim deb ataladi va tizimning siqilishi qaytar deformatsiyaga to‘liq muvofiqlashadi.

Gazsimon faza (havo bilan) bilan presskukunni siqishda quyidagi hodisalar yuz beradi: pressovkalardan havoning bir qismini siqib chiqarish, siqib chiqarilmagan havoni g‘ovaklarda siqish, pressovkaning hajmi bo‘yicha xavoni qisman qayta taqsimlash, uni suyuq fazada singdirish.

Siqishning boshlanishida havo tashqariga haydaladi, shtamp va pressqolip o‘rtasidagi oraliqlar orqali yo‘qotiladi. Bu xolatda g‘ovaklarda yuqori bosim vujudga kelmaydi. So‘ngra siqilish va zichlashayotgan tizimdagi havo o‘tkazuvchi yo‘llarning yopilishiga qarab, havoni xaydab chiqarish jarayoni sekinlashadi va amalda to‘xtaydi. Qolgan havoning bosimi g‘ovaklar hajmining kamayishiga qarab keskin ortadi va bir necha o‘n va xatto 100 atm. dan ham ortadi. Bu esa bir qancha jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Presslangan havo ulushining uning sochilgan kukundagi boshlang‘ich miqdoriga nisbati presslash koeffitsiyenti deb ataladi. U dag‘al donali kukunlarni presslashda va presslashning bosqichli sekinlashtirilgan rejimlarida kamayadi. Ammo 0,25-0,3 atm. dan kichik bo‘lmaydi. U eng yomoni bilan 0,7 atm. gacha ko‘tarilishi mumkin, katta xajmdagi buyumlarni presslashda xatto 1 atm. ga yaqinlashadi.

Siqishni tugatgandan so‘ng, ya’ni presslash bosimini to‘xtatish daqiqasida va yarim tayyor mahsulotni qolipdan chiqarishda, uning qaytar kengayishi kuzatiladi. Bunda u ko‘proq presslash yo‘nalishi bo‘yicha boradi. Nisbiy o‘sish 1-2 %dan 7-8 % gacha, ko‘ndalangiga nisbiy kengayish bo‘ylama kengayishning 1/5-1/10 qismiga to‘g‘ri keladi. Bu siqilishning so‘ngidagi erishilgan zichlikning kamayishiga olib keluvchi qaytar kengayishdir. Ushbu holat yarim tayyor maxsulotni keyingi qayta ishlashdan keyingi jarayonlardan keyin ham o‘zini namoyon qilishi mumkin, ya’ni mahsulotni termik qayta ishlash yoki saqlash davomida ko‘rinadigan yoki ko‘rinmaydigan yoriqlarning hosil bo‘lishiga olib keladi.

Presslash bosimining yarim tayyor mahsulotning zichligiga ta’siri ko‘plab tadqikotchilar tomonidan o‘rganilgan. Bu bog‘liqlikning matematik ifodasi presslash tenglamasi deb ataladi. Barcha taklif etilgan tenglamalar empirik va yaqinlashgan tenglamalar hisoblanadi.

Ba’zi tenglamalar qorishmalarning zichlashish jarayonidagi va bosimning amaldagi zarur oraliqlarida holatlarni yoritishda qoniqarli natijalarini beradi.

Presslashning davomiyligining zichlashishga ta’siri kam o‘rganilgan, chunki ushbu omil hisobiga zichlikni oshirish ancha chegaralangan.

Tugal bosimdagisi dosh berish qiymatini yoritishda A.S. Berejnoy tomonidan ushbu ifoda taklif etilgan:

$$\Pi_{\tau} = \Pi_0 - A \lg(B_{\tau} + 1),$$

bu yerda - P_{τ} - ushlab turish vaqtidan keyingi presslash g‘ovakligi

**τ, P₀ – xuddi shu bosimda, lekin ushlab turmasdan presslashdan
keyingi g‘ovaklik;**
A i V – shu qorishma uchun doimiy kattaliklar.

Formula $\tau = 8 \div 10$ sek gacha bo‘lganida qoniqarli natijalar beradi. Keyingi bosim ostida ushlab turish foydasizdir, chunki ushbu bosimda siqilish muvozanatlashadi.

Ko‘plab sanoat presslarida tugal bosimda deyarli ushlab turmasdan presslanadi. Amalda bosimning ortish tezligi bilan birga o‘zgaradigan umumiyl davomiylik o‘zgaruvchan boshqariladigan omil bo‘lib hizmat qiladi.

Kukun tarkibida vaqtinchalik bog‘lovchining mavjud bo‘lishi presslashning jarayoniga va yarim tayyor mahsulotning tugal zichligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Presslashning har bir bosimidagi maqbul zichlashishiga mos maqbul namlik darajasi to‘g‘ri keladi. Ishlatilayotgan bosim qanchalik yuqori bo‘lsa, maqbul namlik ham shuncha kam bo‘ladi. Namlik qancha kam bo‘lsa, yuqori zichlikka erishish uchun shuncha ko‘p yuqori bosim talab etiladi.

Ko‘plab turdagи keramik qorishmalarda kuzatiladigan shunday qonuniyatlar asosida presslash texnologiyasining zarur ko‘rsatkichlarini tanlanadi.

Kukunlarning presslashdagi xossalari ni uning nafaqat vaqtinchalik bog‘lovchi moddalarini miqdorini o‘zgartirib, balki uning tarkibini sirt aktiv moddalar (SAM) qo‘sish yo‘li bilan boshqarish mumkin. SAM qo‘sishning asosiy samaralaridan biri- mineral zarralarning qattiqligini kamaytirishdir, bu esa to‘qnashishlarda zarrachalarning yemirilishini osonlashtiradi va siqilayotgan tizimning yaxshi jipslashuviga imkon yaratadi. SAM qo‘sishning boshqa samarasasi – zarrachalarning namlanishini yaxshilashdir, bu esa tizidagi ichki va tashqi ishqalanishni, shuningdek presslash bosimini to‘xtatgandan keyingi qaytar kengayishni kamaytiradi.

Presslangan yarim tayyor mahsulotdagi bosim va zichlikning taqsimlanishi bir qator omillarga bog‘liq. Notekis zichlik qo‘yidagi ikki asosiy sabablarga bog‘liq:

1. Qorishmaning pressqolip devoriga nisbatan ichki ishqalanishni yengishga sarflanadigan kuchlanishning yo‘qotilishi. U doimo mavjud bo‘ladi va noteke balandlikli kesimga ega buyumlardagi noteke zichlikga asos bo‘ladi;

2. Notekis balandlikli kesim yoki kukunning pressqolipga noteke sochilishi natijasida presslanayotgan buyumlarning alohida qismlariga berilayotgan siqilish koeffitsiyentining bir xil emasligi.

Bu ikkala sabablar presslashni ikki tomonlama olib borish va unga muvofiq tayyorlangan kukundan buyumlarni qoliplash hisobiga yo‘qotiladi.

8. Kukunli texnologiya orqali material olishda presslashning roli.

Bir qo‘zg‘aluvchi (suzuvchi) shtamp bilan presslashning sxemasi. Hozirgi kunda ikki tomonlama presslash nisbatan juda yupqa koshinlardan tashqari deyarli barcha turdag'i keramik buyumlarni ishlab chikarishda zaruriy usul deb tan olingan.

«Suzuvchi» qoliplarni qo‘llash presslanayotgan material va bir qo‘zg‘aluvchi shtamp bilan siqish jarayonida qolipning devorlari orasida hosil bo‘ladigan ishqalanish kuchidan foydalanishga asoslangan. Press-qolipga ta’sir etayotgan ishqalanish kuchlari uni qo‘zg‘almas pastki shtampga tomon suradi, bunda qorishma ikki tomonlama siqishga duch keladi.

Presslashda yuqori sifatga erishish uchun bir qator texnologik shartlarni bajarish zarur:

1. Qorishmaning maqbul namligini tanlash;
2. Korishma va presskukunning donadorlik tarkibini tanlash;
3. Presslash bosimini to‘g‘ri tanlash va qorishmaning xususiyatlari o‘zgarishiga ko‘ra uni boshqarish imkoniyati;
4. Pauza bilan presslash («bosqichli»);
5. Pressqolipga sochilgan kukunni vakuum ostida presslash;
6. Tebratish bilan zichlashtirish.

Izostatik usulda detallarni presslash texnologiyasi quyidagilardan iborat:

1. Press-kukunni press-qolipga solinishi ;
2. Harakatsiz shakldagi massani 4 shtempel ta’sirida dastlabki siqish ;
3. Massani majburiy tushirish bilan tugal presslash);
4. Shtempel va press-qolipni avvalgi holatiga qaytarish ;
5. Buyumni itarib chiqarish .

Press-kukunni vertikal yo‘nalishda siqish shtempel bilan, yonakisi press-bufer bilan amalga oshiriladi. Presslangan buyumlarni solish va itarib chiqarish usuli bunda gidrostatik presslashga qaraganda osonroq.

Izostatik usulda yarimquruq keramik massadan (namligi 4-8%) murakkab qolipli maxsus keramik buyumlarni presslash mumkin.

Izostatik presslash usuli gidrostatik usulga o‘xshash, press-kukunni tayyorlash, buyumni qoliplash bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Izostatik presslashga gidrostatik presslashda ishlatiladigan jihozlar qo‘llaniladi.

Quyish usuli bilan buyumlarni qoliplash uchun jihozlar. Sanitar-qurilish fayansi, bezash uchun murakkab ichki yuzalarga ega bo‘lgan dekorativ keramik buyumlar gipsli qoliplarda quyiladi.

Quyilgan buyumlarning sifati qoida bo‘yicha boshqa usullarda qoliplanganlarda yuqoriroq bo‘ladi. Oxirgi paytgacha quyish asosan qo‘lda amalga oshirilgan.

“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN O’QUV-USLUBIY MAJMUA

Buyumlarni quyishda shliker (suyuq keramik massa) tayyorlash uchun aralashtirgichlar yoki uni uzatish uchun generatorli yoki membranalni nasoslar, tarqaluvchi shlangli quvurlar va qoliplarga quyish uchun boshqa oddiy qurilmalar ishlataladi. Ohirgi yillarda konveyerli qurilmalar ishlatala boshlandi. Ularda transportli va boshqa bir-necha texnologik operatsiyalar, masalan gipsni o’rta qismlarni olib tashlash, qoliplarni quritish mexanizatsiyalashtirilgan.

Eng yuqori iqtisodiy samarani gips qoliplarini quyish, terish va yoyish mexanizmlari avtomatik quritgichli bir agregatda yig‘ilgan mashinalar beradi. Bu ishchi kuchni sezilarli tejamini va mashinalarning to‘xtovsiz ishini ta’minlaydi.

Murakkab formali katta buyumlarni, masalan sanitar fayansini quyishning texnologik tizimi buyumlarning o‘lchamlari va keramik massaning (shliker) hususiyatlariga bog‘liq. Shuning uchun bunday buyumlarni quyish jarayonini mexanizatsiyalashtirish uchun konveyerli qurilmalar ishlataladi, ularda gipsli qoliplar berilgan, quyish jarayonining optimal uzoqligiga mos vaqt intervallari bo‘yicha itarib chiqariladi.

Quyish konveyerining buyum devorlarini hosil qiluvchi, qolipni yoyib qurituvchi ba’zi qismlari uzunligini quyish jarayoni tartibining o‘zgarishiga qarab o‘zgartirish mumkin.

Keramik buyumlarni quyishni mexanizatsiyalash uchun qo‘llaniladigan eng oddiy va arzon jihozlar - rolikli transporterli va gidravlik itargichli konveyerli quyish ustakovkalaridir.

Tayanch so‘z va iboralar:

Presslash, shakl, shakllash, kukun, shlam, shliker, gidravlik press, friksion press, bosim, press-kukun, press-qolip, hidrostatik presslash, izostatik presslash.

Guruhdagi har bir talabaga individual tarzda “Vakuumpresslash”, “Shakllash” va “Qovushqoqlik” suzlariga “Sinkveyn” tuzish topshiriladi.



Nazorat savollari:

1. Presslash deb qanday jarayonga aytildi?
2. Pressning aralashtirgichdan farqi nima?

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

178 bet

***“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA***

3. Presslashga xizmat qiladigan qanday asbob-uskunalarini bilasiz?
4. Mahsulotni sifatiga presslash bosimining ta’siri.
5. Yarim mahsulotning zichligiga presslash tartibining ta’siri.
6. Presslash vaqtining zichlikka ta’siri.
7. Presslash tenglamasi deb nimaga aytildi?
8. Friksion presslar nima uchun ishlataladi?
9. Gidravlik presslarda qanday presslash variantlari va tartiblarini amalga oshirish mumkin?
10. Gidrostatik qoliplashda presskukunning namligi?
11. Xom-ashyo aralashmalarini presslashda qo’llaniladigan jixozlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

№	Muallif, adabiyot nomi, turi, nashriyot, yili, xajmi	Kutubxonadagi nusxasi
1	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.	50
2	Usupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.	100
3	Дудеров И.Г., Матвеев Г.М., Суханова В.Б. Общая технология силикатов. .-М., Стройиздат., 1987. – 560 с.	5
4	Бобкова Н.М., Дятлова Е.М., Куницкая Т.С. Общая технология силикатов. – Минск: Высшая школа, 1987.-288 с.	3
12.		
5	Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar va buyumlar texnologiyasi. Toshkent, Ilm ziyo, 2006. – 223 bet.	16
6	Сулименко Л.М., Тихомирова И.Н. Основы технологии тугоплавких неметаллических силикатных материалов. Учебное пособие.- М.: РХТУ, 2000. -248 с.	1
7	Канаев В.К. Новая технология строительной керамики - М., Стройиздат., 1990. – 263 с.	5

**“SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI” FANIDAN
O’QUV-USLUBIY MAJMUA**

4-bo‘lim. Termik ishlov.


8-MA’RUZA.

Termik ishlovning nazariy asoslari. Pishish jarayonlarini fizik-kimyoviy asoslari. Ishtirok etuvchi faza va modda almashinish mexanizmiga ko‘ra pishish jarayonlarini tasniflanishi. (4 soat)

Reja:

- 1 qism. 1. Silikat va qiyin eruvchi nometall materiallar ishlab chiqarishda quritish jarayoni.
2. Xom ashyni quritish.
3. Qoliplangan buyumlarni quritish.
- 2 qism. 1. Silikat va qiyin eruvchi nometall materiallar ishlab chiqarishda mahsulotlarni kuydirish (eritish).
2. Aralashma va buyumlarni kuydirish.

1 qism. Silikat va qiyin eruvchi nometall materiallar ishlab chiqarishda quritish jarayoni



22-rasm. Keramika texnologiyasida qo‘llaniladigan asosiy quritgichlarning sxemalari: a) laboratoriya quritish shkafi: 1-signal lampasi; 2-pribor o‘chirgich; 3-shkalali issiqlik regulyatori; 4-havo kiritiluvchi teshiklar; 5-shkaf qopqog‘i; b) barabanli quritich: 1-yukdan bo‘shatish kamerasi; 2-chang cho‘ktirgich; 3-ventilyator; 4-oziqlantirgich; 5-xom ashyo bunkeri; 6-aralashtirish kamerasi; 7- o‘choq; 8-yuklovchi parraklar; 9-issiqlik almashtirgich; 10-tayanch

Bu bobda talaba quyidagi materiallar bilan tanishtiriladi:

- TERMIK ISHLOV BERISH – turli usul va agregatlar yordamida haroratli muhitda olib boriladigan jarayon;

- QURITISH - xom ashyo aralashmalarining namligini kamaytirish yoki butunlay yo‘qotish jarayoni;

- QURITGICH - shakllangan va shakllanmagan xom mahsulotlarni past haroratda qizdirish orqali amalga oshiriladigan jarayon;

- QURITGICHLAR TURI – silikat buyumi va xom ashylarini maxsus agregatlar - kamerali, tunnelli, barabanli, oqimli pnevmatik, qaynovchi qatlamlı, purkagichli va boshqalar;

- QURITISH TEMPERATURASI – xom ashyo uchun yuqori va yarim fabrikat uchun 175°S gacha;

QURITISH VAQTI - xom ashyo uchun qisqa va yarim mahsulot uchun uzoqroq,

roliklar; 11-uzatma; 12-chang konveyeri; 13-quritilgan material konveyeri; v) tunnel tipidagi quritgich: 1-issiq gaz yuboriladigan kanal; 2-so‘ruvchi truba; 3-vagonchalar.	u mahsulotning qalinligiga bog‘liq bo‘lib, qalinlik kamayishi bilan qisqaradi.
--	--

Xom ashyni quritish


Quritish deganda barcha materiallar (qattiq, suyuqlik va gazli moddalar) tarkibidagi namni kamaytirish yoki yo‘qotish tushiniladi. Silikatlar texnologiyasda asosan qattiq moddalar va ularning suspenziyalari tarkibidagi suv miqdorini kamaytirish quritish jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Materiallarni quritish - quritish agenti (havo, tutun gazlari, gaz-havo aralashmasi, qizigan par va hokazo) va quritilayotgan material namligi orasidagi issiqlik va massa almashuviga oid jarayonlar. Quritish vaqtida asosan ozod, kapillyar va adsorbsion namlik chiqarib yuboriladi. Material yoki buyumdagи suvning parlanib ketishi quritish agenti issiqligi konveksiyasi, qizdirilgan yuzadan nur tarqalishi, material tanasida yuqori chastotali maydon hosil qilishi orqali amalga oshadi. Suvning material tanasidan chiqib ketishi uchun uni qamrab turgan tashqi muhit namlikka to‘yinmagan bo‘lishi shart. Demak, qurish jarayonining intensiv ketishi uchun nam material yuzasidagi suv parlari konsentratsiyasi (parsial bosimi) tashqi muhittagi uning konsentratsiyasidan kattaroq bo‘lishi kerak. Parsial bosimlardagi farqlar qanchalik katta bo‘lsa quritish jarayoni intensivligi shunchalik katta bo‘ladi.

Xom ashyo materiallari turli quritgichlar yordamida quritiladi. Quritish jarayonini maydalash jarayoni bilan birga olib borish ham mumkin. Quritish temperaturasi ham turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, kvarsli qumni turli temperatura va tezlikda quritsa bo‘ladi. G‘iltuproq, magnezit va dolomitni xoxlagan tezlikda quritish mumkin, ammo quritgichdagi harorat 400 gradusdan oshib ketmasligi zarur, aks holda xom ashyo xossalari o‘zgartirib yuboruvchi fizik-kimyoviy protsesslar sodir bo‘ladi.

Quritgichlar quritish maydoni konstruksiysi, quritilayotgan material harakati, qo‘llanilayotgan quritish agenti turi va boshqa ko‘rsatgichlarga ko‘ra farqlanadi. Barcha silikat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mayda donali, mayda zarrachali material va kukunlarni quritishda barabanli va pnevmatik quritgichlardan foydalilanadi.

Quritish davrida quritilayotgan buyumda hajmiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ular asosan quritish vaqtiga bog‘liqligini quyidagi 23 - rasmdan ko‘rish mumkin.



23-rasm. Quritish vaqtiga bog'liq ravishda gildan tayyorlangan buyum hajmi (%)ni o'zgarishi sxemasi.

Barabanli quritgichlarda asosan ohaktosh, qum, gil, ko'mir kabi xom ashyolar quritiladi. Quritilayotgan materialarning o'lchamlari 40 mm gacha bo'lgani yaxshi. Bunday quritgichlar yordamida gipstoshdan qurilish gipsi olishda foydalansa ham bo'ladi. Po'latdan yasalgan silindr diametri 3,5 m bo'lib, uzunligi esa 3,5-7 m gacha boradi. Baraban gorizontga 5 gradusgacha qiya qilib o'rnatilgan bo'lib, u minutida 1-9 marta aylanadi. Quritish agenti sifatiga 800-1000 gradusgacha qizdirilgan havo yoki tutun gazlari ishlatiladi.

Suspenziya (shlam va shliker)larni quritish uchun purkagichli quritgichlardan keng foydalilanadi. Natijada yuqori dispersli bir o'lchamli kukunlar hosil bo'ladi. Bunday quritish pardozlash plitkalarini ishlab chiqarishda keng ishlatiladi. Shliker quritgichga quritish uchun mexanik yoki pnevmatik purkagichli qurilmalar - forsunkalar yoki tez aylanuvchan disklar yordamida uzatiladi. Suvsizlanish 2-5 s davomida amalga oshadi.

Qoliplangan buyumlarni quritish

Yuqorida xom ashyolarni quritish bilan tanishdik. Endi qoliplangan buyumlarni quritish va kuydirish qanday kechadi degan savolga javob berishimiz kerak. Bunday termik ishlovlardan berish keramika va shisha, bog'lovchi modda va elektron texnika vositalari ishlab chiqarish texnologiyalarining eng murakkab va ma'sul jarayonlari bo'lib, tayyor mahsulotning ma'lum darajada sifatini ta'minlaydi. Bog'lovchi moddalar texnologiyasida "xo'l" va "quruq" aralashmani kuydirish va to'yish, keramika va o'tga chidamli materiallar texnologiyasida esa aralashma yoki granulalarini eritish va qoliplangan mahsulot kuchlanishini yo'qotish kabi asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Tuzuvchilar: Aripova M.X., Babaxanova Z.A.

182 bet

"SILIKAT MATERIALLAR TEXNOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI" FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Nomlari yuqorida qayd etilgan silikat mahsulotlariga termik ishlov berish turli usul, agregat va haroratda olib boriladi. Ulardan eng muhim qoliplangan mahsulotni quritish va kuydirish.

Keramika va o'tga chidamli materiallar ishlab chiqarishda avvalo xom mahsulot quritiladi. Hozirgi paytda mahsulotlarni quritish protsessi zamonaviy, qo'l kuchi va qo'l mehnatidan xoli bo'lgan kamera, konveyer yoki tunnel quritgichlarda 360-390 K issiqlik yordamida olib boriladi. Quritish vaqt ham texnika taraqqiyoti zaminida borgan sari qisqarmoqda.

Misol tariqasida xom g'isht quritilishini keltirishimiz mumkin. Nurli yoki rotatsion avtomatlar bilan brusdan kesilgan g'isht "avtomat taxlovchi" mashinalari yordamida quritish vagonchalarga yuklanadi. Jumladan "CM 562A" markali shunday mashina bir soatda 8000 dona g'ishtni taxlaydi, ya'ni ilgari 8-10 kishi bajaradigan ishni bir o'zi bajaradi. So'ngra 6-9 protsentli namlikkacha quritiladi. Qadim zamonlarda bu eng mashaqqatli operatsiya hisoblanib, g'isht haftalab ochiq maydon va maxsus saroylarda quyosh nuri yoki yonayotgan o'tin issiqligi yordamida quritilar edi. Hozirgi paytda esa quritish vaqt bir necha marta qisqardi: u kamera agregatida 40-70 soat, tunnel agregatida esa 15-40 soatni tashkil qiladi. Quritish vaqt mahsulotning qalinligiga bog'liq bo'lib, u qalinlikning kamayishi bilan qisqarib boradi.

Elektron texnikasi materiallari va buyumlarini ishlab chiqarishda to'rt usul qo'llaniladi. Ulardan shliker va plastik aralashmalar asosida mahsulot qoliplanganda quritish jarayoni kuchga kiradi.

Bog'lovchi moddalardan sementlar qisman va shishalar ishlab chiqarishda xom ashyo aralashmasi butunlayin eritishgacha olib boriladi. Shuning uchun ularni quritishga zaruriyat yo'q.

Tayanch so'z va iboralar.

- Xom ashyon quritish - yuqori haroratda (600-700°С) to'g'ri tokli sharoit (material va issiqlik bir tomoniga harakat qiladi)da mexanikaviy suvni kamaytirish uchun amalga oshiriladigan jarayon.

- Buyumlarni quritish - zamonaviy, qo'l kuchi va qo'l mehnatidan xoli bo'lgan kamera, konveyer yoki tunnel quritgichlarda 360-390 K li issiqlik yordamida olib boriladigan jarayon.

- Quritgich - buyumlarni quritish uchun ishlatiladigan jihoz.

- An'anaviy quritgichlar - kamerali, konveyerli yoki tunnelli issiqlik agregatlari.

-Noan'anaviy quritgichlar - oqimli pnevmatik quritgich, uch pog'onali aerofontanli quritgich, qaynovchi qatlamlili quritgich, forsunkali va markazdan qochirma purkash diskli purkagichli quritgichlar va hokazo.

Nazorat saollari.

- Xom ashyo materiallari va qoliplangan buyumlarni quritish jarayoni qanday kechadi?

- Qanday quritish uskunalarini bilasiz, ular qanday qismlardan tashkil topgan?

